

**CHDPU**

CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**5YOSH**

**D.Mutalova  
G.Tojiboyeva D.Maxmudova**



**MAKTABGACHA  
TA'LIMDA  
PEDAGOGIKA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**D.Mutalova, G.Tojiboyeva, D.Maxmudova**

**MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIKA**

**Darslik**

**Chirchiq- 2022  
«History and page»**

UO'K: 373

KBK: 74.1

M-91

**D.Mutalova, G.Tojiboyeva, D.Maxmudova/ Maktabgacha ta'limda pedagogika/ Darslik. – Chirchiq: «History and page», 2022. – 188 bet.**

Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni haratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu o'quv qo'llanmada shular yoritib berilgan.

**Taqrizchilar:**

A. A. Abdullayev - Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri, dotsent.

T. L. Xurvaliyeva – Nizomiy nomidagi TDPI doktoranti, p.f.n., dotsent.

ISBN 978-9943-9240-4-8

© D.Mutalova va b., 2022

© «History and page», 2022



**Maktabgacha ta'lim tarixi. Maktabgacha pedagogikaning asoslari.  
Maktabgacha pedagogikaning predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari.  
Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.**

**Reja:**

1. Pedagogika ijtimoiy-siyosiy fan sifatidagi tarixi
2. Pedagogika fanining asosiy vazifalari va kategoriyalari.
3. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Pedagogika fanlari tizimi.

**1. Pedagogika ijtimoiy-siyosiy fan sifatidagi tarixi.**

Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paidagogos "bola" va "etaklayman") ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

**Didaktika** ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos "o'rgatuvchi", didasko "o'rganuvchi" ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta'lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni berishga yo'naltiriladi. Umumiy ta'lim asosida o'zlashtirilgan ma'lumotlar kelgusida shaxsning kasbiyMaktabgacha pedagogikaning asoslari. Maktabgacha pedagogikaning predmeti va vazifalari.

Ta'lim, shuningdek, turli darajadagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishiga ko'ra maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari ta'lim kabi turlarga bo'linadi.

**Tarbiya nazariyasi** – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.

**Ijtimoiy tarbiya** aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiya va

uning bosqichlari. Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalaniş yo'lida olib borgan harakatlari tarbiya g'oyalarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo'lib hayot kechirishi sababli bolalarga tirikchilik o'tkazish yo'lidagi faoliyat (o'simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o'rgatish guruh a'zolari tomonidan birdek amalga oshirilgan. Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o'yin jarayonlarida o'zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jinsiy harakterga ega bo'lganligi bois o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashda o'ziga xos jihatlar ko'zga tashlangan.

Oila, xususiy mulk va davlatning paydo bo'lishi ijtimoiy tarbiya mazmunida ham tub o'zgarishlarning sodir etilishi, quldorlarning paydo bo'lishi olib keldi. Aynan mana shu davrdan tarbiya jamiyatning ijtimoiy talab va ehtiyojlari asosida yo'lga qo'yila boshladi. Erkin fuharolarni tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni va vositalari borasidagi fikrlar Demokratik, Platon va Aristotellarning asarlarida muhim o'rin egallagan. Mutafakkirlarning asarlarida ushbu fikrlar mustaqil pedagogik nazariya sifatida emas, balki falsafiy harashlar yoki jamiyatni tashkil etish loyihasining muhim komponenti tarzida bayon etilgan. Ushbu davrda tabiiyijtimoiy fanlar tizimi shakllanishi uchun boshlang'ich asoslar qo'yildi.

Quldorlik tuzumida erkin bo'lmagan kishilar (qullar)ning haqhuquqlari cheklanganligi bois tarbiya tizimi faqatgina quldorlar, ularning farzandlari uchun xizmat qilgan.

Quldorlik tuzumi o'rnida shakllangan feodal tuzumda pedagogik g'oyalar feodallar manfaatini ifoda eta boshladi. Mazkur davr pedagogik jarayonni tashkil etishda diniy g'oyalar yetakchi o'rin egallashi bilan tavsiflanadi.

Sharq Uyg'onishi deb nom olgan tarixiy jarayon aynan feodal tuzumi - o'rta asrlar davrida sodir bo'ldi. Sharqda buyuk allomalar - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayqon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad alFarg'oniy, G'arbda esa T.Mor, T.Kampanella, E.Rotterdamskiy, F.Rable, M.Monten' va boshqalar tomonidan har tomonlama rivojlangan, ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom, antik dunyo va burjaziya davri yutuqlari asosida ilmiy bilimlarni o'zlashtira olgan shaxsni tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va puxta asoslab berildi.

Savdo, hunarmandchilik va manufaktura negizida rivojlanib borayotgan ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish yo'lidagi amaliy harakatlar bu boradagi muvaffaqiyat murakkab texnikani boshqara oladigan shaxsni shakllantirish evaziga hal etilishi tasdiqladi. Mazkur davrda ilg'or, progressiv pedagogik g'oyalar ilgari surildi. Aksariyat g'oyalar mazmunida bilim olishga nisbatan ijtimoiy tenglikni qaror toptirish borasidagi qarash o'z ifodasini topdi.

Aynan shu davrda pedagogika fani asoslari muayyan tizimga solindi va ilmiy jihatdan asoslandi. Bu o'rinda pedagogika fani rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan mutafakkirlar: G'arbda - Ya.A.Komenskiy, D.Didro, J.J.Russo, F.Gerbart, V.V.Disterveg, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Sharqda I.Ibrat, S.Siddiqiy, A.Shakuriy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy, M.Abdurashidov, M.Behbudiylar shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalash borasidagi qarashlarni yanda boyitdilar hamda ta'lim tizimiga ilm-fan, texnika yangiliklarini tadbqiq etish, o'qitishni yangi tizim (izchil, uzluksiz, asoslangan) asosida tashkil etish kabi g'oyalarni ilgari surdilar. Sobiq Sho'ro davrida pedagogika fani mazmunan ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida boyidi, ta'lim muassasalari tizimi shakllantirildi, shuningdek, har tomonlama (garmonik) rivojlangan shaxsni shakllantirish nazariyasi asoslandi. Biroq, mazkur nazariya g'oyalarni amaliyotga tadbqiq etishning puxta asoslangan mexanizmi yaratilmadi.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrda Shveysariya, Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarida nemis pedagogi Fridrix Frebelning maktabgacha tarbiya nazariyasi keng ommalashdi. Pedagogika tarixida Frebelning ahamiyati shu bilan belgilandiki, u maktabgacha tarbiya nazariyotchisi bo'lgani holda maktabgacha pedagogikani mustaqaqil fan tarmog'iga ajratishiga ko'maklashdi. U ilk bor "bolalar bog'chasi" tushunchasini muomilaga kiritdi.

Tarbiyaning maqsadi bolalarni jamiyatda ma'lum bir o'ringa tayyorlash yoki ularni yoshligidan kasb-hunarga o'rgatish yemas, balki har bir bolaning rivojlangan shaxs bo'lishiga imkon berishdir. Bu faqat fikrlash va harakat, bilim va harakatlar, bilim va mahorat o'rtasida ajralmas aloqani yuzaga keltirsa bo'ladi. Nemis pedagogi Fridrix Vilgelm avgust Froebel (1782-1842) o'z hayotini bolalarga bag'ishladi va u umumrivojlantiruvchi qo'llanmalar guruhi asosida maktabgacha ta'limning aniq tizimini ishlab chiqdi. Bolalik haqidagi qarashlari tufayli bog'chalar dunyoda birinchi marta paydo bo'ldi, chunki biz ularni o'z vaqtida bilamiz. Barcha zamonaviy usullar F.Froebelning pedagogik qarashlaridan olingan. Asosiy tamoyillari bo'lgan va qolaversa: ta'lim-tarbiya yagona tizim sifatida, uning roli bolaning tabiiy sifatlarini rivojlantirish, bolaning o'z-o'zini rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat. U bolaga tabiiy ravishda atrof — muhitni o'rganish, yaratish, aylantirish imkoniyati beriladi va bularning barchasi bola uchun eng yaxshi tarzda-o'yin orqali amalga oshiriladi.

Friedrich Froebel ta'lim maktabi 250 yoshdan oshganiga qaramay, butun dunyoda esda qoladi va e'zozlanadi. Bolalar bog'chasi deb nomlangan maktabgacha ta'limning davlat tizimini yaratgan bu ajoyib nemis o'qituvchisi edi.

Froebelning rejasiga ko'ra, bolalar bog'chasi to'rtta muassasadan iborat bo'lishi kerak:

- > yosh bolalar tarbiyasi uchun namunali muassasa;
- > bolalar "bog'bon kizlar" ta'lim va tarbiya muassasasi»;
- > foydali bolalar o'yinlarini tarqatish uchun muassasa;
- > ota-onalar, tarbiyachilar va bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilari o'rtasidagi davriy muloqot.

"Blankenburg nemis bolalar bog'chasi haqida hisobot" risolasida, Froebel tushuntirdi: bolalar bog'chasining maqsadi nafaqat maktabgacha bolalar muassasida bolalarni nazorat ostiga olish, balki ularning xissiy ruhini rivojlantirish oshirish, ularning jismonan rivojlantirish, his — tuyg'ularini rivojlantirish va aqllarini rivojlantirish, tabiat va odamlar bilan tanishtirish hayotning asl manbaiga qalbini yo'naltirish.

Froebel nutqni ta'limning yeng muhim omili deb hisobladi. Uning fikricha, o'yin albatta suhbat yoki qo'shiq bilan birga bo'lishi, bolalarga esa gapirish imkoniyati berilishi kerak. Froebel o'zining pedagogik qarashlarida hayot va borliqning umuminsoniyligi nazariyasidan davom etdi: "har bir narsada abadiy qonun hukm suradi." Ta'lim va tarbiyani barcha yoshdagi ta'lim muassasalarining yagona tizimi shaklida tashkil yetish taklif yetildi.

Ta'lim qonunlari Froebel tomonidan "insondagi ilohiy tamoyilning o'z-o'zidan paydo bo'lishi." Boshqacha qilib aytganda, uning rivojlanishida bola inson ongi rivojlanishining tarixiy bosqichlarini ijodiy takrorlaydi. Asosiy pedagogik tizim-o'yin nazariyasi. O'yin -ichki dunyodan tabiatga ko'prikdir.

Froebelning fikriga ko'ra, bola tabiiy ravishda to'rtta instinktga yega: faoliyat, bilim, badiiy va diniy. Faoliyat instinkti, yoki faoliyat, bitta ijodiy ilohiy tamoyilning boladagi namoyon bo'lishidir; bilim instinkti insonga barcha narsalarning, ya'ni yana Xudoning ichki mohiyatini bilishga xos bo'lgan intilishdir. Froebel bolaning rivojlanishida ta'lim-tarbiyaning rolini diniy va mistik asoslab berdi, o'z-o'zini rivojlantirish g'oyasini boladagi tabiiy prinsipni aniqlash jarayoni sifatida talqin etdi.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishi ularning jismoniy rivojlanishidan boshlanadi va tana parvarishi psixik rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Froebel barcha a'zo va organlarning asta-sekin mustahkamlanishi va rivojlanishi uchun bolaga harakat, o'rtacha ovqatlanish va qulay kiyim berish yerkinligini tavsiya qildi. Har qanday faoliyat turiga ahamiyat berildi: o'yinlar, ritmik harakatlar, qurilish yasash oddiy qishloq xo'jaligi ishlari, sayr.

Fröbel "bolalar rivojlanishining eng yuqori bosqichi" o'yinini ko'rib chiqdi. U o'z nazariyasini ishlab chiqdi, ochiq o'yinlarni to'plab, metodik jihatdan sharhladi. O'qituvchi o'z amaliyotida turli ko'rgazmali, mehnat darslarini muayyan, qat'iy tartibga solingan tizimda olib bordi. Uning mohiyatini ochib bergan Fröbel bola uchun o'yin-bu instinkt, uning asosiy faoliyati, o'zi yashayotgan muxit, o'z hayoti yekanligini isbotladi. Bola o'zining ichki dunyosini tashqi qiyofasi orqali ifodalaydi. Oilaning hayotini, onaning gudakka bo'lgan g'amxo'rlikga taklid qilish, bola o'zida tashqi narsalarni tasvirlaydi, lekin bu faqat ichki kuchlar tufayli amalga oshishi mumkin.

Fröbel ham o'yinni axloqiy tarbiya vositalaridan biri deb hisoblab, jamoaviy va individual o'yinlarda kattalarga taqlid qilib, bolaning axloqiy xatti-harakat qoidalari va me'yorlarida tasdiqlanishiga ishonib, uning irodasini tarbiyalaydi. Bundan tashqari, o'yinlar bolalar ijodiyoti uchun zarur bo'lgan tasavvur va tasavvurlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Fröbelning fikriga ko'ra, ta'limning o'zi "bolalikning ikkinchi davri" bilan boshlanishi kerak (bir yildan keyin), siz bolaning irodasining namoyon bo'lishiga rahbarlik qilishingiz va uni narsalarning soni va xilma-xilligi tushunchalari bilan tanishtirishingiz mumkin.

Tarbiyachining vazifasi o'yinga to'g'ri yo'nalish berish va asta-sekin o'yin orqali bolaga tabiat tomonidan beriladigan hamma narsani rivojlantirishdan iborat. Bu hech qanday majburlashni talab qilmaydi-agar u o'zini tushunsa, bolani nima qilishga undash kifoya.

Xususan, Fröbel tabiiy Fanlar bilan tanishishning ahamiyati haqidagi g'oyani ishlab chiqdi: hayot tabiatda yeng aniq va xilma-xil ifodalanadi, shuning uchun har kim tabiatni kuzatish orqali hayot g'oyasini yeng oson o'rganishi mumkin.

Hayotni tushunish, uni rivojlantirish va tashkil yetishda "xilma-xillikda birlik" tushunchasiga alohida o'rin beriladi. Tarbiyaning vazifasi inson qalbiga singdirilgan birlikni rivojlantirish va uni mumkin bo'lgan yeng mukammal xilma-xillikka aylantirishdir.

Bolada rivojlanishni istagan narsa allaqachon uning tabiatida bo'lishi kerak. Mukammal birlikni yaratish uchun barcha inson navlari bir vaqtda va bir xil darajada rivojlanib, bir-biriga uyg'un munosabatda bo'lib turishi zarur. Instinktadan asta-sekin his qilish va keyin ongga va irodaga o'tib, bola rivojlanishning har bir bosqichida faqat nimani tushunishi, o'zlashtirishi va qayta ishlashi va keyingi bosqichga tayyorgarlik vazifasini o'tashi kerak.

Shubhasiz, Fröbel noyob pedagogik sezgi va qobiliyatga ega edi. Zero, aslida XIX asr boshlarida maktabgacha tarbiya degan narsa yo'q edi. Lekin maktablar bor edi! guruhlarda yesh bolalar bor edi. Bu yangi munosabatlar, bolalar



va o'qituvchilar uchun muayyan qiyinchiliklar tugdirardi. Bu shuni anglatadiki, bolalarni guruhlariga to'plab, o'qituvchilar rahbarligida maktabga tayyor bo'lishlari kerak edi.

Froebel bog'cha tarbiyasining asosiy prinsipini ham belgilab berdi: bolaga xalaqit bermaslik, balki tabiat unga bergan barcha yaxshi narsalarni ishlab chiqib, yordam berish.

Umuman, Froebel ta'limga o'qituvchi shaxsning rivojlanishiga asosan turli tadbirlar orqali ta'sir ko'rsatadigan ikki tomonlama jarayon, tarbiyachini ham, tarbiyalanuvchilarni ham o'zlarini o'zgartirishga qaratilgan ongli harakatlarga olib keladigan jarayon deb qaradi. Haqiqiy tarbiyachichi har doim bir vaqtning o'zida "berish va qabul qilish, birlashtirish va ajratish, buyurish va sabr-toqatni mashq qilish, qat'iy va marhamatli, mustahkam va moslashuvchan bo'lishi mumkin."

Froebel o'z davrining ilk pedagoglaridan biri bo'lib, bolalar eng to'liq amalga oshiriladigan o'yinlarda yekanligini anglagan. Uning bolalar bog'chasi uchun, u bolalar bunday kupligini yoki to'p kab sovg'alar, deb qabul o'yinlar va o'yinchoqlar butun majmuini ishlab chiqildi. Bundan tashqari, ular o'qituvchilar aytgan hikoyalarni ijro yetishdi yoki tinglashdi.

Pedagog bolalarga geometriyaning ba'zi oddiy qoidalarini tushuntirish uchun yig'ma qog'ozni targ'ib qila boshladi. U ularga dastlab geometriya asoslarini barmoqlari bilan "his qilish" uchun origami deb ataladigan va faqat keyin tushunish uchun doimo shug'ullanishni maslahat berdi. Froebel shuningdek, kubik qutiga katlanma bo'lishi kerak bo'lgan klassik bloklardan iborat jumboq muallifi sifatida ham tanilgan. Erta rivojlanish uchun ushbu yog'och qurilish to'plami bolani geometrik jismlarning xususiyatlari bilan tanishtiradi, fazoviy tasavvurni, qismlarni bir butunga ulash qobiliyatini o'rgatadi — bularning barchasi faqat o'yin tarzda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo'li demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligi e'tirof etilib, "ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish" davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deya belgilandi. Asosiy e'tibor yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi.

Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy hrakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'rganadi.

**Pedagogika fanining vazifalari.** Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy

munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyatini muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

- Ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.

- Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.

- Ta'lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'limtarbiya usullari bilan qurollantirish.

- Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shartsharoitlarini o'rganish.

- O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.

- Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

### **Maktabgacha pedagogikaning vazifalari**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim olish ehtiyojini, o'qishga qiziqish, kitod o'qish, maktabga boorish hissiyatini shakllantirish

Bolalarda yuksak odob, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni mentalitetimiz asosida o'rgatish

Maktabgach ta'lim sohasidagi pedagogik muammolarni hal qilish.

Bolalarda mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatuvchi ilg'or metodlarni qo'llash.

### **Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. (tushunchalari)**

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga haratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.

**Shaxs** – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

**Tarbiya** - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

**Ta'lim** – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

**Bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

**Ko'nikma** – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

**Malaka** – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

**Ma'lumot** – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

**Rivojlanish** – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

**Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.** Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqati nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

**Falsafa** – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

**Iqtisod** – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarni anglashga xizmat qiladi.

**Sosiologiya** – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

**Etika** - shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

**Estetika** - shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Pedagogika fanining predmetlar aro bog'liqligi madaniyatshunoslik psixologiya falsafa tarix mantiq biologiya axloqshunoslik informatika fiziologiya matematika kibernetika siyosatshunoslik etika, estetika sosiologiya dinshunoslik

Fiziologiya- o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi. Gigena - o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

**Psixologiya** - shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiyrodaviy sifatlarini tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

**Tarix** - pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi. **Madaniyatshunoslik** - o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

**Tibbiy fanlar** - shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

**Pedagogika fanlari tizimi.** Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir:

**Umumiy pedagogika** - maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

**Maktabgacha ta'lim pedagogikasi** - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

**Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi** - boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik

xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

**Korreksion (maxsus) pedagogika** – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. O'z navbatida korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli sohaları kiradi. Ular quyidagilardir: **Surdopedagogika** va **surdopsixologiya** – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi. **Oligofrenopedagogika** va **oligofrenopsixologiya** – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

**Tiflopedagogika** va **tiflopsixologiya** – ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi. **Logopediya** va nutqiy buzilishlar psixologiyasi – nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlar bo'lgan bolalar (ko'r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

**Metodika** – xususiy fanlarni o'qitish xususiyatlarini o'rganadi. **Pedagogika tarixi** – ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o'rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi.

**Pedagogik texnologiya** – ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

**Pedagogik mahorat** – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

**Ta'limni boshqarish** – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o'rganadi.

**Ijtimoiy pedagogika** – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

**Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Pedagogika atamasining ma'nosi nima?
2. Didaktika atamasining ma'nosi nima?
3. Pedagogika faninig rivojiga xissa qo'shgan Sharq olimlari kimlar?
4. Pedagogika faninig rivojiga xissa qo'shgan G'arb olimlari kimlar?
5. Pedagogika fanining vazifalari?
6. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari qaysilar?

**O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi. Ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari.** "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" qonun.

### **Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi.**

**Reja:**

- 1. Mutaxassislar Froebel - maktabgacha pedagogika asoschisi**
- 2. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi.**
- 3. Maktabgacha pedagogika fan sifatida.**

Tarbiyaning maqsadi bolalarni jamiyatda ma'lum bir o'ringa tayyorlash yoki ularni yoshligidan kasb-hunarga o'rgatish yemas, balki har bir bolaning rivojlangan shaxs bo'lishiga imkon berishdir. Bu faqat fikrlash va harakat, bilim va harakatlar, bilim va mahorat o'rtasida ajralmas aloqani yuzaga keltirsa bo'ladi. Nemis pedagogi Fridrix Vilgelm avgust Froebel (1782-1842) o'z hayotini bolalarga bag'ishladi va u umumrivojlantiruvchi qo'llanmalar guruhi asosida maktabgacha ta'limning aniq tizimini ishlab chiqdi. Bolalik haqidagi qarashlari tufayli bog'chalar dunyoda birinchi marta paydo bo'ldi, chunki biz ularni o'z vaqtida bilamiz. Barcha zamonaviy usullar F. Froebelning pedagogik qarashlaridan olingan. Asosiy tamoyillari bo'lgan va qolaversa: ta'lim-tarbiya yagona tizim sifatida, uning roli bolaning tabiiy sifatlarini rivojlantirish, bolaning o'z-o'zini rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat. U bolaga tabiiy ravishda atrof — muhitni o'rganish, yaratish, aylantirish imkoniyati beriladi va bularning barchasi bola uchun eng yaxshi tarzda-o'yin orqali amalga oshiriladi.

Friedrich Froebel ta'lim maktabi 250 yoshdan oshganiga qaramay, butun dunyoda esda qoladi va e'zozlanadi. Bolalar bog'chasi deb nomlangan maktabgacha ta'limning davlat tizimini yaratgan bu ajoyib nemis o'qituvchisi edi.

Froebelning rejasiga ko'ra, bolalar bog'chasi to'rtta muassasadan iborat bo'lishi kerak:

- yosh bolalar tarbiyasi uchun namunali muassasa;
- bolalar "bog'bon kizlar" ta'lim va tarbiya muassasasi»;
- foydali bolalar o'yinlarini tarqatish uchun muassasa;
- ota-onalar, tarbiyachilar va bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilari o'rtasidagi davriy muloqot.

"Blankenburg nemis bolalar bog'chasi haqida hisobot" risolasida, Froebel tushuntirdi: bolalar bog'chasining maqsadi nafaqat maktabgacha bolalar muassasida bolalarni nazorat ostiga olish, balki ularning xissiy ruhini rivojlantirish oshirish, ularning jismonan rivojlantirish, his — tuyg'ularini rivojlantirish va aqlarini rivojlantirish, tabiat va odamlar bilan tanishtirish hayotning asl manbaiga qalbini yo'naltirish.

Froebel nutqni ta'limning yeng muhim omili deb hisobladi. Uning fikricha, o'yin albatta suhbat yoki qo'shiq bilan birga bo'lishi, bolalarga esa gapirish imkoniyati berilishi kerak. Froebel o'zining pedagogik qarashlarida hayot va borliqning umuminsoniyligi nazariyasidan davom etdi: "har bir narsada abadiy qonun hukm suradi." Ta'lim va tarbiyani barcha yoshdagi ta'lim muassasalarining yagona tizimi shaklida tashkil yetish taklif yetildi.

Ta'lim qonunlari Froebel tomonidan "insondagi ilohiy tamoyilning o'z-o'zidan paydo bo'lishi." Boshqacha qilib aytganda, uning rivojlanishida bola inson ongi rivojlanishining tarixiy bosqichlarini ijodiy takrorlaydi. Asosiy pedagogik tizim-o'yin nazariyasi. O'yin -ichki dunyodan tabiatga ko'prikdir.

Froebelning fikriga ko'ra, bola tabiiy ravishda to'rtta instinktga yega: faoliyat, bilim, badiiy va diniy. Faoliyat instinkti, yoki faoliyat, bitta ijodiy ilohiy tamoyilning boladagi namoyon bo'lishidir; bilim instinkti insonga barcha narsalarning, ya'ni yana Xudoning ichki mohiyatini bilishga xos bo'lgan intilishdir. Froebel bolaning rivojlanishida ta'lim-tarbiyaning rolini diniy va mistik asoslab berdi, o'z-o'zini rivojlantirish g'oyasini boladagi tabiiy prinsipni aniqlash jarayoni sifatida talqin etdi.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishi ularning jismoniy rivojlanishidan boshlanadi va tana parvarishi psixik rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Froebel barcha a'zo va organlarning asta-sekin mustahkamlanishi va rivojlanishi uchun bolaga harakat, o'rtacha ovqatlanish va qulay kiyim berish yerkinligini tavsiya qildi. Har qanday faoliyat turiga ahamiyat berildi: o'yinlar, ritmik harakatlar, qurilish yasash oddiy qishloq xo'jaligi ishlari, sayr.

Froebel "bolalar rivojlanishining eng yuqori bosqichi" o'yinini ko'rib chiqdi. U o'z nazariyasini ishlab chiqdi, ochiq o'yinlarni to'plab, metodik jihatdan sharhladi. O'qituvchi o'z amaliyotida turli ko'rgazmali, mehnat darslarini muayyan, qat'iy tartibga solingan tizimda olib bordi. Uning mohiyatini ochib bergan Froebel bola uchun o'yin-bu instinkt, uning asosiy faoliyati, o'zi yashayotgan muxit, o'z hayoti yekanligini isbotladi. Bola o'zining ichki dunyosini tashqi qiyofasi orqali ifodalaydi. Oilaning hayotini, onaning gudakka bo'lgan g'amxo'rlikga taklid qilish, bola o'zida tashqi narsalarni tasvirlaydi, lekin bu faqat ichki kuchlar tufayli amalga oshishi mumkin.

Froebel ham o'yinni axloqiy tarbiya vositalaridan biri deb hisoblab, jamoaviy va individual o'yinlarda kattalarga taqlid qilib, bolaning axloqiy xatti-harakat qoidalari va me'yorlarida tasdiqlanishiga ishonib, uning irodasini tarbiyalaydi. Bundan tashqari, o'yinlar bolalar ijodiyoti uchun zarur bo'lgan tasavvur va tasavvurlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Froebelning fikriga ko'ra, ta'limning o'zi "bolalikning ikkinchi davri" bilan boshlanishi kerak (bir yildan keyin), siz bolaning irodasining namoyon bo'lishiga rahbarlik qilishingiz va uni narsalarning soni va xilma-xilligi tushunchalari bilan tanishtirishingiz mumkin.

Tarbiyachining vazifasi o'yinga to'g'ri yo'nalish berish va asta-sekin o'yin orqali bolaga tabiat tomonidan beriladigan hamma narsani rivojlantirishdan iborat. Bu hech qanday majburlashni talab qilmaydi-agar u o'zini tushunsa, bolani nima qilishga undash kifoya.

Xususan, Froebel tabiiy Fanlar bilan tanishishning ahamiyati haqidagi g'oyani ishlab chiqdi: hayot tabiatda yeng aniq va xilma-xil ifodalanadi, shuning uchun har kim tabiatni kuzatish orqali hayot g'oyasini yeng oson o'rganishi mumkin.

Hayotni tushunish, uni rivojlantirish va tashkil yetishda "xilma-xillikda birlik" tushunchasiga alohida o'rin beriladi. Tarbiyaning vazifasi inson qalbiga singdirilgan birlikni rivojlantirish va uni mumkin bo'lgan yeng mukammal xilma-xillikka aylantirishdir.

Bolada rivojlanishni istagan narsa allaqachon uning tabiatida bo'lishi kerak. Mukammal birlikni yaratish uchun barcha inson navlari bir vaqtda va bir xil darajada rivojlanib, bir-biriga uyg'un munosabatda bo'lib turishi zarur. Instinktadan asta-sekin his qilish va keyin onga va irodaga o'tib, bola rivojlanishning har bir bosqichida faqat nimani tushunishi, o'zlashtirishi va qayta ishlashi va keyingi bosqichga tayyorgarlik vazifasini o'tashi kerak.

Shubhasiz, Froebel noyob pedagogik sezgi va qobiliyatga ega edi. Zero, aslida XIX asr boshlarida maktabgacha tarbiya degan narsa yo'q edi. Lekin maktablar bor edi! guruhlarda yesh bolalar bor edi. Bu yangi munosabatlar, bolalar va o'qituvchilar uchun muayyan qiyinchiliklar tugdirardi. Bu shuni anglatadiki, bolalarni guruhlarga to'plab, o'qituvchilar rahbarligida maktabga tayyor bo'lishlari kerak edi.

Froebel bog'cha tarbiyasining asosiy prinsipini ham belgilab berdi: bolaga xalaqit bermaslik, balki tabiat unga bergan barcha yaxshi narsalarni ishlab chiqib, yordam berish.

Umuman, Froebel ta'limga o'qituvchi shaxsning rivojlanishiga asosan turli tadbirlar orqali ta'sir ko'rsatadigan ikki tomonlama jarayon, tarbiyachini ham, tarbiyalanuvchilarni ham o'zlarini o'zgartirishga qaratilgan ongli harakatlarga olib keladigan jarayon deb qaradi. Haqiqiy tarbiyachichi har doim bir vaqtning o'zida "berish va qabul qilish, birlashtirish va ajratish, buyurish va sabr-toqatni mashq qilish, qat'iy va marhamatli, mustahkam va moslashuvchan bo'lishi mumkin."

Froebel o'z davrining ilk pedagoglaridan biri bo'lib, bolalar eng to'liq amalga oshiriladigan o'yinlarda yekanligini anglagan. Uning bolalar bog'chasi uchun, u




bolalar bunday kupligini yoki to'p kab sovg'alar, deb qabul o'yinlar va o'yinchoqlar butun majmuini ishlab chiqildi. Bundan tashqari, ular o'qituvchilar ayrgan hikoyalarni ijro yetishdi yoki tinglashdi.

Pedagog bolalarga geometriyaning ba'zi oddiy qoidalarini tushuntirish uchun yig'ma qog'ozni targ'ib qila boshladi. U ularga dastlab geometriya asoslarini barmoqlari bilan "his qilish" uchun origami deb ataladigan va faqat keyin tushunish uchun doimo shug'ullanishni maslahat berdi. Froebel shuningdek, kubik qutiga katlanma bo'lishi kerak bo'lgan klassik bloklardan iborat jumboq muallifi sifatida ham tanilgan. Erta rivojlanish uchun ushbu yog'och qurilish to'plami bolani geometrik jismlarning xususiyatlari bilan tanishtiradi, fazoviy tasavvurni, qismlarni bir butunga ulash qobiliyatini o'rgatadi — bularning barchasi faqat o'yin tarzda.

O'lkamizda XIX asrning 80-90-yillariga kelib maktabgacha ijtimoiy tarbiya tizim ini vujudga keltirish g'oyalari yetila boshladi. O'sha davrda yashab ijod etgan ma'rifatparvar mahalliy ziyolilar ayollarning og'ir ahvoli va bolalar nazoratsizligini e'tiborga olib, bu masalaning yechimini izlay boshlaydi. Jumladan, 1872 yilda Turkistonda tuzilgan «Jamiyati xayriya» tarkibiga kirgan ziyolilar vakillari tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, ilk tug'uruqxonalar bilan bir qatorda, ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonalar (dastlabki bolalar uylari) tash kil etildi. Butun Turkiston bo'yicha 150-200 nafar bolani qamrab olgan ushbu yetimxonalarda ham yasli yoshidagi, ham maktab yoshidagi bolalar tarbiyalangan. 1891 yilda «Bogdorchilik» jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun «Bolalar maydonchasi» ko'rinishida birinchi bolalar bogchasi ochilgan. Bolalar bogchasi uchun istiroxat bog'i hududidan sersoya joy ajratib berilgan bo'lib, bu yerda argimchoqdar, qayikdar o'rnatilgan, turli o'yinchoqlar tayyorlangan. Bundan tash qari, maydonchada kattagina gulzor tashkil etilib, bu yerda bolalar o'simliklarni parvarish qilish bilan mashg'ul bo'lgan. Ammo 1891 — 1903 yillar mobaynida mablag' taqchilligi sababli bog'cha bir necha marta yopilgan. 1896 yilda Turkistonda vasiylar kengashi kambag'allarning bolalari uchun «yasli»lar deb ataladigan muassasalarni tuza boshladi. Yasli ishlarini nazoratchi-uslubchi ayol boshqargan, shuningdek, xizmat qiluvchi xodi ml ar ham bo'lgan. Bu muassasalarda bolalarga o'qish, yozish, sanash bilan bir qatorda, talay hunarlar ham o'rgatilgan. Biroq, butun o'lka bo'ylab shunday yaslilardagi bolalar soni 50—60 nafar boladan oshmagan. Bundan tashqari, mahalliy ziyolilarning sa'y-harakati bilan kambagallarning bolalari uchun Toshkent, Samarkand, Sirdaryo, Namanganda yetimxonalar (bolalar uylari) tash kil etilgan. 1903 yil fevral' oyida Toshkentda «Oilaviy ta'limtarbiyaviy to'garagi» tashkil qilingan. To'garak

nizomida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan: 1) bolalarga ta'lim-tarbiya berish usullarini rivojlantirish va takomillashtirishda oilalar va ota-onalarga yordam berish; 2) pedagoglar bilan ota-onalarni va bolalar tarbiyasi ishini boshqaradigan kishilar (oila, maktab va bolalar bog'chasi faoliyatining o'zaro musharakligini ta'minlash maqsadida) faoliyatini muvofiklashtirish. Bu to'garakda maktabgacha ta'lim seksiyasi ham faoliyat ko'rsatgan. Ta'lim-tarbiya to'garagi yuzaga kelgunga qadar bolalar bog'chasining tarbiyaviy ishida muayyan pedagogik tizim mavjud bo'lmagani sababli bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan masalalar to'garak a'zolari o'rtasida muhokama qilingan. Ana shu to'garak doirasidagi tarbiya muassasalarida bolalar birinchi marta 4—6 yoshgacha va 6—10 yoshgacha bo'lgan ikki xil yosh guruxdariga bo'linib, mashg'ulotlar, jumladan, harakatli o'yinlar, xor bo'lib qo'sh iq kuylash, o'qish, raem chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, gimnastika mashkuri muayyan jadval asosida olib borilgan. E'tiborli jihati shundaki, mazkur to'garak doirasidagi ayrim bolalar bog'chalarida ota-onalar talabi bilan fransuz va nemis tillari tekis o'rgatilgan. 9 Ta'lim-tarbiya to'garagi bolalar bog'chasidagi ta'lim-tarbiya saviyasini oshirishga yordam bergan bulsa-da, maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan tarbiyachilar bo'lmagani sababli tarbiyaviy jarayon ko'pincha betartib amalga oshirilgan. 1909—1910 yillar va undan keyingi davrlarda o'lkaning ayrim shaharlarida xususiy bog'chalar paydo bo'ldi: bu bog'chalarda 6 yoshdan boshlab bolalar asosan gimnaziyaga o'qishga tayyorlanar edi. Bunday bolalar bog'chalari xususiy uylarda ochilgan va to'liq ota-onalar ta'minotida bo'lgan. Ta'lim-tarbiya ishlariga chet tillarni biladigan o'qimishli ayollar jalb etilgan. Ammo mazkur bolalar bog'chalarida asosan badavlat ota-onalarning farzandlari tarbiyalangan. Ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi asosan 1917—1918 yillardan keyingi davrlarga to'g'ri keladi. Jumladan, Xalk, maorifi komissarligi 1917 yil 20 noyabrda deklaratsiyasida mamlakatda davlat tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalari ni tashkil etish, soha xodimlarini tayyorlash vazifasi kun tartibiga qo'yiladi. Shu asosda xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga jalb etish, bolalar bog'chalari tarmogini shakllantirish bbrasida ilk qadamlar qo'yiladi. 1918 yilda Turkiston Xalk maorifi komissarligi qoshida maktabgacha ta'lim bo'limi tashkil etiladi. Uning zimmasiga bolalar bog'chalari uchun joy qidirish va ularni kerakli jihozlar bilan ta'minlash, tarbiyachilar tanlash va ota-onalar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatiladi. Maktabgacha ta'lim xalk maorifi tizimining birinchi bo'g'ini va tarkibiy qismi bo'lib qoldi. 1919 yilda qabul qilingan davlat dasturida xalk maorifi sohasida xotin-qizlarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmogini vujudga keltirish zarurligi ta'kidlangan edi. Shu asosda o'lkada xalk maorifi idoralari zimmasiga maktabgacha ta'lim muassasalari tarmogini



vujudga keltirish , o'quv-uslubiy adabiyotlar va ko'rsatmalar ishlab chiqish , kadrlar tayyorlash va boshqa muhim vazifalar yuklatildi. Turkistonda dastlabki davlat bolalar bogchalarini 1918 yilning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlandi. 1918 yil 20 oktyabrda Turkiston Xalq maorifi komissarligi 10 qoshida maktabgacha ta'lim bo'limi, viloyat xalq maorifi bo'limlarining qoshida maktabgacha ta'lim bo'linmalari tashkil etildi. «Maktabgacha ta'lim bo'limi to'g'risida»dagi nizomda mazkur bo'limlar 3 yoshdan 8 yosh gacha bo'lgan maktabgacha bolalar tarbiya muassasalariga rahbarlik qilishga, ularning faoliyatini nazorat etishga, yangi bolalar bogchalarini, yasillar, bolalar uylari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy yotoqxonalar, yozgi oromgohlarni ochish - ga, ushbu muassasalar uchun kadrlar tayyorlash maqsadli kurslarini tashkil qilishga mas'ul ekani qayd etilgan. Ushbu bo'limlarning uch asosiy yo'nalishidagi faoliyat yuritishini nazarda tutilgan: 1) bolalar bogchalarini ochish , ularni binolar, mebel' va jihozlar bilan ta'minlash ; 2) maktabgacha ta'lim xodimlari, shu jumladan, mahalliy aholi vakillaridan kadrlar tayyorlash; 3) ota-onalar o'rtasida tashviqot-targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borish. Bu o'rinda o'lkada mahalliy aholi bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish uchun kurash juda murakkab va qiyin sharoitda kechganini ta'kidlash joiz. 1918 yilda Toshkentning eski shahar qismida o'zbek bolalari uchun atigi 4 ta bogcha ochilgan, xolos (xususan, birinchi bogcha — Shayxontohur dahasida, ikkinchi bogcha — Xo'ja ko'chasida, uchinchi bogcha — Ko'kcha dahasidagi Langar ko'chasida, to'rtinchi bogcha — Besh yog'och dahasida ochilgan). Bunday muassasalar Samarqandda (2 ta bolalar bogchasi va 3 ta bolalar uyi) va Kattaqo'rg'onda ham tashkil etiladi. 1920 yilda Turkiston Respublikasida 71 ta bolalar bogchasi, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 16 ta bogcha va 12 ta bolalar maydonlari tashkil etilib, ulardan 4 tasida o'zbek va boshqa mahalliy millatlar bolalari tarbiyalangan. O'sha davrda maktabgacha ta'lim muassasalariga jami 6394 bola qamrab olingan. 1921 yilga kelib bolalar bogchalar soni 105 taga, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 32 taga yetgan. Bolalar bogchalarida tarbiyalanuvchilarning soni qariyb 8000 nafar bolani tashkil etgan, ulardan 2000 dan ziyodigina mahalliy millat farzandlari edi. 11 1937 yil 3 mayda qabul qilingan «Bolalar bogchalarini to'g'risida»gi qarorda «Qaramog'ida bolalar bogchalarini bo'lgan xo'jalik tashkilotlari va muassasalarini zimmasiga tegishli ittiqodosh va boshqa mahalliy aholi vakillarini va Xalq maorifi komissarliklari tomonidan bolalar bogchalarini sanitariya-gigiyena qoidalari, binolar, jihozlar, qo'llanmalar, ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlash, bolalarni ovqatlantirish va ularga tibbiy yordam xizmati ko'rsatish yuzasidan belgilangan me'yorlarga rioya qilish vazifasi yuklansin», deb ta'kidlangan. Shu jumladan, Sog'liqni saqdash xalq komissarining buyrugiga asosan: — bolalar bogchalariga shifokorlarni birlashtirish

va kamida 100 ta bola tarbiyalanayotgan va bir bolalar bogchasi ga bitta tamshira bilan ta'minlash, bolalar poliklinika va ambulatoriyalari qamda umumiy poliklinika va ambulatoriyalarning bolalar bo'limlari tashkil etib, bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish; — bolalar bogchalarini birinchi yordam dori-darmonlari bilan ta'minlash; — musiqa mashg'ulotlarini olib boradigan xodimlar oylik maoshi uchun mablag' ajratish ko'zda tutilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda bolalar bogchalari va bolalar maydonchalarining tarmog'i deyarli ikki barobar ko'paydi. 1944 yil 1 yanvarga kelib, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning umumiy soni 54 ming nafarni tashkil etdi. Shu yillarda O'zbekistonning bolalar bogchalarida sobiq ittifoqning boshqa respublikalaridan ko'chirib keltirilgan 16000 dan ziyod, shu jumladan, 400 ta otanasiz qolgan bola tarbiyalangan. Xalq maorifi komissarlari kengashining 1944 yil 10 noyabrda qabul qilingan «Maktabgacha ta'lim muassasalarini tarmokdarini kengaytirish hamda xotin-qizlar va bolalarga tibbiy yordam va maishiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash tadbirlari to'g'risida»gi qarorida respublikalar rahbar idoralari ga bolalar yashilari, go'daklar uylari, bolalar maslahat joylari, emizikli bolalarga sut tayyorlab beruvchi muassasalar, bolalar bogchalari va bolalar uylari tarmog'ini kengaytirish, bolalarni mazkur muassasalar to'g'ri jalb etishni ta'minlash vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, yolg'iz onalarning o'z bolalarini tarbiyalashiga ko'maklashish maqsadida bolalar yashilari va bolalar bogchalarida ularning farzandlarini kun davomida qabul qilish tashkil etilgan. Xalq maorifi komissarlari kengashining «Maktabgacha ta'lim muassasalarini yanada rivojlantirish, bolalarni tarbiyalash va ularga tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash choralari to'g'risida»gi 1959 yil 21 may qarorida quyidagilar nazarda tutilgan: maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning yagona tizimini shakllantirish maqsadida, mahalliy sharoit va imkoniyatlarni e'tiborga olib, maktabgacha ta'lim muassasalarining ikki turi-yasli va bolalar bogchasini yagona maktabgacha ta'lim muassasasi sifatida tashkil etish va ularga xalq maorifi komissarligi rahbarlik qilishini belgilab quyilgan; — bundan buyon barcha turdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar turar joylarini yaqinlash tirish maktabgacha ta'lim muassasalarini namunaviy loixasida qurilishi; — ittifoqdosh respublikalarda maktabgacha ta'lim muassasalarini to'g'risida nizom ishlab chiqish; — pedagogika fanlari va tibbiyot akademiyalari bilan birgalikda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashning yagona dasturini ishlab chiqish; — tarbiyachilar va tibbiy yordam xodimlarini tayyorlash; — bolalarni o'qitish va maktabgacha ta'lim muassasalarini jihozlar bilan ta'minlash; — bolalar bog'chasiga qatnamaydigan bolalar uchun bolalar istirohat bog'i va xiyobonlarida, qovlilarda maydonchalar tashkil qilish va ularni jihozlash ishlari tashkil etish; — aholi

Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalar Pedagogik texnologiya deganda, ta'limiy maqsadni muvaffaqiyat bilan amalga oshiruvchi, ta'lim va tarbiya bershning nazariy isbotlangan muviti. Pedagogik texnologiya deganda, ta'limiy maqsadni muvaffaqiyat bilan amalga oshiruvchi, ta'lim va tarbiya bershning nazariy isbotlangan muviti. -Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'limiy maqsadlarni qat'iy talab etuvchi va bosqichli o'zgarishlarning aniqligini va olingan natijalarni baxolovchi ma'lum ilmiy loyixalash. -Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'limiy maqsadlarni qat'iy talab etuvchi va bosqichli o'zgarishlarning aniqligini va olingan natijalarni baxolovchi ma'lum ilmiy loyixalash. -Zamonaviy rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar nafaqat o'qitish jarayoniga, balki bolaning psixik jarayonlariga, uning shaxsiy sifatlari, aqliy-ijodiy qobiliyatlari, jismoniy rivojlanishiga yo'naltirilish. -Zamonaviy rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar nafaqat o'qitish jarayoniga, balki bolaning psixik jarayonlariga, uning shaxsiy sifatlari, aqliy-ijodiy qobiliyatlari, jismoniy rivojlanishiga yo'naltirilish.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1 Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi mavzusiga oid slayd tayyorlang.

2. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rini qanday tushunasiz?

3 Zamonaviy rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar?

**Tarbiya tamoyili va turlari. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiyasi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.**

**Reja**

**1. Tarbiya qonuniyatlari va qoidalari.**

**2. Tarbiyada insonparvarlik, demokratik, milliy va umuminsoniy**

**qadriyatlarning ustunligi**

**3. Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi qoidasi.**

**4. Tarbiyaviy ishlarning izchilligi, tizimliliigi hamda birligi.**

**5. Tarbiya turlari**

Axloqqa doir bilimlar jamoada odamlar xulqini tartibga soluvchi axloqiy tushunchalar, tamoyillar, talablar qoidalardan iborat. Har bir kishining o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, bola tarbiyasining ham o'ziga xos muhim qonun-qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Tarbiya qoidasi-pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi va tarbiyaviy jarayonda bu qoidalarga amal qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf-donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

Tarbiya qoidalari quyidagilarni kiritish mumkin: tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi, tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi, tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog'liqligi qoidasi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi, tarbiyada o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish qoidasi, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi va boshqalar.

*Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi qoidasi.* Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni ko'zda tutadi. Demak, tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir.

Axloqqa doir bilimlar jamoada odamlar xulqini tartibga soluvchi axloqiy tushunchalar, tamoyillar, talablar qoidalardan iborat. Har bir kishining o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, bola tarbiyasining ham o'ziga xos muhim

qonun-qoidalarini borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Tarbiya qoidasi-pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalarini o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi va tarbiyaviy jarayonda bu qoidalarga amal qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi. Tarbiya qoidalarini Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf-donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi. Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi, tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi, tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog'liqligi qoidasi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi, tarbiyada o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish qoidasi, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi va boshqalar.

*Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi qoidasi.* Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni ko'zda tutadi. Demak, tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Yoshlar bilan olib boriladigan har bir tarbiyaviy ish butun tarbiya ishlarining ajralmas bir qismi sifatida amalga oshirilganda uning ta'siri kuchli bo'ladi.

Tarbiya ishida izchillik va tizimlilik shundan iboratki, har bir tarbiya ishi maktabning umumiy tarbiyaviy rejasiga asosan ma'lum izchillikda amalga oshiriladi, oldingi ishlarining mantiqiy davomi sifatida tarbiya sohasida qilinayotgan ishlarni rivojlantiradi, mustahkamlaydi va yanada yuqori darajaga ko'taradi. Tarbiya ishida izchillik juda muhimdir. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zining bu talabini unutilib qo'ysa yoki o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga juda yomon ta'sir qiladi. Pedagog biror tarbiyaviy tadbir uyushtirishni yoshlarga va'da qilib, sal orada va'dasini esdan chiqarib qo'ysa, o'quvchilar bunday o'qituvchiga ishonmay quyadilar. Har bir pedagogning ishi bilan so'zi bir bo'lishi lozim. Bolalarga birdaniga juda ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Ularga tarbiya va ta'lim berishda uzluksizlik va tizimlilikka rioya qilish kerak. Tarbiya berishda tizimlilik qoidasi tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarning — oila va maktab, bolalar va yoshlar tashkiloti, jamoatchilik, mahalla faollari, maktabdan tashqari tarbiya



muassasalarining hamjihatlik va bamaslahat ish ko'rishini nazarda tutadi. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka roya qilish, muomalani avvaligicha davom ettirish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Afsuski, amalda ba'zan oila maktabning talablarini qo'llab-quvvatlamaydigina emas, balki o'quvchiga teskari ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya o'zoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, unda ota-ona, o'qituvchi, jamoatchilik va boshqalar qatnashadi. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya etish, yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini, tarbiya usullari va shakllarini o'z vaqtida aniqlab olish muhimdir. Tarbiya jarayonida tizimlilik va izchillikni ta'min etadigan muhim shartlardan biri tarbiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda mustahkamlashda uyg'unlikka rioya etishdir. Tarbiyaviy ishlarning barchasida bolalarda mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar va odatlarga hamda ularning turmush tajribalariga suyanish lozim.

Har bir odam o'z hayot yo'lida qancha muvaffaqiyatlarga erishgan yoki imkoniyatlarni qo'ldan boy bergan bo'lsa, buning hammasiga, avvalo uning fe'l-atvori, olgan tarbiyasi sababchidir. Shu boisdan tarbiyaviy ta'sirdagi tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamini qamrab olishi kerak. Yoshlar bilan olib boriladigan har bir tarbiyaviy ish butun tarbiya ishlarining ajralmas bir qismi sifatida amalga oshirilganda uning ta'siri kuchli bo'ladi. Tarbiya ishida izchillik va tizimlilik shundan iboratki, har bir tarbiya ishi maktabning umumiy tarbiyaviy rejasiga asosan ma'lum izchillikda amalga oshiriladi, oldingi ishlarning mantiqiy davomi sifatida tarbiya sohasida qilinayotgan ishlarni rivojlantiradi, mustahkamlaydi va yanada yuqori darajaga ko'taradi. Tarbiya ishida izchillik juda muhimdir. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zining bu talabini unutib qo'ysa yoki o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga juda yomon ta'sir qiladi. Pedagog biror tarbiyaviy tadbir uyushtirishni yoshlarga va'da qilib, sal orada va'dasini esdan chiqarib qo'ysa, o'quvchilar bunday o'qituvchiga ishonmay quyadilar. Har bir pedagogning ishi bilan so'zi bir bo'lishi lozim. Bolalarga birdaniga juda ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Ularga tarbiya va ta'lim berishda uzluksizlik va tizimlilikka rioya qilish kerak. Tarbiya berishda tizimlilik qoidasi tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarning – oila va maktab, bolalar va yoshlar tashkiloti, jamoatchilik, mahalla faollari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining hamjihatlik va bamaslahat ish ko'rishini nazarda tutadi. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka roya qilish, muomalani avvaligicha davom ettirish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Afsuski, amalda ba'zan oila maktabning talablarini

qo'llab-quvvatlamaydigina emas, balki o'quvchiga teskari ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya o'zoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, unda ota-ona, o'qituvchi, jamoatchilik va boshqalar qatnashadi. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya etish, yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini, tarbiya usullari va shakllarini o'z vaqtida aniqlab olish muhimdir.

Tarbiya jarayonida tizimlilik va izchillikni ta'min etadigan muhim shartlardan biri tarbiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda mustahkamlashda uyg'unlikka rioya etishdir. Tarbiyaviy ishlarning barchasida bolalarda mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar va odatlarga hamda ularning turmush tajribalariga suyanish lozim.

Har bir odam o'z hayot yo'lida qancha muvaffaqiyatlarga erishgan yoki imkoniyatlarni qo'ldan boy bergan bo'lsa, buning hammasiga, avvalo uning fe'l-atvori, olgan tarbiyasi sababchidir. Shu boisdan tarbiyaviy ta'sirdagi tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamini qamrab olishi kerak.

### **1. Aqliy tarbiyaning maqsad va vazifalari**

Yosh avlodni har tamonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyatehtiyojlaridan kelib chiqadigan ob'ektiv zaruratdir. Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik ta'sir ko'rsatishdir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir.

Chunki aql his-tuyg'ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo'lgan jarayonlar yig'indisidir. Ahliy rivojlanish fikrining kengligida voqealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiy lashtirish qobiliyatida namoyon buladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikasiya, qurish - yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lim va tarbiya samarali ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak.

## **Aqliy tarbiya va ta'lim**

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda, bir tomondan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, bola organizmning umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha toliqtirish bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shugullanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik- pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim malaka va ko'nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolatdir. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladilar, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifasi — bolaga muayyan maqsadni ko'zlab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir.

### **2. Aqliy tarbiya va ta'limning nazariy asoslari.**

Bola har doim buyumlar hamda hodisalar orasida bo'ladi. Bola doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko'radi, hidlaydi, tortib ko'radi, nimagadir quloq soladi. Shu tariqa asta-sekin dunyoni bilib boradi. Tevarak-atrofdagi buyumlar, tabiat bolaning sezgin organlari-analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil qiladi. Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim xossalarini: sovuq-issiq, g'adirbudur, silliq-yaltiroq, xushbo'y va h.k. ni bilim olishga yordam beradi. Sezgi atrofdagi muhitni bilishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bola sezgi tufayligina tevarak-atrofdagi narsalar to'g'risida bilim, tajriba to'plab boradi. Idrok esa ancha murakkab jarayon bo'lib, sezgilar asosida hosil bo'ladi. Bola olmani qo'lida ushlab ko'rib, qarab chiqib va yeb ko'rib, uni yaxlit bir buyum, ayni bir vaqtda dumaloq, qizargan, xushbo'y, mazali va h.k. tarzda idrok qiladi. Bola olmani yaxlit bir buyum tarzida tasavvur qilishi uchun birdaniga bir nechta analizator: ko'rish, sezish va hid bilish analizatorlaridan foydalanadi. Analizatorlar bir vaqtning o'zida birdaniga ishlashi buyumning xossasi va belgilarini aniqroq hamda to'laroq bilish imkonini beradi. Shuning uchun katta yoshdagi kishilar bolani ilk yoshlik chog'idan boshlaboq aqliy jihatdan to'g'ri tarbiyalash maqsadida buyumlarni ko'proq analizatorlar

yordamida idrok qilishga imkon tug'dirishlari, analizatorlarning rivojlanishiga, ya'ni bolaning sensor madaniyatiga alohida e'tibor berishlari kerak.

Bolada nutq paydo bo'lishidan ancha oldin (bola bir yoshga to'la boshlaganda birinchi bor gapira boshlaydi) u tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar dunyosini katta yoshdagi kishilar yordamida bilib oladi. Bola 3 yoshga to'lganda uning so'z zaxirasi 1200-1500 taga yetadi. Bola katta yoshdagi kishilar unga nima haqida gapirayotganlarini yaxshi tushunadi. Bu katga yoshdagi kishilar nutqidan har tomonlama tarbiyalashning kuchli vositasi tarzida foydalanish imkoniyatini beradi. Bolalarning aqliy jihatdan o'sishida xotira katga ahamiyatga ega. Bola tug'ilganda hech narsani bilmaydi va hech narsa qilolmaydi. U rivojlanishning birmuncha yuqoriroq darajasiga ko'tarilib biror bir foydali ish uchun ko'pgina bilim va malakalarini eslab qolishi kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi ko'pincha beixtiyor tarzda bo'ladi. Shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida xayol muhim rol o'ynaydi. Xayol bolaning hayoti jarayonida, uning faoliyatida ta'lim va tarbiya ta'sirida tarkib topadi. Bolaning xayoli u syujetli o'yinlar o'y-nay boshlaganida, kattalar qiziqarli ertaklar aytib berganida, o'sha ertaklarga qiziqish orqali dastlabki alomatlari paydo bo'ladi. Ammo boladagi xayol ko'proq aniq vaziyatga bog'liq bo'ladi (masalan, qo'g'irchoq ko'rinib qolsa, uni uxlatadi, mashina bo'lsa, biror narsani tashiydi va h.k.). Katta bog'cha yoshiga kelganda, bolaning tajribasi ortib, faoliyati murakkablashadi va buning natijasida bola xayolida sezilarli o'zgarish yuz beradi. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi yosh avlodni aqliy tarbiyalash vazifalarini jamiyatimizning ijtimoiy talablariga va insonning aqpiy rivojlanish mohiyati va tabiatiga asoslanib ishlab chiqadi.

Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari:

} Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

} Aqliy faoliyat, bilish jarayonlari va qobiliyatlarni, aqliy jarayonning xilma-xil usullarini rivojlantirish.

} Mustaqil bilish qobiliyatlarini, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.

} Aqliy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Bilimni tasavvurlar va tushunchalar, qoidalar, qonuniyatlar, sistemalar shaklidagi turli fanlarning mazmuni tashkil etadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalarda voqea va hodisalarni to'la aks ettiradigan yuksak darajadagi umumlashtirilgan bilimlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bilim dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Demak, bola tevarak atrofdagi narsalar,

ularning vazifasi sifati va xossalari (sinadi, pachoq bo'ladi, yirtiladi, to'kiladi) haqida, qaysi materialdan tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. U tabiat hodisalari, ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlari (yil fasllarining o'ziga xos belgilari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, hayvonlar, ularning hayoti va yashash tarzining tashkil qilinishiga, xulqiga, yashash sharoitiga mosligi va h.k.) ni bilib oladilar. Jonsiz tabiat, o'simliklar, hasharot va hayvonlarni kuzatishi jarayonida tarbiyachi bolalarda borliq to'g'risidagi materialistik tasavvurlarni shakllantirib boradi. Bilimlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi ham shakllanib boradi. Bola san'atning har xil turlari to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab oladi. Bilim insonning mehnatga munosabatini shakllantiradi. Aqliy faoliyatni rivojlantirish bilim hajmi va xususiyatiga bog'liq. Aqliy faoliyatni rivojlantirish esa psixik jarayonlarni sezgi va idrok etish, taassurot, xotira, fikrlash, tasavvur va nutqni shakllantirish ni ham bildiradi. Bunda ularga aqliy faoliyatning g'oyat samaradorligini ta'minlaydigan his-tuyg'ular nozikligi va aniqligi, idrok etishning sobitqadamligi va to'laqonli, esda qolishning mustahkamligi hamda ongligi, tafakkur mantiqi va uning moslashuvchanligi, ijodiy xususiyat va mustaqillikka xos bo'lishi kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'zlariga tushunarli bo'lgan ijtimoiy voqea va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg'otish, Vatanga muhabbat tuyg'usi va baynalmilalchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi. Aqliy ta'lim maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish, bilish jarayonlari, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyati asoslari hosil qilinadi, maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Hayot ta'limning ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishini taqozo etmokda. Birinchi yo'l bolalarning bilim, malaka ko'nikmalarini kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali egallab borishidir. Bu muomala, mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi. Ammo bu yo'l bilan egallagan bilim va

malakalar bolaga hayotning turli sohalarida mustaqil qatnashish uchun imkoniyat yaratmaydi. Ta'limning ikkinchi yo'li maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka va ko'nikmalar bilan rejali ravishda qurollantirib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ish lab chiqarish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir. Barcha olimu fozillar, shoiru yozuvchilar o'z davrining nufuzli ta'lim maskanlarida o'qish bilan hurmat e'tibor topganlar. Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Saidrasul Aziziy, Muhammad Sharif So'fizoda, Abdulqodir Sh okiriy, Abdulla Avloniy va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar va yangiliklar yaratganlar, shu bilan birga boshqalarni ham ilm egallashga chaqirganlar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish tizimi pedagogikada ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670) tomonidan yaratilgan. Ya.A. Komenskiy 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Ya.A. Komenskiy 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lim dasturini tuzdi. Masalan, u tabiatshunoslik (fizika) suv, yer, havo, olov, yong'ir, qor, muz, tosh, o't, qum va boshqalar haqida bilim berish lozimligini, astrnomiya, geografiya, optika va boshqa sohalarda bolalarga bilim berish kerakligini asoslab berdi. Bolalar bog'chasida beriladigan ta'lim bolalarning maktabda oladigan bilimlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerakligini ta'kidladi. U o'zining "Onalar maktabi" kitobida kichik bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturi hamda metodikasini juda sinchiklab ishlab chiqqan. Shu bilan Ya.A. Komenskiy maktabgacha tarbiya pedagogikasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos soddi. Shveysar pedagogi I.G.Pestalotssi (1746-1827) maktabgacha tarbiya didaktikasini tuzishda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlantirish masalasiga katga e'tibor beradi. G. Pestalotssi tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning asosiy mazmuni maktabgacha tarbiya pedagogikasining rivojlanishda va bolalarga keyinchalik maktabda sistemali ta'lim berishda asosiy dastur bo'lib xizmat qildi. Hozirgi zamon maktabgacha ta'lim nazariyasini yaratishda A.P.Usovaning xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi. Olima rahbarligida 1950 yillarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, bolalar bog'chasi har bir yosh guruhining ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni, metod va usullari ishlab chiqildi. Bu o'tkazilgan ishlar ta'limning tarbiyaviy ishdan farqini aniq belgilab berdi. Ta'limning nazariy jihatlari ishlanishi "Bolalar bog'chasi tarbiya

dasturi”da “Mashg’ulot” bo’limini ajratish imkonini berdi va dasturning keyingi nashrlarida bu bo’lim takomillashtirilib borildi.

### **3. Aqliy tarbiya va ta’limning mohiyati.**

Bolalar bog’chalariga oid tajribalar va o’tkazilgan pedagogik va psixologik ilmiy tadqiqot ishlari turli yoshdagi bolalarga tevarak-atrof to’g’risida beriladigan bilimlarning taxminiy hajmini belgilash, ularni murakkablashtirib borish imkonini beradi. “Uchinchi mingyillikning bolasi” tayanch dasturida bolalarning “jismoniy rivojlanganlik darajalari”, “Nutq va tafakkurning rivojlanganlik darajasi”, “Bolalarning ma’naviy kamolotini ta’minlash”ga doir asosiy bo’limlar ko’rsatib berilgan. Bu bo’limlarda bolalarni jismoniy jihatdan yetuk, sog’lom va baquvvat qilib tarbiyalash, ularning nutqiy tafakkurini rivojlantirish, so’z boyligini oshirish ularning mantiqiy tafakkurini va hisoblash malakasini o’stirish hamda bolalarda nafasot va orastalikni shakllantirish kabi jihatlariga keng e’tibor qaratiladi. Shuningdek, tabiat bilan har xil kasbdagi kishilar mehnati bilan, ba’zi bir ijtimoiy voqealar, narsalar, ularning sifat va xususiyatlari bilan tanishtirishga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bu bilimlarini faqat mashg’ulot jarayonida emas, balki o’zlarining kundalik hayotlarida, o’yinlarda sayr vaqtda egallashlari das- turda ko’rsatib o’tilgan.

Bu dasturning asosiy yo’nalishlari quyidagilar:

bolalarni jismoniy rivojlantirish;

bolalarni nutqi va tafakkurini rivojlantirish;

ma’naviy-madaniy yetuklik.

bolalarga yetarli bilim berish;

har bir yoshga xos bilim va malakalar;

bilim va malakalarni sekin-asta murakkablashtirib borish;

materialning bir maqsadga qaratilganligi;

maqalliy materiallardan foydalanish;

tabiatdagi voqealar;

ta’limga doir bo’limlar orasidagi bog’liqlik.

3 yoshgacha bo’lgan bolalarda tevarak-atrofdagi narsalar, ularning sifati har xil narsalarning nomi hamda ularni ishlatish to’g’risida to’g’ri tushuncha bo’lishi kerak. Bolalarni uy jihozlari va buyumlari (mebel, idishtovoq, kiyim, o’yinchoq mashg’ulotlar uchun material) bilan tanishtirish, ularning rivojlanishda katta ahamiyatga egadir. Bu narsa ularning nutqini

Ta’lim dasturi quyidagi tamoyilga asoslanib tuzilgan:

Tevarak-atrof bilan tanishtirish dasturi har bir yosh guruhi uchun muayyan bilimlarni egallab olishni nazarga tugadi. Masalan, birinchi guruh tarbiyachisi bolalarni buyumlarning joylashishini bilib olishga o'rgatadi. Keyinchalik bolalar boshqa xonalarda nimalar borligini, u yerda bolalar va kattalar nima ish bilan shug'ullanishni bilib boradilar. Masalan, musiqa xonasida musiqa mashg'ulotlari, bayramlar o'tkaziladi, oshxonada ovqat pishiriladi va h.k. Shuningdek, tarbiyachi, bolalarni yaqin atrof, ko'chalarni, o'z o'yin maydonchasini bilib olishga o'rgatadi. Ayniqsa, katta guruh bolalari o'z uylari manzilini, bog'chadan uyga ketadigan yo'lni yaqin oradagi maydon yoki xiyobonlarga borish yo'lini bilishlari kerak. Bolalarni tabiat bilan bevosita aloqada bo'lishlari ularning har tomonlama rivojlanishlarida muhim ahamiyatga egadir. Bu hol ularning aqliy qobiliyatlarini tarbiyalashda axloqiy hamda estetik hislarini rivojlantirishda quvnoqlik, tetiklik, jismoniy hamda ruhiy tomondan bardoshli bo'lishlarida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning tabiat bilan bevosita aloqada bo'lishi ularning sensor tarbiyasiga katga hissa qo'shadi. Tabiat o'zining mo'l-ko'l bo'yoqlari, shakllari, tovushlari bilan analizatorlarini qo'zg'atadi. Tabiat bilan aloqada bo'lish estetik tarbiya vazifalarini hal etishga katta yordam beradi. Chiroyli manzaralar, har xil kapalaklar bolalarda quvonch hissini uyg'otadi.

Tarbiyachining vazifasi bolalarda tabiat go'zalligiga, uning rangbarangligiga qiziqish uyg'otishdir. Tabiat o'z go'zalligi hamda rang-barangligi bilan bolalarning hissiga va xayoliga ta'sir etib, ijodiy faoliyatining rivojlanishiga yordam beradi. Tabiat bolalarda vatanparvarlik hissini uyg'otishda ham katga ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning yoshligida tabiat boyligidan olgan taassurotlari Vatan to'g'risidagi tushunchalarni aniq mazmun bilan boyitadi.

Bolalarning katta yoshdagilar bilan o'zaro muloqoti ularni har xil kasbdagi kishilar mehnati bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda tarbiyachining asosiy vazifasi bolalarda kattalar mehnatiga hurmatni tarbiyalash, ularning mehnat faoliyatini bolalarga tushuntirish va mehnat qilish ehtiyojini uyg'otishdir. Bolalarning mehnat to'g'risidagi tushunchalari qanday qilib kengayib va chuqurlashib borishi bolalar bog'chasi dasturda ko'rsatib berilgan. Kichik guruhdagi bolalar bog'chada ishlaydigan kishilarning mehnati, onaning uydagi yumushlari ko'chadagi transport vositalari bilan tanishtiriladi. O'rta guruh bolalarning mehnat turlari va mehnat jarayonidagi izchillik, mehnatda kerak bo'ladigan buyumlarning nomlari bilan tanishtiriladi. Katga yoshdagi bolalar mehnatining ahamiyati, ya'ni hamma kishilar jamiyat uchun mehnat qiladilar, degan xulosa chiqarishga



o'rgatiladi. Bolalarning o'yinlari, rasmlari ham ularda texnika va mehnatga qiziqish uyg'otadi. Kattalarning mehnati bolalar o'yinining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bolalar o'z o'yinlarida onalari va tarbiyachilari mehnatidan boshlab to yangi shaharlar hamda kosmik kemalar qurilishigacha aks ettiradilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalardagi axloqiy sifatlarni: kishilarga, jamoaga munosabatni tarbiyalashda kattalar mehnati bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mehnatkashlar va ularning mehnatlari bilan tanishish bolalarda o'z yurtiga, xalqiga va boshqa xalqlarga nisbatan hurmat va mehr uyg'otadi.

Demak, kattalar mehnati va tabiatni kuzatish bolalarda estetik hislarni, shakllantirishga yordamlashadi, ijodiy faoliyat uchun material beradi. Hamma oilalarda umumxalq bayramlari -"Navro'z", "Hayit", "Yangi yil", "Mustaqillik" kuni va boshqalar keng nishonlanadi. Bolalar bu bayramlarda qatnashadilar. Katta yoshdagi bog'cha bolalariga har bir bayram va tantananing ahamiyatini ularning yoshlariga mos holda tushuntirishadi. Bu o'rinda tarbiyachining vazifasi-bolalarning hissiyotlarga ta'sir etib, ularda o'z xalqidan hamda uning qadriyatlaridan g'ururlanish hissini shakllantirishdan iboratdir.

Shunday qilib, bog'cha bolalarini tabiat, hozirgi davr voqealari bilan tanishtirish orqali ularning aqliy qobiliyati, axloqiy va estetik hislari shakllanib boradi.

### **1. Axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari.**

"Axloq" ijtimoiy tushunchalardan biri bo'lib, uning mohiyati shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shuning uchun ham axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviyruhiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. "Axloq" tushunchasi oila fikri asosida tartibga solinuvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Demak, "axloq" tushunchasi qadimqadimdan ijtimoiy falsafiy, psixologik, pedagogik, tarixiy, badiiy, etnografik va madaniyatshunoslikka oid asarlarda ushbu tushuncha turli ko'lamlarda ishlatib kelingan. Axloq (xulq-atvop demakdir)-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy tartib qoida bo'lib, bu tartib qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy moyillikni asosini, poydevorini tashkil etadi. Axloq kishilarning xulqatvor me'yorlari va qoidalarig'i, ularning o'zo'ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning alohida shakli. Axloq tarixiy xususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatda avlodlar

tomonidan to'plangan axloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Zero, axloqsiz, axloqiy talab hamda ularda ifoda etilgan g'oyalarsiz shaxsning ruhan va jismonan yetukligining asosi bo'lgan ma'naviy komillik shakllanadi. Demak, insonning barkamolligi, avvalo, uning ma'naviy jihatdan yetukligi bilan belgilanadi. Bizning nazarimizda, shaxs ma'naviyati uning ongida kechadigan ijobiy mazmunga ega o'y fikrlari, niyatlar, g'oyalar, nazariya va ta'limotlar mazmunining amaliy faoliyatidagi tatbiqida namoyon bo'luvchi ruhiy jarayondir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shaxs ma'naviyati asosida ijobiy mazmunga ega bo'lgan, o'y fikrlar, niyatlar, g'oyalar, nazariyaning va ta'limotlar mazmunini tushunib yetishishini e'tiborga olish lozim. Demak, o'zbek xalqining ma'naviyati haqiqatg'o'y va adolatli bo'lish, jaholat va 7-mavzu: Axloqiy tarbiya 62 qabixlik yo'lini to'sish, insoniylik, mehr-shafqat, ma'rifat, do'stlik, mardlik, birodarlik, mehmondo'stlik, poklik, xush xulqlilik, insof, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarini singdirishga chaqiradi. Qadim-qadimdan o'zbek va sharq klassiklari ijodida axloq-odob masalasi markaziy o'rin egallab kelgan. Kaykovusning "Qobusnomasi"dan tortib, AlXorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" (Haqiqat sovg'alari), Imom Ismoil al-Buxoriyning "Al adab AlMuftrat kabi" jahonga mashhur asarlarida Alisher Navoiyning o'lmas she'riyatida, Munis, Xorazmiy kabi shoirlar asarlarida axloq-odob masalalari yoritilgan. Koshifiyning asarlaridagi ta'lim-tarbiya, axloq masalalari ko'pchilik uchun andoza, namuna, odob me'yori sifatida qisqa asosli, lo'nda qilib yozilgan. Koshifiyning fikricha, inson fazilati uning egallagan ta'limtarbiyasiga bog'liq. Shundagina u odobli hisoblanishi mumkin. "Odob -bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni hurmat qila bilishdir",- deydi olim. Navoiy esa "Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar ichida yoqimfirog'idir" - deydi. Bu bilan esa u kishilarning insoniylik belgisi uning odobli, axlokli ekanligi bilan o'lchanadi, deb ta'kidlaydi va barcha insonlarni yaxshi xulqli bo'lishga chaqiradi. Shuningdek, Navoiyning "Mahbubul qulub" asarida odob, axloqqa oid g'oyalar ilgari surilgan. Uning birdanbir orzuumidi, ideal insonga bo'lgan mehr- muhabbat, samimiylik edi: "Donishmandlar aytibdurlarkim, odobli inson barcha odamlarning yaxshiligi va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqtsir. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan narsa odobdir". Qoshg'ariy: "Insonlarda oq ko'ngillilik, bag'rikenglik, mehnatsevarlik, sofdillik, rostgo'ylik, saxiylik, vijdonlilik, irodalilik, qatiyatlilik kabi fazilatlar, bo'lishi shart va bular insonning barkamolligidan dalolat beradi, - deydi, ammo xasislik, olg'irlik, ochko'zlik, g'irromlik, pastkashlik, tuhmatchilik,

xoinlik, yolg'ochilik kishilarni beburd, axloqsiz qilib qo'yadi. Bunday salbiy xislatlar ularni obro'sizlantiradi, hayotini izdan chiqaradi, noto'g'ri yo'lga boshlaydi. Pastkash, baxil odamdan yaxshilik kutish mevasiz daraxtdan meva kutishga o'xshaydi". Odobli bo'lishning fazilati to'g'risida she'r va dostonlardan, adabiy manbalardan juda ko'plab parchalar, she'riy misralar keltirish mumkin. Odobli, yaxshi xulqli bo'lish to'g'risida dono xalqimiz to'qigan ko'plab maqol matallar asrlar osha og'izdan-og'izga o'tib kelmokda: Odobing-obro'ying. Odobkishining zebu ziynati. Oltin olmaodob ol. Yaxshilikka yaxshilik har kishining ishidir, yomonlikka yaxshilik er kishining 63 ishidir. 2. Bolalar bog'chasida axloqiy tarbiya vositalari. Maktabgacha tarbiya yoshining o'ziga xos tomoni shundaki, bu yoshda bolalar axloqiy tushuncha yoki xulqni so'z bilan aniq ta'riflab berolmaydilar. Lekin bolalar bog'chasidagi to'g'ri talqin voqealarning umumiy ma'nosini anglab olishga yordam beradi. Agar bolalar boshqalarda yaxshi xulq namunalarini ko'rsalar o'zlari ham ularga o'xshashga harakat qiladilar. Axloqiy tarbiyaning g'oyaviy asosi uning maqsadi vazifasi va tamoyillarini belgilaydi, ruhiy pedagogik asosi esa bolalar bog'chasida axloqiy tarbiya berishning vazifasi va mazmuni vositalari va metodini hamda pedagogik shartsharoitini belgilab beradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatleri va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Bu tarzda umumiy vazifalar yosh guruhlari bo'yicha aniqlashtiriladi va o'quv tarbiya jarayonining mazmunida o'z aksini topadi. Axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari quyidagilar:

g'oyaviy va tarbiyaviy ishning ma'lum maqsadga qaratilganligi;  
ta'lim-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan qolda yondashish;  
axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan hamnafaslikda olib borish;  
bolalarning faolligi;  
jamoada tarbiyalash;  
tarbiyaviy ishning tizimlari va izchilligi;  
ta'sirchanligi;

oila, bog'cha hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi;

Axloqiy tarbiya vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Bolalarda axloqiy histuyg'ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarini tarbiyalash.
2. Xulq madaniyatini va ijobiy sifatleri tarbiyalash.
3. Shaxsda axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy tomonlarni barhamtoptirish. Boladagi ijobiy sharoitlarga suyanish; bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish.

Bolalar bog'chasida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Avvalo, bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda ta'lim berish, kun davomidagi maishiy, mustaqil, badiiy faoliyatda, ko'ngil ochishlarda qatnashtirish orqali bu ish qal etiladi. Har xil bayramlar. San'at vositalari, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar badiiy adabiyoti, musiqa, ashula, gasviriy va amaliy san'at, o'yinchoq va o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari, oynai jahon va radio, kino va multfilmlar, diafilmlar va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday vositalardan ma'lum bir izchillik va tizimlilik bilan foydalanilgandagina bolalarning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Yuqoridagi aytilganlardan xulosa shuki, axloq odob o'zbek millati hayotining mazmuni hisoblanadi. Qayerda, qaysi jamiyatda, qaysi davlatda yaxshi xulq qaror topsa, o'sha jamiyatdagi kishilarning hayoti farovon, turmushi tinch, odamlari boy-badavlat bo'ladi.

### **3. Axloqiy tarbiya berish metodlari.**

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullardan foydalaniladi. Axloqiy tarbiya metodlari — bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarini egallab olishi, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usulidir. Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhga bo'linadi. 1-guruh: axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xohishini shakllantirishga qaratilgan metodlar. 2-guruh: axloqiy his-tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlar. Hamma guruh metodlari axloqiy his-tuyg'ular va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashni ta'minlaydi. Shuningdek, ko'rsatmali, og'zaki metodlar, tushuntirishni ko'rsatish bilan qo'shib olib borish. Tarbiyachining hikoyasi, o'qib berish, axloqiy mavzularda suhbatlar (rasmga qarab, tajribaga asoslanib, o'qilganlar bo'yicha), kuzatish, rasmlarni namoyish qilish, bolalar adabiyoti va hayotdagi ijobiy misollardan foydalanish asosida olib boriladi. Yuqorida keltirilgan hamma metodlar orqali bolalarga axloqiy me'yor va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o'rgatiladi, ularda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Bu metodlarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: bolalarning yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini e'tiborga olish, aqliy, xulq-atvor me'yorlarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish, har bir bolaning his-tuyg'usiga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish. Bolani noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish

yaramaydi. Hamma metodlardan ma'lum izchillik bilan kompleks ravishda foydalaniladi. Har bir metod o'ziga xos bo'lib, ma'lum vazifani bajaradi. Buni bir qator misollar orqali ko'rib chiqamiz. Tushuntirish ko'pincha bolalarga yangi axloqiy tushuncha, me'yor, qoida bayon qilib borilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslanadi. Masalan: ro'paradan kelayotgan tanish kishiga xushmuomalalik bilan salom berish uchun avvalo, bir oz to'xtab, u kishining yuziga qarab kulimsirab "Assalomu alaykum" deyish va yana yo'lida davom etish kerak. Tushuntirish va ko'rsatish tabiiy holda bo'lishi kerak. Axloqiy mavzulardagi suhbatni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hamma guruxlarida qo'llash mumkin. Tushuntirish yorqin bo'lib, bolalarning his-hayajoniga yetarlicha ta'sir etishi kerak. Bu metodning asosiy vazifasiga quyidagilar kiradi: bolalarda ijobiy-axloqiy hislarni uyg'ota olish, ertak kahramonlariga hamdardlik bildirish hamda yutug'idan qvonish va muvaffaqiyatsizligiga birgalashib achinish;

bolalarga tushunarsiz bo'lgan ayrim axloq qoidalarining mazmunini ochib berish;

axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda, sayrlarda, bolalarning o'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda foydalanish. Axloq mavzulardagi suhbatlar orqali bolalar axloq me'yorlari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda axloq qoidalari va me'yorlariga nisbatan talab yuzaga keladi. Bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish xulqning axloqiy sabablarini aniqlab borish kerak. Suhbat jarayonida bolalar o'z fikr mulohazalarini aytishlariga keng imkon beriladi. Shunda ular har bir xattiharakatini ongli ravishda, axloq me'yorlari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar. Shuningdek, bolalarga badiiy adabiyotlarni o'qib berish, san'at asarlari va amaliy san'at buyumlarini tomosha qilish, musiqa va ashula eshitish bolalarda estetik hisni uygotadi hamda axloqiy qoida va me'yorlarni singdirib boradi. Amaliy va o'yin metodlari — o'yin mashqlar, muammoli vaziyatlar, izlanuvchanlik faoliyati, pedagogik masalalarni yechish, didaktik va harakatli, sahnalashtirilgan o'yinlar, inssenirovka bolalarning hamma faoliyatiga rahbarlikni ham shu guruh metodlariga kiritish mumkin. Metodlar axloqiy tasavvur va tushunchalarni mustahkamlashga, bolalarda axloqiy tajribani to'plashga, axloq me'yorlari va qoidalarini ongli ravishda egallab olishga yordam beradi. O'yin kichik bog'cha yoshidagi bolalar uchun masq hisoblanadi va axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta'sirli usulidir. Unga qoidalarni mashq qildirish foydali odatlarni qaytarish kabilar kiradi. Muammoli vaziyat o'zining ahamiyati jihatidan

mashqqa juda yaqin turadi, ammo uning o'ziga xos tomoni bolada faollik, ijodkorlik, mustaqillik namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Dastlab hikoya — vaziyat (tugallanmagan hikoya) tavsiya etiladi, masalan, birorta hikoya ma'lum yerida to'xtatiladi. Tarbiyachi bolalarga hikoyadagi qahramonlar xulqini baholashni tavsiya etadi. Bolalarning javoblari muhokama etiladi va hikoyadagi ijobiy insoniy xulq haqida bir fikrga kelinadi. Axloqiy tarbiya metodlaridan tarbiyachi bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarni mustahkamlash bola xulqidagi salbiy tomonlarni bartaraf etish maqsadida foydalaniladi. Bunda tushuntirish, ishontirish, suhbat shakllari qulay bo'ladi. Rag'batlantirish va jazolash axloqiy tarbiyaning qo'shimcha metodi bo'lib, u asosiy metodlarga ta'sir etishning o'ziga xos vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyachi boladagi ijobiy xatgi-harakatni faollashtirish yoki bo'lmasa, bolani yomon qiliqlardan qaytarish uchun rag'batlantirishdan foydalaniladi. Bolalar bog'chasida rag'batlantirish shakllari: maqtash, ma'qullash, bolaga o'yinda bosh rol ni berish. Jazo shakllariga esa tanbeq, ma'qullamaslik, yaxshi ko'rgan o'yinchog'ini bermaslik kiradi. Jismoniy jazo qat'iyon man etiladi. Jazoning bosh vazifasi yuzaga kelgan nizolarni bartaraf etish, yangisining yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik.

Axloqiy tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, ya'ni pedagog va bolalarning o'zaro munosabatlari bolaning shaxsiga nisbatan hurmat bilan qarashga asoslanishi kerak.

Pedagogik jarayonni shunday tashkil etish kerakki, unda bolaning o'zi ijobiy odatlarni egallab borish, salbiy xususiyatlarni yo'qotishga intilsin.

Axloqiy tarbiya bolaning ijobiy xulqiga asoslanib amalga oshirilishi zarur. Bolani tarbiyalash uchun yaxshi hissiy muhit yaratish kerak. Jazolash va qo'rqitish bilan ijobiy axloqiy sifatlarni garbiyalab bo'lmaydi. Bolada axloqiy odatlarni shakllantirish uchun undagi ma'lum odatlarga asoslanish kerak. Ijobiy odatlarni yuzaga keltirish uchun qiziqarli faoliyatlarni tashkil etish kerak.

Axloqiy odatlarni tarbiyalashning pedagogik shartsharoitlari quyidagilardan iborat: Shunday qilib, bolalarning axloqiy tasavvur va tushunchalarni egallab olib, uni kundalik odatga aylantirishlari uchun bolalarning kattalar rahbarligidagi faoliyatni tashkil etish lozim. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo'llasa, yaxshi xulq namunalarni o'rgatish ancha oson kechadi.

## **1. Estetik tarbiyaning mazmuni, mohiyati va ahamiyati.**

Estetik tarbiya keng tushuncha bo'lib, voqealikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, ijtimoiy va mehnat munosabatidagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish, tushunishga o'rgatish, go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Estetik tarbiya o'z navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismi hisoblanadi. U ayniqsa, axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liqdir. San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayoli va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bolalarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to'g'ri tushunish, oliyanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarda go'zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, qayg'usini birga barham ko'rish kabi xususiyatlar shakllanib boradi. Estetik rivojlanish shaxsning estetik ongi, munosabati va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida

**Estetik tarbiya** uzoq vaqgni talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladi. Estetik ehtiyoj — kishi borliqni, badiiy faoliyatni, uning har xil ko'rinishlarida estetik idrok etishga undovchi sub'ektiv omildir. Estetik qiziqish shaxsni san'at asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga yo'naltiradi. Estetik qiziqish ehtiyojni yuzaga keltiradi. Estetik tarbiya tushunchasi bilan bir qatorda badiiy tarbiya tushunchasi ham mavjud. Badiiy tarbiya san'at asarlari adabiyot, musiqa, ashula, tasviriy san'at va boshqa vositalar asosida tarbiyalashdir. Estetik tarbiya — ancha keng, faqat san'at vositasidagina emas, balki qayot, mehnat, kishilarning o'zaro ta'siri vositasida go'zallikni, anglashni tarbiyalaydi. San'atda esa estetikaning turli-tuman masalalari namoyon bo'ladi. Ayniqsa, kishining fikr-irodasi madh etiladi, uning tarbiyalovchi roli ham shunda namoyon bo'ladi. Shuning uchun san'at estetik tarbiyaning mazmuni va vositasi hisoblanadi. Estetik tarbiya axloqiy mehnat va jismoniy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Estetik va axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqqa shundaki, kishining go'zallikni idrok etishdan quvonish, uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo'lishga o'xshab ketadi. Aksincha, go'zallikni ko'ra bilmaslik, undan zavqlana olmaslik yomon ishlarni qilishga olib keladi. San'atning tarbiyaviy kuchi shundaki, odamni hayotdagi voqealarni, hodisalarni chuqur his-hayajon bilan idrok etishga majbur etadi. Estetik tarbiya mehnat tarbiyasi bilan ham bog'liq. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi. Go'zallik quvonchisiz mehnat quvonchi bo'lmaydi.

Mehnat quvonchi bu turmush quvonchidir. Agar inson estetik jihatdan tarbiyalangan bo'lsa, u har qanday qiyin ishda ham go'zallikni ko'ra oladi va uni zo'r zavq-shavq bilan bajaradi. Estetik va jismoniy tarbiya o'rtasida mustahkam bog'lanish mavjud bo'lib kishining mustahkam sog'lig'i uchun muhim sanaladi. Insonning jismoniy kamoloti go'zallikni tasavvur eta olmaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishida, ayniqsa, estetik tarbiya emas, hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida uning sensor qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bu yoshdagi bolada kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o'ynaydi. Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin - asta takomillashib boradi. O'rta guruhga kelganda, bolalar estetik idrokning rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha shakllangan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar badiiy obrazlarni eng oddiy estetik baholay oladilar. Katta guruhning oxiriga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan ta'kidlaydilar, tasviriy san'at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, ulardagi ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan quvonadilar, yomonlikni qoralaydilar.

## 2. Estetik tarbiyalashning vazifasi maqsadi va metodi.

Estetik tarbiya (lot 'estezio' - go'zallikni his etaman) - shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat. mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning estetik didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni. MTMda tashkil etiladigan estetik tarbiya tarbiyalanuvchilarda axlokiy sifatlar, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini tarakkiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Estetik tarbiyani olib borish jarayonida tarbiyalanuvchilarda estetik xis-tuygu, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik tarbiyaning maqsadi shaxsning vokelikka estetik munosabatini shakllantirishdan iborat. Tarbiyalanuvchilar urtasida qul mehnati, musiqa, tasviriy san'at ma'lumotlarida. ertaklar o'qish chog'ida estetik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish imkoniyati mavjud.

Estetik tarbiya xam umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, xis-tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi. Estetik tarbiya ham



ana shu umumiy maqsad va vazifaning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, tarixiy-ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik xodisani anglatadi. Shuni ta'kidlash joizki, Qadimgi dunyoda umuman tarbiya maksadi estetik asosda namoyon bo'lgan. Qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqarolarning har tomonlama rivojlanishiga, "rux va badan" hamohangligini qaror toptirishga yo'naltirilgan edi. Aristotel va Platon kabi buyuk mutafakkirlarning ta'limotlarida estetik tarbiya tizimining bir-biridan farqli tomonlari bo'lgani holda umumiylik ham mavjud bo'lib, u yagona estetik orzuni qaror toptirishga, yagona axloqiy xulq-atvor va fuqarolik sifatlarini shakllantirishga xizmat qilgan edi. Avvallari estetik tarbiya o'ta tor va bir tomonlama talqin qilinardi, ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib, muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida in'ikos etilardi. Ba'zan estetik tarbiyaga odamlarda yuksak estetik did-farosatni shakllantirish sifatida qaralardi. Bularning barchasi badiiy-estetik tarbiyaning vazifa va maksadlari doirasiga kiradi. Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolalarning yosh va individual imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

1. Bolalarni hayotdagi, voqelikdagi, tabiat va turmushdagi go'zallikni tushunish, ko'ra bilishga o'rgatish. Ularda estetik his-tuyg'u, did, estetik munosabatni tarbiyalash.

2. Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida yaratilgan san'at Asarlarini tushunish, sevishtga o'rgatish, ularda estetik ong qirralarini shakllantirish.

3. Bolani san'atning turli sohalariga qiziqishi, izlanishini tarkib toptirish.

### **3. Estetik tarbiyaning vositalari.**

Shaxsning estetik madaniyatini shakllanishi ko'p jihatdan estetik kamolotiga ta'sir o'tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga bog'liq. Shunday tashqi va ichki shart-sharoitlar estetik tarbiya omillari deb ataladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun ma'lum bir sharoitlarni yaratish lozim. Bolalarni o'rab turgan muhit, turmush estetikasi ana shunday eng muhim omildir. Agar muhit estetiklikka asoslangan bo'lsa, agar bola odamlar orasidagi xushmuomala munosabatni ko'rsa, tevarak-atrofdan olingan taassurotlar ijobiy tavsifga ega bo'lsa, u kichikligidanok estetik borliqni o'zi uchun me'yor sifatida qabul qiladi. Turmush estetikasi o'zida ko'plab detallarni qamrab oladi. Shuningdek, bolalarni borliqni va uning go'zalligini tahlil etib borishga o'rgatish lozim: "Seni ko'ylagingga qaysi rangdagi tufli mos tushadi, deb

o'ylaysan?", "Uyimiz devoriga ko'prok qaysi rangdagi parda to'g'ri tushadi: ko'kmi yoki yashil?".

Mazkur xolatda bolaning aynan javobining o'zi muhim emas, asosiysi uning e'tiborini rangning mos kelishi yoki kelmasligiga qaratish, shuningdek, bolada u ham go'zallik yaratishi mumkinligi haqidagi xulosani xosil qilishga erishishdir. Estetik tarbiyaning eng muhim omili - tabiatdir. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, tabiat hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan go'zallik manbai. U estetik xis-tuyg'u, kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun boy material beradi. Ayniksa, tabiat badiiy obrazlar orkali ifodalansa, yanada uzining estetik jihatini yaqqol namoyon etadi. Masalan: Estetik tarbiyaning vazifalariga quyidagilar kiradi:

Quddus Muxammadiyning "Bolalar" she'rida ana shu jihat yorqin aks etgan: Fyv-g'uv uchar bolari, Duv-duv uchar bolari. Guldun-gulga qo'nishib, Sharbat ichar bolari. Sen qadrdon do'stimiz, Asaling yeb, o'sdik biz. Yasab berayin quti, Bog'chamizda qol, ari! Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go'zalligi xatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Uning tuyg'ular va xayollarda saqlangan go'zalligi bolalikda ayniqsa, chuqur va yorqin idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi. Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uning o'zgarishi va uyg'unligiga qaratadi, tabiat xodisalariga qiziqish uyg'otadi, unga muxabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o'rgatadi. Bularning xammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko'rib, atrofdagi go'zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch xosil qiladilar. Mana shu jihatdan estetik tarbiyaning yana bir omili sifatida mehnat yuzaga chiqadi. MTM yer maydonchasi va tabiat burchagidagi o'simlik va xayvonlarni kuzatish hamda parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan to'g'ri munosabatni, go'zallik yaratish xohishini shakllantiradi hamda qizgin faoliyatga undaydi. Yilning yoz fasllarida polizda, gulzorda, yer maydonchasida mehnat qilish jarayonida ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzda o'z mehnati mevasini yeyish bolaga alohida estetik xuzur bag'ishlaydi. Dala va bog'larga sayrga borganda tabiatning go'zalligi va boyligidan, u yerdagi dehqonlarning yaratuvchilik mehnatlaridan benixoya zavqlanishadi. Estetik tarbiya omillari orasida san'at muhim o'rin egallaydi. San'at - ijtimoiy ong va faoliyatning o'ziga xos shakli bo'lib, tevarak-atrof va borliqni badiiy obrazlarda aks ettirilishidir. Estetik tarbiyaning eng muhim omili sifatida sanat nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish,

balki ularni yaratishni ham o'z ichiga oladi. Badiiy qadriyatlarni yaratishga jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi ularda estetik did- farosat va talab-extiyojlarning rivojlanishiga, ijodkorlik qobiliyatlarini rag'batlantirishga olib keladi. MTTda bolalarni estetik jihatdan tarbiyalashda san'atning xilma-xil turlari va janrlaridan, xususan musiqa va tasviriy san'atdan foydalaniladi. Estetik tarbiyaning vositalaridan yana biri kug'irchok teatridir. Qo'g'irchoq teatri dunyoning ko'plab xalq va elatlariga qadim zamonlardan buyon ma'lum. U jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qo'g'irchok teatri har kaysi davlatda turli shaklda, turli xajmda, o'ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish - bolalarning iqtidori, ob'ektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan ahamiyatlidir. O'zbekistan Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: "Yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap borar ekan, yana bir muhim masala xususida to'xtalib o'tish o'rinni, deb o'ylayman. U ham bo'lsa, dunyoga xayrat ko'zi bilan boqib, undan o'zicha ma'no topishga intiladigan murg'ak farzandlarimizning qiziqishi va xissiyotlariga mos qo'g'irchoq va o'yinchoqlar ishlab chiqarish masalasidir". Zero, qo'g'irchoq teatri vositasida bolaning atrof-muhit, hayot haqidagi tasavvurlari, taassurotlari, u yoki bu xodisalarni tushunish, go'zallikni ko'ra bilish va xis etishga ma'suliyat xissi oshadi. Qo'g'irchoq teatrining bolalarning estetik tarbiyalashda nixoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi, shuningdek, badiiy so'z, musiqa, qo'shiq, raks, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi bola ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'g'irchoq teatri vositasida estetik sifatlarini shakllantirish jarayonida quyidagi bosqichlarning amalga oshirilishi maksadga muvofiqdir:

- o'tkazilishi rejalashtirilgan teatr oldi suhbatlari (bolalarda teatr qaxramonlarining o'ziga xos tabiati, xatti-harakatlari haqidagi tasavvurlarini savol-javob asosida aniqlash);

- teatrning ta'sirchan, xis-tuyg'u va mazmunga boy tarzda o'tkazilishi;

- teatr namoyishidan so'nggi suhbat (bolalarning voqealar, ularning mazmun-mohiyatini haqidagi fikrlari).

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy didini o'stirishda kitoblar muhim rol o'ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu, mazmun bilangina emas, shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi

bilan ham ajralib turishi juda muhimdir. Ayniqsa, ikki-uchli yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri katta bo'ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchog'iga "o'qib" berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Bolalar tomonidan eng ko'p o'qiladigan kitoblar ertaklardir. Ertaklar qisqa syujetli, tilining hayotiy va jonliligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari ertak qaxramonlarining bolalarga yaqin va tanish ekanligi ham ular bilan birga hayratlanish, voqealarni qiziqish bilan eshitish imkonini beradi. Estetik tarbiya MTMda rasm chizish, qirqib yelimlash, loy ishi kabi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Ana shu nuqtai nazardan bolalarni estetik tarbiyalashda tasviriy san'at muhim rol o'ynaydi. Bolalarning badiiy-estetik tasavvurlari tevarak- atrofdagi jonli va jonsiz narsa-hodisalarni turli usullar (rasm chizish, qirqib-yelimlash, loydan narsalar yasash, tikish), an'anaviy (akvarel buyog'i, bo'r, qalam, mo'yqalam, flomaster, rangli qalam va iplar, qog'oz, karton, yelim, igna) va noan'anaviy (paxta, gubka, barmoqlar yordamida, sham, gugurt cho'plari) vositalar orqali tasvirlashda namoyon buladi. Bularni badiiy-estetik savodxonlikning dastlabki elementlari sifatida qabul qilish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy ko'nikma va malakalarni oson o'zlashtiradi. Ikki-uch yoshli bola qalam va mo'yqalamni to'g'ri ushlash malakasini oson egalaydi, undan foydalanishni qiyinchiliksiz o'rganib oladi. Olti yoshda bola bir qancha ko'nikma va malakalar zahirasiga ega bo'ladi va ulardan yangi predmetlarni tasvirlashda kerakli usullarni qo'llab, mustaqil ravishda o'z aqlu idrokiga tayangan holda foydalanishi mumkin. Tarbiyaviy faoliyatda shunday vositalar qo'llaniladiki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday vositalari estetik tarbiya vositalari deb ataladi. Estetik tarbiya omillari va vositalari o'rtasidagi chegara nisbiy hamda shartlidir. Muayyan sharoitlarda estetik tarbiya omillari estetik tarbiya vositalari vazifasini o'tashi, aksincha, bo'lishi xam mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar asosida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning har bir yosh guruhida estetik tarbiya berishning metodlari ishlab chiqiladi:

1. Ongni fikrlash qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan metodlar.
2. Odatlantirish va mashq qildirish metodi (takrorlash, o'rgatish, musobaqalar uyushtirish, ibrat, namuna, o'git).

3. Rag'batlantirish va jazolash metodi (ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, namuna qilish, qatorming boshida turg'azish, rahmatnoma e'lon qilish, ogohlantirish, tushuntirish, ota-onasiga murojaat etish).

Bolalar bog'chasidagi estetik tarbiyaning asosiy vositalari quyidagilardir:

- ♣ ijtimoiy muhit va turmush estetikasi;
- ♣ san'at asarlari;
- ♣ bolalarning ijodiy faoliyatlari;
- ♣ bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar;
- ♣ ma'lum maqsadga qaratilgan va reja asosida amalga oshiriladigan tizimli ta'lim.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya bolalarni har tomonlama barkamol tarbiyalashning muhim omili bo'lib, aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan chambar-chas bog'langan holda amalga oshiriladi.<sup>7</sup>

**Nazorat uchun savollar:**

1. Tarbiya qoidalari deb nimaga aytiladi?
2. Tarbiyaning qanday qoidalari mavjud?
3. Tarbiyada izchillik, tizimlilik va uzluksizligi qoidasining ahamiyati nimadan iborat?
4. Tarbiyadan ko'zlangan maqsad niima?
5. Xalq pedagogikasida eng ko'p qo'llanilgan tarbiya usullarini ayting?
6. Tarbiya jarayonining murakkabligini izohlab bering?

## **Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya dasturi.**

**Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiyalashda dasturining vujudga kelishi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi**

### **Reja**

**1 Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi.**

**2. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.**

**3. Rivojlanishning yosh va uziga xos xususiyatlari.**

Tayanch tushunchalar: bola, maktabgacha yoshdagi bola, rivojlanish, maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi, omillar, maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, yosh, xususiyatlari. "Shaxs" tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti- harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat kiladi. Indivud shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida xis etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak. Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi Malakali kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati shaxsni intellektual va ma'naviy-axloxiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Individning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida individ inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Mohiyatan rivojlanish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi,

**Maktabgacha yoshidagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi eskining yo'qolib borishi, mikdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.**

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida uziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirshi vazifasini to'g'ri xal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar, shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish hamda hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda, individning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda: insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy xodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi, yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday? Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'mini belgilab bergan, degan g'oyani iltari suradi. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyondalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim - bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyondalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi.

Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombelar ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazardan asoslaydi. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy

o'zgarishdan iborat, deb qaraydi. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladi. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydi. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil bilan belgilaydi. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'lik deb ko'rsatadi. Muhit deganda inson yashaydigan sharoitdagi barcha tashki ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chikadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydi. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, tarakkiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nayel (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi. Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb xisoblaydi. Xakikatdan ham, shaxs mehnat faoliyati ta'sirida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy hayot maxsulidir.

Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ruyobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Shaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhit ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhitning shaxsning shakllanishiga ta'siri tarbiya asosida kechadi. Zero, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'lik ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham bartaraf etilib, shaxs kamolga yetadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakch o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror toptan:

**1. Biologik yondashuv** - inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat



talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

**2. Ijtimoiy yopdashuv** - inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshkalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarining ta'siri ostida ijtimoiylashadi

**3. Psixologik yondashuv** - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi - kizikishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

**4. Yaxlit yondashuv** - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol uynaydi. Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K. D. Ushinskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tgan. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

M: ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, xovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual, o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. "temperamentum" - qismlarning bir-biriga munosabati) shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

- go'daklik (1 yoshgacha);
- bolalik yoshi (1-2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- kichik yosh (3-4 yosh);
- o'rta yosh (4-5 yosh);
- katta yosh (5-6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh)

Go'daklik davri bolalariing rivojlanishidagi uziga xosliklar. Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to'qqiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o'taydi. Bu davrda ham bola ma'lum darajada tashqi muhit ta'sirida bo'ladi. Shuning uchun ham bu ta'sirning ijobiy bo'lishini ta'minlash lozim. Bir yoshgacha bo'lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta'sirida bo'lib, u ona suti bilan ozikdanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo'lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a'zolarini tanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham go'daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo'lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola bir yoshgacha bo'lgan davrda dastlabki so'zlarni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a'zolari go'dakni to'g'ri parvarish qilishni yo'lga qo'yishlari lozim. Oilada bolani tarbiyalashda ota-ona bilan bola o'rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota-onalar hech qachon tarbiyani o'z xoliga tashlab qo'ymasligi, ya'ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi. Bola nimaga o'rgatilsa, uni aniq, hayotiy misollar bilan mustaxkamlash zarur, ya'ni bola kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari, shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Ilk yosh guruhi (2-3 yoshli (bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari). Bu davr o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan davr mobaynida bolaning nutqi va o'zgalar tomonidan aytilgan so'zlarni tushunish qobiliyatlari jadal rivojlangan bo'lsa, 2-3 yoshga kelib, o'zgalar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so'z ta'siriga tez beriladi. Shuning uchun ham unta xuddi shu davrdan boshlab she'rlar aytish hamda raqsga tushishni o'rgatish lozim. Ularda kattalarga jo'r bo'lib qo'shiq aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o'zaro muloqotga kirishish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan xuddi ana shu ko'nikmalarni rivojlantirishda va ularni malakalarga aylantirishga yo'naltirilmog'i lozim.

Kichik gurux; (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola yoshga qadam qo'yganda jismoniy o'sishi bir qadar sekinlashadi. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, xissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib uynash ko'nikmalari shakllanadi. O'yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda ko'rish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati kisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o'yin faoliyati yetakchi rol uynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo'l ochadshan ta'limiy mashg'ulotlar tizimini belgilab berishga yunaltirilgan.

O'rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola to'rt yoshga yettacha, uning jismoniy o'sishi bir muncha jadallashadi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar pustlogining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo'ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni uzi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nixoyatda serharakat, o'yinqarok, o'ta qiziquvchan bo'ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to'g'ri ovqatlantirish, o'z vaqtida uxlatish, salomatligini muxofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmunini xuddi mana shunga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Katta guruh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.

Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to'g'ri usishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Ularning yuragi chakalok yuragiga nisbatan 4-5 barobarkattalashgan, biroq muskullari xali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo'ladi. Olti yoshga yetganda miya pustlogining asab katakchalari rivojlanib, og'irligi va tashki ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan takdirda uning oldini olish choralarini ko'rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so'zlar

bolaning fikr ifodalash ehtiyojarini to'la qondirishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga aloxida e'tibor karatish maqsadga muvofiqdir.

Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola hayotining yettinchi yilida undagi harakatlar ko'lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar uzini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqilfaoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi Bu yoshda bola chiniqadi. qiziquvchan bo'ladi, o'zsalomatligini nazorat qila oladi, Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigiyenik malakalar shakllana boradi. Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga o'qishga ishtiyoq uyg'otish lozim. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim. Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta'lim olishga tayyor bo'lishi kerak. Bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxismarkazlarining xulosalariga tayanish lozim. Shu bilan bir qatordamaktabning moddiytexnik bazasi olti yoshli bolalarga ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'lishi shart. Tarbiyachining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axlok-odobi va shaxsiy sifatleri olti yoshli bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun loyiq bo'lganda, u olti yoshli bolalarni o'qitish huquqiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham 6-7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan maktablar hamda bu bolalarni o'qitadigan tarbiyachilar pedagogik- psixologik nuqtai nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta'lim jarayoniga kiritilishi kerak. Demak, maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi o'ziga xos, murakkab jarayon sanaladi. Maktabgacha ta'lim yoshi bolalarining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi.

Bu yoshdagi bolalarning tulaqonli rivojlanishida biologik (irsiyat), ijtimoiy (ijtimoiy muhit) va tarbiya kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, maktabgacha ta'lim yoshining o'zi ham yettita o'ziga xos, alohida davrlarga ajratiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'qitish va tarbiyalash ishiga mas'ul bo'lgan shaxslar - tarbiyachi va

ota-onalar, vasiylar bolalarning yosh davri xususiyatlaridan to'la xabardor bo'lishlari zarur.

**Nazorat uchun savol va topshiriklar:**

- 1. Rivojlanish va shaxs rivojlanishini ta'riflang.**
- 2. Quyidagi fikrlarga qo'shilasizmi? "Agar bolalar muntazam tanqid qilinsa, aldashga o'rganadi"; "Agar bolalar qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilinsa, dunyoni go'zal ko'rishga o'rganadi"; "Agar bolalarga xurmat bilan munosabatda bo'linsa, ular olijanob va sahiy bo'lishni o'rganishadi".**
- 3. Shaxs faoliyati haqida so'zlab bering.**
- 4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tavsiflang.**
- 5. Shaxsning ijtimoiylashuvini qanday tushunasiz?**

## **Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanishi sobalari.**

**Rivojlantiruvchi muhitni MTTda tashkil etish. MTTda asosiy faoliyat turlari Reja**

**1. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni.**

**2. Tarbiyachi va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.**

**3. Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini tayyorlash tizimi.**

**Tayanch tushunchalari:** Tarbiyachi, tarbiyachining jamiyatda tutgan o'rni, sharq mutafakkirlari tarbiyachi to'g'risidagi fikrlari, tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablar, tarbiyachi shaxsini tayyorlash tizimi.

**1. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni.**

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli va ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonunyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Tarbiyachi va unga qo'yilgan hozirgi zamon talablari

Mustaqillik munosabati bilan respublikamiz rahbariyati o'qituvchilar va tarbiyachilarning faoliyatini yuqori baholamoqda. Yosh avlodni komil inson qilib, kamolot sari yetaklashdagi erishgan yutuqlari uchun o'qituvchi va tarbiyachilar, metodist o'qituvchi, katta o'qituvchi, metodist tarbiyachi va boshqa shunga o'xshash unvonlar bilan taqdirlanadilar. Ularga respublika miqyosidagi unvonlar beriladi. Xalq ta'limi xodimlari orasidan respublika, viloyat, tuman kengashlariga deputatlar saylanish, ularga bo'lgan chuqur hurmat va ehtiromni bildiradi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar bugungi kunda bog'chada, akademik litsey va kasb-hunar kollej hamda oliy o'quv yurtlarida shakllanayotgan avlod ijobiy xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini, ilmiy bilim asoslarini, kasb-hunar malaka va ko'nikmalarini har tomonlama puxta egallab borishini talab qiladi. Buning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimlar bilan qurollantirish milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni

tiklash jahon madaniyati, milliy madaniyatimiz durdonalari bilan tanishtirish, ularni jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdek vazifalar qo'yildi. Davlat ahamiyatiga molik bunday vazifani amalga oshirishda umumta'lim maktablari bilan bir qatorda xalq ta'limining boshlang'ich bo'limi bo'lgan bolalar bog'chalari muhim rol o'ynaydi.

## **2. Tarbiyachi va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.**

Ta'lim tizimi rivojlanishi maktabgacha talim tizimida ham ulkan islohotlarni olib kirilishiga sabab bo'lmoqda. Bu islohotlarga esa maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini oldiga bir qancha vazifa va talablar qo'yilmoqda. Bu jarayonda endi har bir tarbiyachi o'zini ustida ishlashi va mahoratini oshirib borishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga qo'ygan talablarni amalga oshirishning garovidir. Maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilariga quyiladigan talablarga quyidagilar kiradi:

- ♣ Bolaning sog'lig'ini saqlash va mustaqamlash
- ♣ Aqliy qobiliyatini o'stirish.
- ♣ Milliy qadryatimiz va ma'naviyatimizning g'oyaviy-aqliy tamoyillariga mos keluvchi e'tiqod va qarashlarini tarkib toptirish.
- ♣ Ona vatanga muhabbatini, ijtimoiy faollikni shakllantirish.
- ♣ Yosh avlodda o'rtoqlik, do'stlik hissini halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish.

Demak, yuqorida keltirilgan sifatlarni tarkib toptirish o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash vazifasining hamma tomonlarini qamrab ololmaydi. Lekin tarbiyachi ishlarga asoslanib, bolalarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash ishini ma'lum bir maqsad bilan samaraliroq amalga oshirish mumkin. Mustaqillik munosabati bilan o'qituvchi va tarbiyachilarning ma'naviy o'sishlariga va moddiy ahamiyat berilmoqda. Masalan, Respublikamizda 1992 yil 1 oktabrni o'qituvchi murabbiylar kuni deb nomlanishi hamda xalq maorifi xodimlarning maoshlari oshirilib turmushlari yaxshilanib bormoqda.

Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov o'zining "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli risolasida shunday yozadi: "Tarbiyachi — ustoz bo'lish uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo'lishi kerak". Demak, bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb

etadi. Ayniqsa, har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etadi. Shunga ko'ra tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida, ular bilan bo'ladigan muomalada, muloqotda ibrat, namuna bo'lishi bolani har tomonlama diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvori ish natijalarini haqqoniy baholashi va ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi hamda oilaviy ahvoli bilan qiziqishi zarur hisoblanadi. Demak, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi murabbiylarning ma'naviy qiyofasi, imidji hamda kasbiy mahoratlariga va kompetensiyasiga ham bog'likdir.

### **3. Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini tayyorlash tizimi.**

Bolani tarbiyalash nihoyatda qiyin va murakkab jarayon bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilganidir. Xususan, qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o'zining ma'naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a'zolari o'rtasida yuksak hurmat ehtiromga sazovor bo'lgan kishilar, ya'ni donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilganidir. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi uning tashkil etilishi mazmunini faqat shaxs kamolotini emas, balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasida ham tarbiyachi-murabbiy kadrlarni ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Bu borada Birinchi Prezident I.A. Karimovning "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz... O'qituvchi-tarbiyachi bolalarimizga zamonaviy bilim berishi uchun avvalo, murabbiyning ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak" deb aytgan fikrlarini eslash joiz. Yuqoridagi qayd etilgan fikrlardan bugungi kun tarbiyachisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablarning naqadar muhimligini anglash lozim.

Demak, tarbiyachi-maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassisligi bo'yicha yetuk bilimli va yuksak fazilatli shaxs sanaladi. Shuning uchun zamonaviy tarbiyachi murabbiy qiyofasida quyidagi fazilatlarni namoyon eta olishi kerak. Zamonaviy murabbiy o'zini mutaxassisligi bo'yicha chuqur puxta bilimga ega bo'lish, o'z ustida tinimsiz ishlashi kerak. Tarbiyachi maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiya-fiziologiya fanlarining asoslarini



bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etishi kerak. Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo'lish, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l, oyoq va gavda xarakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olish lozim. Tarbiyachi bolalarni kuzata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri taxlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay oladigan bo'lishi kerak. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi quyidagi xususiyatlarda aks ettira olishi kerak. Nutqning aniqligi. Nutqning irodaviyligi Nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etish, jargon, (muayyan kasb yoki soha mutaxassislariga xos so'zlar) varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan nutqta o'zga millatlarga xos so'zlarning o'rinsiz qo'llanilishi) vulgarizm (harakat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rinli bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy nutqda so'zlash) so'zlaridan xoli bo'lishi va pedagogning nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak. Nutqning ravonligi. Nutqning boyligi (so'zlash jarayonida maqsadga muvofiq tarzda hikmatli so'zlar, maqollar, ko'chirma gaplardan foydalana olish). Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb qilib faolligini o'stirish bolalarni xulqini xatti-harakatini real baholay olishi kerak. Har bir faoliyat uchun kerakli materialni oldindan tayyorlab qo'yishi yangi bilimni egallagan bilimlari bilan bog'lay olishi hamda bolalar egallab olishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar ularning yosh imkoniyatlariga mos bo'lishi va ularni asta-sekin murakkablashtirib borishi kerak. Tarbiyachi kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi ularning faoliyati (o'quv, o'yin, mehnat) mazmunli bo'lishi uchun kerakli materiallar bilan ta'minlashi zarur. Bolalarni ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va uni bolalar bilan amalga oshiradigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi lozim. Tarbiyachi kun davomida olib boradigan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni rivojlantirish yo'llarni topa olishi kerak. Tarbiyachi o'ta-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar uyushtirishi, uchrashuvlar o'tkazishi, ularni bolalarga ta'lim-tarbiya berish bo'yicha amalga oshiriladigan ishining mazmuni, metodlari bilan tanishtirib borish, oila tarbiyasidagi ijobiy namunalardan o'zining ta'lim-tarbiyaviy ishlarida foydalanishi mumkin. Tarbiyachi bolalarga

nisbatan xayrixoh munosabatda bo'lish, har bir bola uchun qulay ruhiy sharoit yaratish, xafa bo'lsa ovuntira olish, xursandchilik va xafagarchiligiga sherik bo'la olish, ayniqsa, kichik guruh bolalariga nisbatan muloyim e'tiborli, qat'iy, sabr toqatli yumshoq ozgina hazilkash, bolaning kuch imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydigan bo'lishi kerak. Agar tarbiyachi bolaga mehribon bo'lsa, bolalar bilan uning o'rtasida mehr-oqibat, g'amxo'rlik munosabatlari yuzaga keladi. Bolalar tarbiyasining shaxsiy sifatlarini bilimi, malakasi bolalarga munosabati talabchanligini quyidagicha belgilaydilar, kichik guruh bolalari tarbiyachining ularga bo'lgan mehr-muhabbatiga qarab (u meni qo'zichog'im "deb chaqiradi, mani yaxshi ko'radilar") 4-5 yoshli bolalar tarbiyachini bolalar hayotini yaxshi tashkil etilishiga qarab «Nargiza opamiz bizga ertaklar o'qib beradilar» biz bilan birga o'ynaydilar shuning uchun men ularni yaxshi ko'raman. Katta guruh bolalari tarbiyachini hamma bolalarga adolatilik bilan yaxshi munosabatda bo'lish, yaxshi ishlarni o'rgatishga, xulqiga, axloqiga qarab baho beradilar (u ko'p narsalarni o'rgatadi, mashg'ulotlarni yaxshi o'tadi). Eng muhimi tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligi to'g'ri takdirlashi va mustaqil faoliyat ko'rsatishlari uchun imkoniyat yaratish kerak. Buni bolalar yuqori baholaydi.

#### **Nazorat savollari.**

- 1. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rnini qanday tushunasiz?**
- 2. Tarbiyachi-murabbiy to'g'risida mutaffakirlarimizning qarashlarini yoritib bering.**
- 3. Tarbiyachi shaxsiga qanday talablar qo'yilgan?**
- 4. Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini kasbiy malakasini tushuntirib bering.**

**Kasbiy kompetensiya. Kasbiy muloqat, kasbiy mahorat, tarbiyachi, uslubchi, mudira faoliyati va uni boshqaruvi. Pedagog tarbiyachining nutq madaniyati. Pedagog tarbiyachilar kasbiy kompetentligining uch aspekti.**

**Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir yondoshuvlar.**

**Reja**

**1. Nutq madaniyati tarixidan.**

**2 Nutq madaniyati hayotiy zarurat sifatida.**

**3 Tarbiyachi nutqi madaniyati**

**4 Tarbiyachilarining kasbiy layoqati va kasbiy tayyorgarligi.**

**5 Tarbiyachining kasbiy sifatlari**

**6 Tarbiyachilik kasbining axloqiy sifatlari**

Nutq, nutq madaniyati, va'zxonlik, notiqlik san'ati, ifodali o'qish, ichki nutq, tashqi nutq, nahv - (arabcha) sintaksis grammatika, nazm - (arabcha) she'riy agar: she'riyat janri, she'r o'lhovi, nasr - (arabcha) proza, prozaik asar, proza janri, aruz - she'r tuzilishida qisqa va chuziq hijo (bo'g'in)larning ma'lum tartibda guruhlanib, takrorlanib kelishiga asoslangan vazn sistemasi. aruz vazn, mantiq - (arabcha so'z) tafakkur shakli va qonunlari haqidagi fan; logika.

Ma'lumki, uzoq o'tmishga ega bo'lgan o'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr-oqibat, birodarlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlari ham ana shu boy merosning tub negizini tashkil etadi. Lekin mustabid tuzum davrida bu durdona asarlardan, undagi odob-axloqqa oid injuga barobar fikrlardan yetarlicha foydalana olmadik.

Shukurki, milliy istiqlol tufayli o'zbek xalqining ham ko'kragiga shabada tegdi. Tariximizga, madaniyatimizga yangicha nazar bilan qaray boshladik. Shuningdek, o'z yechimini kutayotgan muammolarni ijobiy hal qilishga bel bog'ladik. Barcha sohalar singari ona tilimiz va u bilan bog'liq muammolar ham asta-sekin yechimini topmoqda. Xususan, nutq madaniyatiga doir masalalarni hal qilishda tilshunos olimlarimizning mehnatlari, izlanishlari tahsinga loyiqdir. Taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning «Til», «Ma'rifat manzillari» nomli, Nusratilla Jumaxo'janing «Istiqlol va ona tilimiz» kabi risolalari ana shu sohadagi izlanishlarning yorqin misolidir. Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblilik kasb etadi.

Respublikamizning «Davlat tili» haqidagi Qonuni, «Ta'lim to'grisida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa hujjatlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, til masalalariga alohida e'tibor berilgan. Har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining chinnakam sohibi bo'lmog'i lozim. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida so'zlagan nutqida: «O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda io'oda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin»-deb ta'kidlaydi. (Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent, 1997.- 9 bet).

Nutq madaniyati hozirgi davr tilshunoslik o'zining dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, oliy maktablarda, o'rta maxsus o'quv yurtlarida, o'rta maktablar va umuman dars o'tish jarayonini yaxshilash bilan ham bog'liq, Shuni qayd qilish kerakki, bugungi kunda tarbiyachi nutqi madaniyati kursini barcha o'quv yurtlarida o'rgatish quvonarlidir. Chunki notiqlik san'ati sirlarini o'rganish, o'z fikrini bayon qilayotgan, har bir til vositasini kerakli va lozim bo'lgan o'rinda qo'llash, mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman, har qanday madaniyatli kishi uchun hayotiy zarurat deb hisoblanishi kerak. O'zbek adabiy tili va uning normalarini ilmiy o'rganish ham o'zbek nutqi madaniyati sohasi uchun nihoyatda muhimdir. Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarining adabiy til me'yorlarining umumiy holatini, undagi turg'un va noturg'un hodisalarni chuqurroq tekshirmay turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish aslo mumkin emas.

Til ham, fe'l-atvor ham odamga qon bilan kirib uning butun jismu joniga taralib ketuvchi an'analar ekan, bularga e'tibor bermaslik, hamisha katta-kichik fojialarni keltirib chiqaradi.

“Tarbiyachi nutqi madaniyati” fanining predmeti, uning maqsadi va vazifalari.

Nutq madaniyati salomlashish madaniyati, ovqatlanish madaniyati kabi muayyan jamiyatga xos bo'lgan, ko'pchilik tomonidan me'yor sifatida qabul qilingan madaniyatlar tizimidagi bir halqadir.

Ana shu halqalarning o'zaro zich munosabatidan shu jamiyatning madaniyati vujudga keladi. Demak, nutq madaniyati ma'lum bir jamiyatning muayyan bir davrdagi milliy madaniyatning tarkibiy qismidir.

Shuning uchun ham bizning ajdodlarimiz nutq madaniyatiga alohida ahamiyat berganlar. Xususan, halifa Abdulmalik nutq madaniyatiga, notiqlik san'atiga ega bo'lmagan, til go'zalligini namoyish eta olmaydigan kishi hokimiyatni boshqarishi mumkin emasligini e'lon qildi. Natijada jamiyatda, hokimiyatni boshqarishda, fan

sohasida katta yutuqqa erishish uchun har bir shaxs o'z ona tilining boy imkoniyatlarini to'la egallashi va uni amalda qo'llay olishi shart qilib qo'yildi.

Abu Nasr Farobiy ham "Fozil odamlar shahri" kitobida fozil kishining fazilatlaridan biri sifatida nutq madaniyatini tilga oladi. Bu an'ana islom olamida uzoq davrlargacha davom etdi. Xususan, Temuriylar davrida ham bola tarbiyasida nutqiy madaniyatni shakllantirishga katta e'tibor berildi. Zahiriddin Muhammad Boburning o'g'li Humoyunga yozgan maktubi, unda Humoyunning maktub yozishga e'tiborsizligi, g'aliz va dabdabali ifodalar qo'llagani qattiq tanqid ostiga olgani va xatni qanday yozish kerakligi haqida pand - nasihatlar qilgani fikrimizning yorqin dalilidir.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng Prezidentimiz ko'rsatmasi bilan ta'lim tizimini tubdan yaxshilashga jiddiy e'tibor berildi. Shu tufayli "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" ishlab chiqildi. Til va tafakkur o'zaro dialektik aloqadadir. Fikr o'stirish bevosita nutq o'stirish demakdir. Shuning uchun ham hozirgi kunda ta'lim tizimida chuqur fikrlaydigan, o'z fikrini erkin va ta'sirchan bayon qilib beradigan yoshlarni tarbiyalashga e'tibor berilmoqda.

Nutq madaniyati haqida fikr yuritishdan oldin nutqning o'zi nima? Uning til bilan aloqasi qanday, degan savollarga javob berish kerak bo'ladi. Hozirgi kunda til va nutq bir -biridan izchil ravishda farqlanadi. Bunday farqlanish tilshunoslik fanida mashhur Shvetsariya olimi Ferdinand de Sossyurdan boshlandi. U o'zining "Umumiy lingvistika kursi" asarida bu ikki tushunchani bir - biridan aniq farqlab berdi. Biz bevosita fikr almashish jarayonida ma'lum bir xalqning uzoq davrlardan beri foydalanib kelayotgan aloqa vositasini ishga solamiz. Fikr almashish jarayoni nutqiy jarayon yoki nutqiy faoliyat hisoblanadi.

Nutqiy faoliyat ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi fikr almashuv faoliyatidir. Har qanday nutqiy faoliyat nutq ishtirokchilari uchun oldindan tayyor holda ajdodlardan meros bo'lib o'tgan, barcha jamoat a'zolari uchun babbaravar xizmat qiluvchi aloqa vositasi orqali amalga oshadi. Demak, so'zlashuvchilar ongida tayyor holda aloqa vositasi mavjud bo'ladi. Ana shu ijtimoiy ruhiy jamiyatning barcha a'zolari ongida o'zidan oldingi ajdodlari og'zidan eshitish orqali ko'nikma sifatida mavjud bo'lgan aloqa vositasi til hisoblanadi. Har qanday tilning fikr almashish jarayonida bevosita voq'e bo'lishi nutqdir. Demak, biz real talaffuz qilgan va qulog'imiz bilan eshitgan birliklar nutqiy birliklar sanaladi,

Nutqiy faoliyat uchun muayyan axbrotni uzatish va qabul qilishgina kifoya qilmaydi. Nutq faoliyati uchun nimani bayon qilish bilan birga, uni qanday bayon qilish ham katta ahamiyatga ega. Axborotni qanday bayon qilish nutqiy madaniyatning o'rganish ob'yekti sanaladi.

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinadashakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilion va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lganligi notiqlik san'atitajribasidan ma'lum. Bu davrda davlatning, savdo-sotiqning, sudishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san'atdarajasiga ko'tardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarning obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlikmahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'at sarkardalikmahorati bilan barobar darajada ulug'langan. Bu ikki san'atnimukammal egallagan kishilargina yuqori lavozimlarga saylanganlar. Umuman, yetuk inson bo'lish uchun, albatta, notiqlik san'atiniegallash shart qilib qo'yilgan. Yunon notig'i Demosfen va Rimnotiqlari Sitseron, Kvintillian, Aristotel kabi nazariyotchilarning hayotlari bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik san'atining o'ziga xos maktabini yaratdilar. Sitseronning «Notiqlik haqida», «Notiq», «Brut» asarlari, Mark Kvintillianning «Notiq bo'lish haqida, Aristotelning «Ritorika» kabi asarlari ham qadimgi Rimda madaniy nutq, notiqlik nazariyasi rivojlanganligini ko'rsatuvchi bir omildir. O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nuqq madaniyati o'ziga xos mavqega egadir. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya'ni va'zxonlik, «Qur'on»ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan o'rinli foydalanish borasida ko'p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtai-nazardan qaralsa, «Nutq odobi», «Muomala madaniyati» nomlari bilan yuritilib kelgan nutq madaniyati tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortgan: Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalalariga, umuman nutqqa jiddiy e'tibor berishga da'vat etish bilan birga, tilga, luq'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozdilar. Buyuk qomusiy olim Beruniy (973-1048) o'zining «Geodeziya» asarida har bir fanning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning xosilasidir. Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo'rligi haqida shunday deydi: «Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...»

Kaykovus tomonidan 1082-1083-yillarda yaratilgan, Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri hisoblangan «Qobusnoma»da ham nutq

odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Asar 44 bobdan iborat bo'lib, uning 6-7 boblari so'z odobi haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlar orqali o'quvchini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So'zlaganda o'ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko'z oldiga keltirib gapirish kerakligini, kishi kamtar bo'lishi, o'zini xalq orasida oddiy, kamtar tutishi lozimligini eslatib, mahmadonalik qilish, ko'p gapirish donolik belgisi emas... «Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so'z bilimdonligi vaqtida bekor bo'lib qolmagaysan. Ko'p bilu, oz so'zla, kam bilsang, ko'p so'zlama, chunki aqlsiz kishi ko'p so'zlaydi, deganlarki, jim o'tirish salomatlik sababidir. Ko'p so'zlovchi aqlli odam bo'lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi...»

Ulug' shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo'lgan «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim») asarida so'zlarni to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash haqida:

«Bilib so'zlasa so'z bilig sanalur» degan edi. Qisqa so'zlash, so'zlarga iloji boricha ko'proq ma'no yuklash haqida:

Ugush so'zlama so'z biror so'zla oz,  
Tuman so'z tugunini bu bir so'zla yoz.  
deydi. Mazmuni;

So'zni ko'p so'zlama, kamroq so'zla. Tuman (ming) tugunini shu bir so'z bilan yech. Gapirishdan maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to'g'ri, ta'sirchan yetkazishdan iborat. Shunday ekan, nutqning to'g'riligi, ravonligi va mantiqiylikiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Muta'akkir so'zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, hovliqmasdan, so'zning ma'nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi.

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII) ham so'zlaganda nutqni o'ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas so'zlarni ishlatmaslikka mazmundor so'zlashga chaqiradi. Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin hijolat chekib yurmagin, deb so'zlovchini ogohlantiradi:

O'quv so'zla so'zni esa so'zlama,  
So'zing kizla, kedin, boshing kizlama.

(So'zni uqib so'zla, shoshib gapirma, keraksiz, yaramas so'zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma.) Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'lamalikni qoralash va boshqalar haqida gap boradi. O'rta Osiyo notiqligining o'ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu

davrda notiqlik san'ati ustalarining nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yurigilishi ham ana shundan dalolat beradi. Ammo tilning yaratuvchisi xalq ekanligini va uning, eng avvalo, xalqqa xizmat qilishini to'g'rilovchi sog'lom o'ikrli kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doim to'g'ri tushunib kelganlar. Navoiyning davlat arbobi sifatida mehnatkash xalq oldida qilgan chiqishlari, uning til haqida aytgan fikrlari buning dalilidir. O'zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo'lgan buyuk shoir Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzishning bayroqdori sifatida uning butun ijodi bilan o'zbek tili boyliklarini namoyon etdi. Navoiy o'zbek adabiy tilida buyuk asarlar yaratish mumkinligini namoyish qildi. Shoir o'zining «Muhokamatul - lug'atayn» asarida har bir tilning ijobiy va salbiy tomonlari borligini eslatib o'tdi. A.Navoiynish «Muhokamatul – lug'atayn», «Mah'bubul- qulub», «Nazmul-javohir» asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga, uning yuksalishiga ham katta hissa qo'shdi. U o'zining «Mahbubul-qulub» asarida shunday deydi: «Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, boshning oo'atidir...» ya'ni, til o'zgarguncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar u o'rinsiz ishlatilsa tilning oo'atidir.

A.Navoiy to'g'ri, qisqa, lo'nda, yoqimli, mantiqli, tushunarli, jo'yali aniq va ta'sirli nutq haqida o'zining «Arbain» asarida, shuningdek, «Xamsa» asaridagi besh dostonning har birida ham ajoyib fikrlarni aytib o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek nutqi madaniyatining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimdan bu sohaga «Nutq odobi» nomi ostida ancha keng e'tibor berilgan bo'lib, keyingi asrlarda, ayniqsa, XIX-XX asrlarning ayrim vaqtlarida e'tibor ancha susayganligi ko'zga tashlanadi. Biroq keyingi yillarda bu sohada ko'p ishlar qilindi.

2. «Nutq madaniyati asoslari» o'ani o'zbek tilshunosligining o'ziga xos amaliy sohasidir. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingan bilimlarga suyangan holda to'g'ri va chiroyli, nutq tuzish yo'llarini o'rgatadi. U til, til normalari, nutq, nutqning sio'atlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. tarbiyachi nutqi madaniyati ham fan sifatida o'z tekshirish ob'yekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til normalari va nutqning kommunikativ (aloqa uchun kerakli) fazilatlaridir. Nutq madaniyati nazariyasida til iormasi markaziy tushunchadir. «Til madaniyatining asosiy tekshirish ob'yekti adabiy til normalari, asosiy vazifasi esa ushbu normadagi ikkilanishlarni bartaraf etish bo'lmog'i kerak».Shunday qilib, nutq madaniyati asoslari fani adabiy til normalarini, uning tarixiyiligini, taraqqiy etib



borishi, undagi ba'zi unsurlarning eskirishi, ular o'rnida yangi normativ unsurlarning paydo bo'lishini kuzatib, qayd etib boradi. Biroq bu fan adabiy normalarni yaratmaydi, ba'zi bir hodisalarni norma sifatida majburan kiritmaydi. Balki o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, ob'yektiv qonunlarini kashf etadi, shular asosida tavsiyalar beradi.

3. Hozirgi o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanganligi va ulkan ijtimoiy vazifani bajarayotganligi hech birimizga sir emas. Bu til diyorimiz vakillari uchun umumiy til sifatida shakllandi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi jumhuriyatimizda davlat ishlarining, o'qish-o'qitish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamda olib borilyapti. Lekin, shuni ham eslash joizki, tilning ijtimoiy vazifasini bajarilish darajasini belgilovchi omillardan biri bo'lmish nutq madaniyati yetarli taraqqiy etmaganligi achinarli bir holdir. Shu bois nutq madaniyati sohasini chuqurroq o'rganish oldimizga qo'yilgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga faqat tilshunoslarga emas, balki jumhuriyatimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari e'tibor berishlari maqsadga muvoo'iqdir. Chunki, nutq madaniyati umuminson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, kishilarni yuksak madaniyatli bo'lishlarini belgilaydi. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan, xalqaro hayotda ikki qarama-qarshi ijtimoiy guruh o'rtasida mafkuraviy kurash nihoyatda keskinlashgan bir davrda yashamoqdamiz. Bu narsa ham mao'kuraviy kurashning asosiy quroli bo'lgan tilning har qachongidan ham o'tkir va keskin bo'lishini taqazo etadi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ham bunga alohida e'tibor berib bunday degan edilar: «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin»; «Eng dahshatli fikr qaramligi tafakkur qulligi»...

«Maktabda bolalar mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi? Aminmanki o'rgatilmaydi. Mabodo, biror o'quvchi Tarbiyachiga e'tiroz bildirsa, ertaga hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktabdagi jarayonda Tarbiyachi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishini talab qiladi. Printsip ham tayyor: mening aytganim-aytgan, deganim-degan».

«Tarbiyachi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rmini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. Tarbiyachining bosh vazio'asi o'quvchilarga mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini

ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin ao'suski, amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz. Demokratik jamiyatda bolalar umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo, bilim o'z yo'lga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir». (Barkamol avlod orzusi.- Toshkent, 16-bet).

Nutq tadbirkorligini singdirish maktabda Tarbiyachining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashg'ulotgacha o'quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. Shu o'rinda taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning kuyunchaklik bilan aytgan o'ikrlarini keltirib o'tish lozim:

«Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, o'izika yoki tarix bo'ladimi, Tarbiyachi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli o'an sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berish maqsadga muvoo'iq. Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sio'atida qarab kelinadi, shuning uchun Tarbiyachi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmazlik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko'rgazmali qurol Tarbiyachining o'zidir». (N.Mahmudov. Ma'rio'at manzillari.- Toshkent.)

1. Nutq madaniyati nima?
2. Nutq va uning turlari.
3. Nutq madaniyati lingvistik soha

Nutq madaniyati muammolari. Nutq madaniyati fani hozirgi davr tilshunoslik o'aning aktual muammolaridan biridir. Tafakkur nutq yordamida ro'y berib, shu tufayli kishilar bir-birlari bilan aloqa bog'laydilar. Nutq madaniyati esa biror tilda to'g'ri so'zlash va yozish, o'sha tilda fikri qisqa va aniq, sodda va obrazli, uslub jihatdan ravon ifodalash demakdir.

Tinglovchida kuchli taassurot qoldirish va kishining nutqi noaniq bo'lmasligi uchun dastlab til qoidalarini puxta bilish lozim.

Nutq turli shaklga ega bo'lib, quyidagicha klassifikatsiya qilinadi.

## 2-guruh

Nutq, ko'pincha, ovoz chiqarmasdan, o'ylash protsessida ham ifodalanadi. Bunday odam ichida gapiradigan, ya'ni passii nutqdir. Bunday ichki nutqda ikkinchi kishiniig bo'lishi shart emas. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida muhim o'rin tutadi. Tashqi muhit aktiv fikrlashni talab qiladi. Bunday nutq

og`zaki va yozma formada amalga oshiriladi. Odatda, tovushli so`zlashuv protsessiga og`zaki nutq deyiladi. Bundan tashqari kishilar intonatsiya orqali mimika va imo-ishora orqali ham o`z fikr, his-tuyg`ularini boshqalarga yetkazadi. Og`zaki nutq hamisha bir yoki bir necha kishi tomonidan monolog yoki dialog shaklida nomoyon bo`ladi. Monologik, nutq bir kishining ko`pchilikka qaratilgan fikrlarining ifodasidir. Dialogik nutq ikki va undan ortiq shaxs o`rtasida amalga oshiriladi. Nutq madaniyati hodisasining o`zini maxsus ilmiy tushuncha, maxsus lingvistik soha sifatida asoslab berishga bag`ishlab yozilgan adabiyotlar juda kam. O`zbek tilshunosligida, shuningdek, deyarli butun turkologiya fanida, nutq madaniyati sohasi yangi bo`limdir. Bu masala bo`yicha endigina sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtdagi eng muhim narsa shuki, nutq madaniyatini ilmiy muammo sifatida qo`yish va ishlash lozimligi ko`pchilik olimlar tomonidan tan olindi. Nutq madaniyati deb yuritiluvchi tushunchaning ilmiy muammo sifatida «asoslanishi, dastlab rus tilshunosligida yuzaga keldi. Bu masalaning ilmiy muammo sifatida asoslanishi atoqli rus tilshunosi Grigoriy Osipovich Vinokur (1897-1947) ning nomi bilab bog`liqdir. O`zbek tilshunosligi nutq madaniyati oldida quyidagi aktual nazariy hamda amaliy muammolar turibdi:

Nutq madaniyatining umumnazariy muammolari:

Yozma nutq madaniyati muammolari:

Og`zaki nutq madaniyat muammolari: Mazkur muammolarning ilmiy hal qilishni tilshunoslikning nutq madaniyati o`rganuvchi sohasini yanada yuksak pog`onaga ko`taradi.

O`zbek tilshunosligida nutq madaniyati tushunchasi bilan bog`liq bo`lgan yana bir qator masalalar ham borki, ularni umumlashtirib tubandagicha gruppalashtirish mumkin: Nutq madaniyati yoki til madaniyati deb nomlanuvchi tushuncha, hodisaning mohiyatini aniqlash kerak. Nutq madaniyati tushunchasining tilshunoslik fanida paydo bo`lishi tarixan asoslanishi lozim.

Nutq madaniyati va til madaniyati terminlarini

ifodalovchi tushunchalarning aloqador va farqli xususiyatlarini aniqlash zarur.

Nutq madaniyati tushunchasining, bir tomondan, ilmiy muammo sifatida va ikkinchi tomondan, lingvistik soha sifatida mazmunini belgilash kerak. 5. Nutq madaniyati muammosini ilmiy tadqiq etish aspektlari aniqlanishi lozim.

6. Nutq madaniyati sohasi bilan tilshunoslikning boshqa bo`limlari orasidagi munosabat, ulardagi o`zaro o`xshashlik aloqadorlik farqli tomonlar belgilanishi shart.

7. Nutq madaniyati sohasining nazariy muammolari, unga kiruvchi masalalar aniqlanishi zarur.

8. Nutq madaniyatining amaliy muammolari unga kiruvchi masalalarni aniqlanishi kerak.

9. Nutq madaniyati va individual nutq masalasi.

10. Nutq madaniyati va ommaviy nutq muammosi nimaligi aniqlanishi zarur.

Yuqorida qayd qilingan tushuicha va muammolarni talqin qilish va javob topishga intilish o'zbek tilshunosligi o'zining dolzarb masalalaridan biridir.

### **1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy layoqati va kasbiy tayyorgarligi**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy layoqati va kasbiy tayyorgarligining quyidagilar kiradi:

#### **1. Shaxsiy sifatlar.**

Bolalarni sevish; ijtimoiy faollik; bolani ichki dunyosini tushunish qobiliyati; bolalar bilan muloqot qilish qobiliyati; kamtarlik xushmuomalilik; mehnatsevarlik; qathiylik; mustahkam xarakter; odillik; mas'uliyatlilik

#### **2. Kasbiy sifatlar.**

O'z kasbiga bo'lgan qiziqish; topshirilgan ishga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish hissi; ahloqiy madaniyat (nutq, hulq-atvor); psixologik kuzatuvchanlik; chidamlilik; pedagogik odob; aniq va tushunarli nutq; o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish.

#### **3. Kasbiy bilimlar.**

maktabgacha yoshidagi bolalarni yosh va o'ziga hos xususiyatlarini bilish; tarbiya jarayonining mazmunini, maqsad va vazifalarini bilish; maktabgacha ta'lim pedagogikasi, bolalar psixologiyasi, maxsus metodikalar va gigiena asoslari haqida bilimga ega bo'lish; zamonaviy pedagogik metodologiyasi asoslarini o'zlashtirishlik va maktabgacha yoshidagi bolalarni psixologik va pedagogik xususiyatlarini bilish; mashg'ulotlarni, o'yinlarni, bolalar faoliyatini, (nutqiy, tasviriy, mehnat)... o'tkazish metodikasini bilish;

ota-onalar bilan ishlash shakllarini va metodikalarini bilish;

«Ilk qadam» davlat o'quv dasturi to'g'risida bilimga ega bo'lish

maktabgacha ta'lim bo'yicha mhyoriy hujjatlar haqida bilimga ega bo'lish;

bolalar hayotini saqlash va sog'liqlarni mustahkamlash qoidalarini bilish;

#### **4. Ijodiy sifatlar.**

- pedagogik maxoratni takomillashtirish;

-bolalarga yangi bilimlarni ijodiy yondashgan holda o'rgatish;

- bolalar va ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlashda noanhanaviy ish shakllaridan foydalanish;

-«Ilk qadam» dasturini tadbiiq etishga ijodiy yondashish;

bolalarga pedagogik tahsir etish natijalarini ko'ra bilish;

-o'zini bolalarini o'rninga, xayotga bola ko'zi bilan qarash qobiliyati;

### **5. Xususiy pedagogik malakalar.**

- mashg'ulotlar uchun o'quv materiallarni metodik jihatdan to'g'ri tanlash malakasi;

- bolalarni o'yin faoliyatlariga rahbarlik qilish va tashkil etish malakasi;

- bolalarni mustakil faoliyatlarini tashkil etish malakasi;

- tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish malakasi;

- o'quv maqsadlarini rejalashtirish malakasi;

- o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanish malakasi;

- bolalarni mehnat faoliyatiga rahbarlik qilish malakasi;

- bolalarni o'quv faoliyatlarini tashkil eta olish malakasi;

### **6. Kasbiy malakalar.**

- maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologo-pedagogik diagnostikasini tashkil etish malakasi;

- bolalarni bilim darajalari, ko'nima va malakalarni rivojlanishini tahlil qilish malakasi

- bolalar bilan so'rov, suxbat, intervg'yu o'tkazish malakasi;

- bolalar ishlarini tahlil qilish (rasmlar, tabiiy matoriallardan yasalgan buyumlar);

- maktabgacha ta'lim muassasalari ish tajribalarini maqolalari va ilmiy metodik to'vamlarida tahlil qilish malakasi;

- ilg'or va tajribalari materiallari asosida pedagogik to'plam tashkil etish;

### **7. Tashkilotchilik malakalari.**

- bolalar jamoasini tashkil etish malakasi;

- turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqarish malakasi;

- turli xil bolalar faoliyatlarda bollarni qiziqtirish va faollashtirish malakasi;

- bolalarni turli xil faoliyatlarini tashkil etish malakasi.

Shunday qilib tarbiyachi-pedagoglarni kasbiy-tayyorgarlik, layoqatlarini asosini quyidagilar tashkil etadi:

- shaxsni kasbiy yo'nalganligi;

- pedagogik qobiliyatlar va malakalar;

- bilish faoliyati;

- shaxsni umumiy rivojlanganlik darajasi;

- shaxs xarakterini psixologik hususiyatlari.

### **2. Tarbiyachining kasbiy sifatlari**

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mahsuliyatli vazifani bajaradi.

Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun halq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashiga, ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondoshishi, o'z mahoratini doimo tokamillashtirib borish va ishdagi hamkasblarni o'sishiga ko'maklashishiga yordam beradi. Demak, yuqorida keltirilgan sifatlarini tarkib to'tirish o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash hamma tomonlarini qamrab olamaydi. Lekin tarbiyachi shularga asoslanib bolalarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash ishini ma'lum bir maqsad bilan samarali amalga oshirilishi mumkin.

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyasining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat o'qituvchi – tarbiyachi boshqa kasb egalariidan ajratib turiladi. Pedagog – tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasi chuqur bilishi bolalarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Bu pedagog – tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muxim fazilatlaridan talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi, buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi pedagog bo'la oladi. Bolaga befarq uning kelajagi va qiziqmaydigan tarbiyachilik kasbiga loqayd odam haqiqiy pedagog – tarbiyachi bo'la olmaydi. Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va engil qiladi. O'qituvchi, tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarga chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog'liqdir. Pedagogik qobiliyatlar - pedagogik mahoratiga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyatlar tarkibiga: pedagogik ko'zatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyati jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat – bu yosh avlodga Tarbiya-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san'atidir.

### 3. Tarbiyachilik kasbining axloqiy sifatлари

«Tarbiyachi-ustoz bo'lishi uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatan'arvar, haqiqiy fuqaro etib yetishishi uchun avval, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatga ega bo'lishi kerak». Demak, bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida javobgarligini taqozo etadi. Shunga ko'ra tarbiyachi bolalarga kundalik hayotga, o'yinlarga, mashg'ulotlarga, birgalikda mehnat faoliyatiga, ular bilan bo'ladigan muomilada, muloqotda ibrat, namuna bo'lishi, bolani har tomonlama diqqat bilan o'rganish, uning shaxsiy hususiyatlari, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning hulq atvori, ish natijalarini haqqoniy baholash va ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olish hamda oilaviy ahvoli bilan qiziqishi zarur hisoblanadi. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun halq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashiga, ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondoshishi, o'z mahoratini doimo tokamillashtirib borish va ishdagi hamkasblarni o'sishiga ko'maklashishiga yordam beradi. Demak, tarbiyachi avvalo bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va Maktabgacha pedagogika, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilish kerak. Har bir tarbiyachi o'ziga quyilayotgan zamonaviy talablarni his eta bilish davlatimiz va maktabgacha ta'lim muassasalari olidga qo'yilayotgan vazifalarni muvafaqqiyatli amalga oshirishining garovidir.

Bu talablar:

- bolaning sog'ligini saqlash va mustahkamlash;
- aqliy qobiliyatlarini o'stirish;
- milliy qadriyatlar ma'naviyatimizning g'oyaviy-aqliy tamoyillariga mos ehtiqod va qarashlarini tarkib to'tirish;
- Ona Vatanga muxabbatni, ijtimoiy faollikni shakllantirish;
- yosh avlodda o'rtoqlik, do'stlik hissini, xalollik va mehnatsevarlikni tarkib to'tirish, pedagog-tarbiyachi:
  - O'zbekiston Res'ublikasi Konsitutsiyasini;
  - O'zbekiston Res'ublikasi qonunlrini;
  - O'zbekiston Res'ublikasi Vazirlar maxkamasi, ta'lim muassasalarini boshqarish organlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni;
  - Bola huquqlari konventsiyasini;

- O'zbekiston Res'ubliksi «Bola huquqlari kafolatlari» to'g'risidagi qonuni;
- maktabgach pedagogika va psixologiyayosh fiziologiyasi va gigenasi;
- birinchi tibbiy yordam asoslarini);
- nutqida kamchiligi bor bolalar bilan ishlashni - defektologiyani;
- fuqorolik va mehnat qonunchiligini;
- mehnat muhofzsi va me'yorlarini;
- texnika va yong'in xavfsizligi qoidrlrini bilishi kerak.

Tarbiyachi (o'qituvchi-tarbiyachi) faoliyatining tahlili u pedagoglik faoliyatini bajarish jarayonida bajaradigan bir qator vazifalarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Tarbiyachining vazifalari deganda bajarilishi o'sib kelayotgan avlodga ta'lim-tarbiya berish maqsad hamda vazifalarga muvaffaqiyatli erishini ta'minlaydigan kasbga oid majburiyatlar majmui tushuniladi. Pedagogning vazifalari murakkab, ular bir-biriga singib, bir-biri bilan uzviy aloqada bo'ladi. Ammo kasbga oid majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o'qituvchi, tarbiyachida shakllantirilish lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar mazmunini aniqlash maqsadlarida ularning farqlash, analitik ko'rib chiqish talab etiladi.

Insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun nasl-irsiyat (inson – biologik mavjudod sifatida), ijtimoiy muhit (ijtimoiy-iqtisodiy hayot) hamda maqsadga muvofiq tashkil etilgan tarbiya va uning faoliyati kabilar ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagogik ta'lim jarayonida bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga yetishi qonuniyatlari, shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Tarbiya qonuniyatiga ko'ra shaxsning kamolga yetishi jamiyat rivojlanishidan orqada qolsa, ijtimoiy maqsadni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan bo'lsa, uni amalga oshirish qiyin.

### **Nazorat savollari:**

- 1. Maktabgacha ta'lim xodimlari shaxsiga qo'yiladigan talablar xususida nimalar deya olasiz?**
- 2. Tarbiyachilik kasbining mohiyatini gapirib bering.**
- 3. Tarbiyachining kasbiy sifatlarini sanab bering va ta'riflang**
- 4. Tarbiyachining axloqiy sifatleri qanday?**
- 5. Maktabgacha ta'lim xodimlarini tayyorlash tizimi haqida nimalarni bilasiz?**



**Bolalarda tashabbusni namoyon etish va o'zaro muloqot jarayoni; ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va vositalari, uni tashkil etishning metod va usullari.**

### **Reja**

**1.Muloqot haqida umumiy tushuncha.**

**2.Pedagogning tardiyalanuvchilar bilan o'zaro muloqot jarayoni.**

**3.Bolalarda o'zaro muloqot jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.**

### **1.Muloqot haqida umumiy tushuncha.**

Muloqot – yunoncha so'z, so'zlashuv, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr olishuv, ogzaki nutq shakli ikki yoki undan ortiq shaxslarning so'zlashuvidir.

Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir - birlariga nimanidir aytish istagi tug'iladi. Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir.

Har bir kishining o'z "Meni" atrofdegilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi, Shaxsning hayot yo'llari avval oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya'ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Pedagogik muloqot - bu muloqot turlaridan biri bo'lib, pedagogic faoliyatda muhim o'rin tutadi. Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar.

L. S. Vigotskiy, A. N. Leont'ev, A.R. Luriya, D.B.El'konin, A. Zaporjets, M. I.Lisina tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporjets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

- 1) e'tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi;
- 2) kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;
- 3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug'iladi;
- 4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdegilar bilan o'zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Xullas, inson o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatlarini o'zlashtirilayotgan davrda ba'zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamqorlik fazilatida ma'lum yutuqlarga erishadi:

## **2. Pedagogning tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro muloqot jarayoni.**

Bolalar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun pedagog so'zlashishni, muloqot olib borishni doimo o'rganib borishi lozim. U bolalar bilan faoliyatni samarali olib borishni, so'zlashishni bilishi, suhbat, hikoya kilish kabi usullardan foydalanishi, umuman butun ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'ya olishi lozim.

Pedagogik muloqot - pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab bo'lgan o'zaro tarbiya jarayoni. Bu muloqot jarayonida ishtirokchilarni hamkorlikda ishlashi, bir-birlariga yordam berishi, harakatlarni o'zaro muvofiqligiga erishish kabilar samarali natijalar beradi. Pedagogik muloqotning unumli o'tishi pedagogik-psixologik mahoratga bog'liqdir.

Pedagog bilan bolalar o'rtasidagi muloqot samarali bo'lishi uchun unda yetarli darajada qobiliyat bo'lishi kerak hamda o'z - o'ziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak:

a) ilm - fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish;

b) malaka, ko'nikma va qobiliyatni shakllantirish;

v) O'yin mashg'ulotlarda integratsiya, bog'liklikni amalga oshirish;

g) o'quv mazmunini tushunarli tizim asosida qurish.

Kimni o'rgatish:

a) bolalarni ba'zi psixik xususiyatlarini (eslab qolish, nutqi, fikrlash...) hamda ularni qay darajada o'qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash;

b) bolalarning bir darajadan ikkinchisiga o'tishdagi qiyinchiliklarini oldindan aniqlash;

v) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalarning dalillar keltirishini, fikrlarini xisobga olish;

g) bolalarlardagi turli psixik o'zgarishlar va rivojlanishni xisobga olib, o'z pedagogik mehnatini tashkil etish;

d) iqtidorli bolalar bilan ham ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish.

Qanday o'rgatish:

a) ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyalashning turli usullari majmuini ishlatish.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari, bu talab, rag'batlantirish jamoatchilik fikri.

Rag'batlantirish va jazolash-bolalarni xulq-atvoriga kuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning noma'qul xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi.

Jamoatchilik fikri – tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy-foydali faoliyatini g'oyat har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borishni ta'minlaydi.

Talab-pedagogik ta'sir ko'rsatishning boshlang'ich usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilarda o'ziga nisbatan mas'uliyat va talabchanlikni rag'batlantirishda alohida vazifani bajaradi.

O'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish vositalari: ishontirish, ta'sir qilish, o'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish.

Ishontirish pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida o'yin masshg'ulotlarda ijodiy suhbatlar, munozaralar shaklida qo'llaniladi. Tarbiyaviy ishda guruh va yakka suhbatlar, munozaralar shaklida qo'llaniladi.

Ta'sir qildirish kishi psixikasiga nazoratsiz kirib, uning faoliyatida xatti-harakatlar, sabablar, intilishlar bilan amalga oshiriladi. Ta'sir qilish-shunday bir psixik ta'sir ko'rsatishki, kishi uni ongining etarli nazoratsiz idrok etadi.

a) Pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va umumlashtirish, usullarni qo'yish;

b) Bolalarga yakka individual xolda munosabatda bo'lish, ularni ijodiy ishlarini tashkil etish.

Pedagog bolalar bilan bo'ladigan muloqotida quyidagi malakalarni egallagan bo'lishi lozim:

- tashqi qiyofani nazorat qilish nutqni egallashi;
- pedagogik munosabat madaniyatini egallashi;
- tashkilotchilik mahorati, o'quv tarbiya jarayonini boshqarish uslublarini egallashi.

### **Munosabatlarni boshqarish usublari:**

1. Avtoritar uslub.
2. Demokratik uslub.
3. Liberal uslub.

#### **1. Avtoritar uslub.**

- Avtoritar o'zi yakka xolda guruh faoliyatini yunalishini belgilaydi.

- O'zi ko'rsatma-buyruq beradi.
- Javobgarlikni o'z buyniga oladi.
- So'zsiz bo'ysunishni da'vo etadi.
- Qattiq intizomni talab etadi.
- Aytilgan narsani to'liq bajarilishini talab etadi.

Muloqotga kirishishning asosiy shakllari: buyruq, ko'rsatma berish, qo'llanma bilan ishlash, xayfsan e'lon qilish.

Muomalada qo'pol, dag'al, do'q-po'pisali, majbur etish, qo'rqitish, cho'chitish orqali kirishadi. Uslubning ijobiy tomoni favqulotda vaziyatlar ishlatilishi (yong'inda, suv toshqinida).

## **2. Demokratik uslub.**

- Jamoa fikriga tayanib ish olib boradi.
- Jamoa fikrini, tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, boshqalar fikriga hurmat bilan qaraydi.
- Boshqalar fikrini o'ziniki qilib oladi.

## **3. Liberal uslub.**

• Tashabbusiz jamoa ishiga aralashmaydi, hamma masalalarni yuzaki qarab chiqadi. O'zining fikri yo'q, javobgarlikdan o'zini chetlatadi. Ish natijasi bilan qiziqmaydi.

- O'quvchilarga etiborsizlik bilan, beg'am qaraydi.
- O'z ishiga sovuqqonlik bilan qaraydi.
- qo'rquv orqali munosabat- dialog va monolog.

## **3. Bolalarda o'zaro muloqot jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.**

Bolaning rivojlanishida uning boshqa bolalar bilan bo'ladigan muloqati muhim ahamiyatga egadir. Tengdoshlariga bo'lgan qiziqishlari bolada kattalarga bo'lgan qiziqishidan biroz keyinroq bir yoshning oxirlarida paydo bo'ladi, biroq u borgan sayin, ayniqsa, bog'cha yoshi davrida mustahkamlanib boradi.

4-5 yoshli bola uchun eng og'ir jazo - bu uni o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishidan maxrum etishdir. Bolalar guruhiga tushib qolgan davrdan boshlab bolaning individual rivojlanishini uning "bolalar jamiyati" a'zolari bilan bo'lgan munosabatlarini hisobga olmay ko'rib chiqish va o'rganish mumkin emas.

Y.A.A.Kamenskiy bog'cha yoshidagi bolalar guruhini odamlar ijtimoiy birligining ilk pog'onasi, "kurtagi" deb hisoblaydi. Bolalar o'z tengdoshlari jamoasiga intiladilar. Biroq, har doim hamular tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishga erishavermaydilar. Ba'zi bolalar guruhda ancha faol bo'lib, o'zlarini go'yo "suvdagi baliqday" his etadilar. Ayrimlari anchagina noqulaylikni, o'zlariga nisbatan ishonchsizlikni, boshqalarga tobelikni his etadilar. Nega shunday? Tengdoshlar bilan bo'lgadigan ijobiy munosabatlar bolada birdamlik hissini kuchaytirib, uning guruhga qattiq bog'lanib qolishiga sabab bo'ladi. Biroq, ijobiy munosabatlarning yo'qligi bolani tushkunlika solib, uni xavotirlanuvchi yoki agressiv qilib qo'yishi mumkii. Bu esa unda bolalarga, umuman, odamlarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishi, ularni yakkalanuvchanlikka moyil qilib qo'yishi ham mumkin.

Ko'p bolali oilalarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola shaxsining rivojlanishiga aka-ukalari, opa - singillar ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aka-ukalar va opa - singillar bolaga eng yaqin bo'lgan mikromuhit tarkibiga kirib, unda markaziy o'rinni egallaydi. Ba'zi tadqiqotchilar, hatto, shunday fikrdaki, oila azolarining soni ko'paygan sari bolalarga ota-onaning ta'siri susayib, aka-ukalar opa-singillar ta'siri kuchayib boradi. Katta akalari va opalari davrasida bola o'zini emotsional himoyalanganday his qiladi. Aka-opalar esa o'zlarini mehribonlik his-tuyg'ularini, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular o'rtasida bola o'zining tashvishlari, qiziqishlari bilan o'rtoqlashishi mumkin.

Akalaru, opalar esa uning ehtiyojlari, jumladan, muloqotda bo'lish ehtiyojini qondirishlari mumkin. Demak bog'cha yoshdagi bolalarning boshqa bolalar bilan bo'lgan ancha murakkab va xilma-xil munosabat turlari shakllanadi va ana shu munosabatlar ma'lum miqdorda uning shaxs shakllanishini belgilab beradi. O'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishiga qiynalayotgan, muloqotda bo'lish ehtiyoji etarlicha shakllanmagan bolalarning tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlarini faollashtirmaslik lozim. YAxshisi, dastlab umumiy qiziqishlarga ega bo'lgan 1- 2 ta sherikni topish, keyinchalik asta-sekin muloqot doirasini kengaytirib borish maqsadga muvofiqdir. Bolalarda noto'g'ri shakllanib ulgurgan muloqot motivlarini qaytadan qurish avvalo, boshqalarning fikri bilan hisoblashishga o'rgatish ancha foydalidir.

Kattalarning bog'cha yoshidagi bola shaxsi shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri bolaning boshqa faoliyatlari masalan, rasm chizish, turli narsalar yasashi, applikatsiyalar tayyorlashi, o'quv vazifalarini bajarishi vaqtida ham amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatlarni bajarishi davrida bolalarda kattalar va tengdoshlari tomonidan ijobiy bahoga sazovor bo'ladigan narsani yaratishga yo'nalganlik qaror topadi, ijtimoiy yo'nalganlik shakllanib boradi, bilish motivlari va boshqa shaxsiy xususiyatlari tarkib topib boradi.

**Maktabgacha yoshdagi bolaning yutuqlarini baholash vositasi sifatida pedagogik diagnostika. "Pedagogik diagnostika" tushunchasi. Kognitiv-nutq rivojlanishining diagnostikasi. Ijtimoiy-shaxsiy rivojlanish diagnostikasi.**

**Badiiy va estetik rivojlanishning diagnostikasi. Jismoniy rivojlanish diagnostikasi.**

### **Reja**

- 1. Pedagogik diagnostikaning rivojlanish bosqichlari va uning tamoyillari**
- 2. Pedagogik diagnostika, uning maqsadi va vazifalari**
- 3. Shaxsning shakllanishi va taraqqiyotida pedagogik diagnostikaning tutgan o'рни**
- 4. Shaxsning rivojlanishida diagnostik tadqiqotlarni tashkil qilish va o'tkazishga pedagogik yondashuv**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohoti "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'zining ilmiy-nazariy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqiy ifodasini topgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining" maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir". Bu vazifani bajarish ta'lim jarayoni, uning mazmuni, shakl va metodlarini tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotiga yangicha qaraydigan mustaqil fikrlovchi, ishbilarmon, buyuk kelajak poydevorini quruvchi yoshlarni tarbiyalash respublikamiz pedagoglari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ta'lim islohoti jarayonida bu ulkan vazifani to'la amalga oshiradigan, zamonaviy va jahonning eng ilg'or ta'lim texnologiyalardan mohirona foydalana oladigan pedagog kadrlarga ehtiyoj har qachongidan ortdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 80 yillargacha, «Pedagogik diagnostika» atamasi asosan maqolalarda, turli tezislar yoki kam tirajli to'plamlarda uchraydigan, 80 yildan boshlab esa, shu vaqtgacha pedagogika va psixologiya fanlarining hamkorlik sohasi sifatida shakllanib, rivojlanib kelayotgan, ko'pchilik alohida bilim va tajriba sohasi, deb qaramayotgan bu soha eng dolzarb sohalardan biriga aylanmoqda. Chet ellarda bu sohada olib borilgan va rus tiliga tarjima qilinib, o'zbek mutaxassislari ham tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan ishlardan K.Ingenkampning 1991 yilda bosmadan chiqqan «Pedagogik diagnostika» (muallifning yozishicha pedagogik diagnostika atamasi u tomonidan 1968 y. taklif qilingan va kiritilgan) asarida ancha keng yoritilgan. Diagnostik faoliyat o'z maqsadiga ko'ra tashhis (diagnoz) yo'nalishining turli ko'rinishlariga ega bo'ladi. Qo'yilgan tashhis o'rganilayotgan

xususiyatlarni shakllantirishga yoki korreksion ishlarni tashkil etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan ifodalanadi. Shunday qilib, diagnostika yorqin namoyon bo'luvchi individualpsixologik, psixofiziologik xususiyatlar asosida olingan ma'lumotlarni taqqoslash bilan alohida kishi yoki ma'lum shaxslar guruhi borasida xulosa chiqarish demakdir. Bolalar bog'chasidagi bolalarning qobiliyat va layoqatlarini har tamonlama rivojlantirishga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogika jarayonining mahsuldorligi pedagogning o'z tarbiyachilarini yaxshi bilishga, tali va tarbiyaning xilmail metodlarini qo'llashga bog'liq harakat qiladilar. Bolalarning bunday holatlari chegara holatlari sifatida, psixik taraqqiyot kamchiligi sifatida shaxs aksentuatsiyasining turli ko'rinishi sifatida tasniflanishi mumkin. Ularni aniqlash uchun bolalar psixologiyasi, klinik potopsixologiya va psixiatriya kabi sohalaridagi bilimlar talab qilinadi. Bundan tashqari tarbiyachiga qarovsizlik kabi muammolarni hal qilishga to'g'ri keladi.

Zamonaviy pedagogik diagnostika o'quvchilarning atrof-muhitga munosabatini baholash uchun bir qator metodikalardan foydalanishni, sh jumladan, sinfdagi o'rtoqlariga nisbatan emotsional xayrixohlikni, bolalar jamoasining yetukligini va shular asosida mazkur sinfda tarbiya dasturlari tuzishni ko'zda tutadi. Shunday qilib, sinf rahbari tomonidan mavjud metodikalar asosida o'quvchilarni o'rganish va metodik apparatning keyingi rivoji yagona maqsad emas, balki jamoa rivojlanishining omili hisoblanadi. Hozirgi sharoitda o'quvchilar jamoasidagi o'quv-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishning muhim yo'li uni pedagogik diagnostika asosiga qurish hisoblanadi. Afsuski, maktab amaliyotida diagnostika ko'p hollarda ichdan his etish orqali yoki sinf jamoasida kechayotgan xilma-xil jarayonlarni hisobga olmaslik yo'li bilan amalga oshirilmoqda. Bu bolalarni yuzaki o'rganishga, barcha pedagogik ustanovkalarning (mazmun, shakllar, metodlar, o'zaro ta'sir vositalarining) hozirgi o'quvchilarning individual xususiyatlari o'sib borayotgan bir paytda o'rtamiyona bo'lib qolishiga olib kelmoqda. Hozirgi paytda pedagogik diagnostika instrument bo'lib qolishi kerakki, uning yordamida pedagoglar o'zlarining pedagogik, psixologik va metodik rejalarini amalga oshirish yo'llarini aniq belgilab oladi, ta'lim-tarbiya sohasida yangi bilimlarga ega bo'ladi va fanda hal etilmagan yoki qisman hal etilgan masalalarga duch kelishga tayyor turadi. sifatida tan olmasdan iloj yo'q. Pedagoglar bolalarni bilishi, rejalashtirilgan o'quv-tarbiyaviy jarayonga diagnostik komponentni kiritishi bilan amalga oshiradi. Diagnostika o'quvchilardan sinfdoshlarga nisbatan munosabatlarni aniqlash uchun metodika asosida test olishni ko'zda tutadi. Bu esa korreksiyaning individual choralarni ishlab chiqish uchun zarur. Jamoani, shaxslararo munosabatlarni, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish muammosi, sinf tuzilmasida "yulduzlar" va "ajratib

qo'yilganlar"ni aniqlash birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Aynan shaxslararo muloqot xarakteri ko'p hollarda o'quvchilarning o'z o'qishiga, baholariga munosabatini belgilaydi. Demak, diagnostika – bu o'sib kelayotgan odamning mikromuhit bilan munosabatlaridagi muammolarni aniqlash. Diagnostika pedagogik jarayonni gumanizatsiyalash dasturiga kiritilgan. Diagnostik faoliyatning maqsadi o'qituvchiga pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va baholash mezonlarini belgilashga, muammolarni oson hal qilish yo'llarini aniqlashga, o'quvchilarning faoliyatini boshqarishga va o'zining kasbiy faoliyatini tuzatishga, pedagogik o'zaro ta'sir samaradorligini baholashga imkon beruvchi yaxlit axborotni aniqlashdan iborat. Pedagogik diagnostika – pedagog shaxsi va u bilan muloqotga kirishuvchilarni pedagogik tizim natijalarini tahlil qilish va tavsiyalar berish jarayoni. O'zining ish faoliyatida integral pedagogik diagnostikadan foydalangan o'qituvchi zudlik bilan hal etilishni talab qilayotgan va ayni paytda bir necha muddatga ortga surilgao'quv-tarbiyaviy vazifalarni uddalash imkoniga ega bo'ladi. O'zi ishlayotgan sinf jamoasini to'liq o'rganish o'qituvchi uchun muhim hisoblanadi. Bolalar jamoasini o'rganayotgan o'qituvchi quyidagi vazifalarni hal etadi: jamoaning o'sib borishi haqida to'liq ma'lumot olish, jamoaning o'sish darajasi o'zgarib borishiga mos holda pedagog tomonidan o'z ishining mazmuni, shakli, metodi va uslubini pedagogik asoslangan holda tuzatib borish, jamoaning rivojlanish darajasini baholash uchun integral diagnostika metodini egallash zarur. Har qanday psixologik-pedagogik diagnostika shaxsning kechagi yoki bugungi kundagi rivojlanish darajasini, o'quv jarayonining tashkil qilinganlik darajasini ko'rsatib berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Diagnostik jarayonida o'rganilayotgan ob'ektning kelajagi, ertangi kuni ham taraqqiyot tendensiyalari, ham ma'lum omillar ta'sirining oqibatlarini ochib berilishi kerak. Shu holdagina prognoz mohiyatidan kelib chiqqan holda ta'limtarbiya jarayonida yo'l qo'yilayotgan xatolar, shaxs taraqqiyotidagi ko'zga tashlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, to'g'ri yo'lga solish imkoniga ega bo'lamiz. Shu sababli psixologik-pedagogik diagnostika metodlarining prognostik bo'lishi eng muhim talablardan biridir. Pedagogik diagnostika sohasidagi nazariy-metodik ishlarning yo'nalishlari avvalambor psixologik amaliyot talablari asosida belgilanadi. Ushbu talablarga muvofiq usullarning maxsus kompleksi shakllanadi.

Psixologik pedagogik diagnostikaning rivojlanib kelayotgan fan tarmog'i ekanligi, uning amaliy va dolzarbligi bilan bir vaqtda bu sohani aniq chegaralari, boshqa fanlardan farqi va o'ziga xos xususiyatlari hozircha to'liq tarkib topmaganligini ko'rsatib o'tish lozim. Pedagogik diagnostikaning asosiy yo'nalishlari pedagogik amaliyotning talab darajasidan kelib chiqqan holda shakllanmoqda. Shu sababli ham uning yo'nalishlarini bu yo'nalishlarning



mohiyatini psixologik-pedagogik diagnostika pedagogik amaliyotning qaysi sohalarida qo'llanilishini ko'rsatmasdan turib to'liq ochib berib bo'lmaydi.

**Tadqiqot maqsadi:** pedagogik diagnostika va uning o'quv-tarbiya jarayoni Samaradorligini ta'minlashdagi rolini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va mavzuning dolzarbligini aniqlash.

**Tadqiqot ob'ekti:** o'quvtarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashda pedagogik Diagnostika rolini aniqlash jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** pedagogik diagnostika va uning o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashdagi imkoniyatlari, pedagogik shart-sharoitlari va omillari.

**Tadqiqotning vazifalari:**

1. Mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan dolzarbligini asoslash.
2. Pedagogik diagnostikaning rivojlanish tarixini yoritish va uning shaxs rivojlanishidagi o'rnini aniqlash.
3. O'quvtarbiya jarayonida diagnostik tadqiqot metodlaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash.
4. Shaxslararo munosabatlarda pedagogik diagnostikaning tutgan o'rnini asoslash.

**Tadqiqot metodlari:** adabiyotlarni o'rganish, pedagogik tahlil, kuzatish, qiyosiy tahlil, savol-javob, suhbat, umumlashtirish.

**Tadqiqotning metodologik asoslari:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim tizimini isloh qilish, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashga oid qarashlari, Hukumat qarorlari, ilg'or pedagogik tajribalar.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi:** ish kirish, 2 bob, 4 bo'lim, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib, jami 67 sahifani tashkil qiladi.

**Pedagogik diagnostikaning rivojlanish bosqichlari va uning tamoyillari**

Pedagogik diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda, katta ahamiyatga ega bo'lib, ilg'or ta'lim muassasalarida bu ish uslubi muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Yutuq, mustaqhamlalanib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlar tahlil qilish asosida bosh strategik yo'nalishlari belgilab olinmoqda va yuqori darajadagi pirovard natijalar qo'lga kiritilmoqda. Taniqli pedagogik olim Matserman pedagogik diagnostikani «o'quvchi o'zlashtirishi bilan, o'quv materialarini to'g'ri tanlash, maqsadn to'g'ri yo'naltirish mezonidir» deb hisoblaydi. Shu boisdan ham, pedagogik diagnostika

birinchidan, o'quvchiga individual ta'lim berishni jadallashtiradi, 2 chidan, davlat va jamiyatni ta'limga qo'ygan talablaridan kelib chiqib o'quvchi bilimini to'g'ri adolatli baholashni ta'minlaydi, 3 chidanig'chm ta'limiy mezon, kriteriyalar orqali o'quvchini sinfdan - sinfga o'tishida, mutaxassislikka qabul qilishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi. Pedagogik diagnostika yordamida ta'lim - tarbiya jarayoni to'g'ri tahlil etiladi va uning samaradorligi to'g'ri baholanadi. Pedagogik diagnostika muhim ahamiyatga ega. U o'quv tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilgan samalarni xolislik bilan belgilab beradi, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga yo'l ochadi, pirovard natijada ta'limning takomillashib borishiga ijobiy ta'siri qiladi. Pedagogik diagnostikani eng muhim kriteriyalar esa:

1. Xaqqoniylik.
2. Ishonchlilik.
3. Puxtalik.

Maktab ta'lim - tarbiya jarayonining hamma sohasida muntazamlilik va izchillik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maktab o'quv predmetlarining muntazamliligi ustida gap borar ekan uni fan va fanni o'rganish tizimidan farq qilish lozim. Fan va uni o'rganish tizimi o'ziga xos ko'p qirrali, chuqur va murakkab hodisalarni o'z ichiga oladi. Uni o'quv predmetlari esa predmetlarni o'rganish tizimiga tatbiq etib bo'lmaydi, bumumkinham emas. Shunday bo'lishiga qaramay bu ikki tizim o'rtasida umumiylik, birlik va muayyan ichki mantiqiy bog'lanishlar mavjuddir. Shunga ko'ra maktab o'quv predmetlarini muntazam bayon qilish bir qator didaktik qoidalarga amal qiladi, ya'ni bir tomondan umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan predmetlar ma'lum fan tizimi bilan o'zaro mustahkam, ilmiy va mantiqiy bog'lanishlarga ega bo'lishi nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, izchil muntazam o'qitilayotgan predmetlar orqali o'quvchilarning bilish qobiliyati, o'zlashtirish darajasi va ularni ijodiy kuchlarini rivojlantirib boorish nazarda tutiladi. Buning uchun maktab ta'limi jarayoni muntazamlilik qoidasi - printsipining quyidagi qoidalariga rioya qilishi lozim, ya'ni o'tilayotgan predmet yoki bayon qilinayotgan yangi materialning o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan ilmiy bilimlari, ko'nikma va malakalari bilan izchil va uzviy bog'lanishi, shu bilan bir vaqtda o'qitilayotgan predmet yoki o'quv materiallarini o'zlashtirish orqali kelajakda yangi predmet yoki yangi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek navbatdagi ta'lim bosqichiga o'tish uchun zamin yaratilishi nazarda tutilmog' ilozim. O'qituvchi kundalik o'quv materiallarini bayon qilishda muntazamlilik qoidasiga muvofiq dars o'tadi Bunda:

1) yangidan bayon qilinayotgan o'quv materialining oldindan o'zlashtirilgan materiallar bilan izchil bog'lanishini ta'ninlash va shu orqali o'quvchilarda hosil qilingan tasavvur - va tushunchalarni kengaytirish hamda chuqurlashtirish;

2) bayon qilinayotgan o'quv materiallarining hajmiga muvofiq suratda qismlarga bo'lish undagi yetakchi bosh masalalarni ajratish, qismlardan kelib chiqadigan umumiy tushunchalarni aniq va ravshan qilib o'qitish;

3) yangi materialni bayon qilish jarayonida o'quvchilarni mustaqil mantiqiy fikr qilishga da'vat etish, shuningdek ijodiy urinishlarni tarbiyalash kabilar nazarda tutilmog'i lozim. Shu bilan birga ta'limning muntazamlilik printsipti bayon qilinayotgan o'quv materiallarini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga hizmat qilishi, o'quvchilarning uzluksiz va izchil suratda mustaqil ish olib borishlarini: o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil qilgan ko'nikma va malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi. Ta'limning muntazamliligi uning izchil bo'lishi bilan bog'liqdir. Izchillik asoslangan ta'limning karakterli belgisi shundaki, u o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilim va malakalari zamirida yangi bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish. Ularniig o'zaro bog'lanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida oldin o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yana ham chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamligini ta'minlashga qaratilgandir. Ya.A.Komenskiy «izchillikka rioya qilib o'qitish lozim, toki bugun, o'rganilgan ilmlar kecha o'rganilganlarni mustahkamlasin, erta o'rganiladiganlarga zaminhozirlasin»deganedi. Ta'limda bilimlarni puxta va mustahkam o'zlashtirish prinsipi. Ma'lumki, puxta o'zlashtirishning karakterli belgisi mustahkam esda saqlab qolishdir. boshqacha qilib aytganda, bu printsipt o'quvchilarning xotira faoliyati, ya'ni o'quv materiallarini esda qoldirish, esda saqlash va qayta esga tushurish kabixotira jarayoni faoliyatiga bog'liqdir. O'quv materiallarini mustahkam esda saqlab qolish ayni dars jarayonida bayon qilinayotgan o'quv materiallarini sistemali va ongli o'zlashtirishlariga bog'liq biroq puxta o'zlashtirishning muvaffaqiyati esa ko'p jihatdan takrorlash va mashq qildirishga bog'liqdir. Takrorlash va mashq qildirishning mustaqil va alohida - alohida o'qitish metodi sifatida ishlatiladigan usul va vositalarining turi xilma - xildir. Biroq gap puxta o'zlashtirishning didaktik asoslari ustida borar ekan, takrorlashning bilimlarni xotirada saqlab qolishdagi ahamiyatini ko'rib o'tish maqsadgamuvofiqdir. Takrorlashning ahamiyati shundaki, takrorlash jorayonida faqat oldindan o'zlashtirilgan o'quv materiallarigina esga tushirilmay, balki shu o'quv materiallariga bog'liq bo'lgan yangi yangi ma'lumotlar ham berildi. O'zlashtirilgan bilimlarning noaniq, tumanli bo'lib qolgan tomonlari oydinlashtiriladi va to'ldiriladi. Bolaoar tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni har

tomonlarni egallash orqali tushunishga, mustaqil hayotga tayyorlanadilar va ma'lumotli kishilar bo'lib yetishadilar. O'zlashtirilgan bilimlarning, o'quv materialining qanday egallanganligini bilish o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda o'qituvchi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'z vaqtida tekshiradi, hisobga oladi va baholab beradi. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash o'quv jarayonining eng muhim va zaruriy qismlaridan bo'lib, u 3 asosiy vazifani bajaradi:

a) bolalar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarni nazorat qilish;

b) bilimlarning sifatini aniqlash;

v) o'quv dasturida belgilangan materiallarni ongli, izchil va mustahkam o'zlashtirib olishga undash. Bu masalalar ta'limiy ahamiyatga molikdir. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash jarayonida o'quvchilar o'qishga ongli munosabatda bo'lishga, izchil ishlashga, ongli intizomga, qiyinchiliklarni yengish, o'zida irodaviy sifatlarni o'stirishga, o'ziga hamda boshqalarga nisbatan talabchan bo'lishga o'rgatib boradi. Bu masalalar esa katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Uquvchilar bilimni tekshirish bolalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimning sifatini aniqlash, ularni o'quv dasturida belgilangan materiallarni izchil va puxta o'zlashtirib olishgada'vat etishvositasidir. O'qituvchi bilimlarni tekshirish orqali o'quvchining o'quv materialini qanday idrok etib tushunganligini qanday fikr yuritayotganligini, dasturda belgilangan o'quv materiallarini qay darajada umumlashtirib olganligini aniqlaydi hamda keyingi o'quv materiallarini o'rganish ta'lim sifatini yaxshilash yo'llarini belgilaydi. Shu bilan birga o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini o'rganish va tekshirish ularning o'qishga bo'lgan munosabatini, tirishqoqligini, ziga talabchanligini, bilimga, era bo'lgan qiziqishini bilishga imkon beradi.

Shuningdek, bolalarning xotirasi, bilish qobiliyatining qay darajada o'sganligi, ularning mustaqil ishlashga ko'nikma va malakalarni qay darajada egallaganliklari aniqlanadi. Tekshirish vaqtida o'quv materiallari esga olinadi va o'quvchilarni sezish, idpok qilish, fikrlash qobiliyatlari ham o'sib boradi. Bu jarayonda o'quvchilar keng fikr yuritishga, o'quv materiallarini asoslashga, mulohaza yuritish, isbotlashga o'rganadilar. Uquvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishning yana bir muhim tomoni shundaki, ana shu jarayonda o'quvchilarning bilimlari va bajargan ishlaridagi kamchiliklar sezilib qoladi va nihoyat mazkur kamchiliklarning sabablari aniqlanadi. kamchiliklarni bartaraf etish choralari belgilanadi. Bilimni tekshirish va baholash darsning barcha qismlariga singib ketadi. Shunday ekan, o'quvchi bilimidagi kamchiliklarni -to'ldirishga o'rganilayotgan masalaning asl mohiyatini anglashga yordam beradi va

o'rganilayotgan materialni tushunishga keng imkoniyat yaratadi. O'quvchilarning bilim. ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholash jarayonida o'qituvchi ayrim o'quvchilarga va butun sinf jamoasi izchil ta'sir etadi. Individual ishni sinf jamoasi ishi bilan qo'shib olib boradi. Tajribali o'qituvchilar o'quvchi bilimni baholash jarayonida sinf jamoasi fikriga suyanadilar va o'quvchilarga tarbiya tarbiyaviy ta'sir etadilar. Bunda o'qituvchi sinf o'quvchilari diqqatini faollashtiradi. O'rtoqlarining javobiga ma'suliyat bilan qarashga o'pgatadi. Shuningdek o'z bilimlarini mustahkamlashga, o'z bilimiga tanqidiy qarashga odatlantiradi. Bu esa o'quvchini o'z vaqtida vijdonli, rostgo'y bo'lishga o'rgatadi. Uqituvchi bilimga baho qo'yish vaqtida o'quvchining materialni o'zlashtirish saviyasi, bola tafakkurining o'sish darajasi, zehning rivojlanishi kabi xususiyatlarni hisobga oladi: o'quvchilarning ishlash surati qobiliyati, o'qishga ishtiyoqi, nutqning o'sish darajasi o'rganiladi shuningdek, ayrim o'quvchilarda uchraydigan qo'rqqoqlik, uyatchanlik, tortinchoqlik o'z kuchga ortiqcha baho berish, ishonmaslik, shoshqaloqlik, kamgaplik kabi xususiyatlari bartaraf etiladi. Buning natijasida ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining uyg'unligi ta'minlanadi. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilarda o'qishga o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabat shakllanadi, qiyinchiliklarniyengish istagi tug'iladi. Baho unda ham o'quvchi sifatida baxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni xosil qiladi. O'quvchining o'ziga nisbatan bu munosabatni bu tuyg'ularini o'qituvchi uning hatti harakatlaridagi irodalilik, jamoatchilik o'zaro bir – biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishborasida ustalikbilan ishlatadi. O'quvchi o'rtoklarining, ota onalarining unga, uning maktabdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklarga munosabatiga xech qachon befarq bo'lib qolmaydi. Ug bilimlariga berilgan kundalik daftariga qo'yilgan baxolar uning munosabatni belgilaydi mana shuning uchun ham maqtov, ma'qulla tanbeh berish yaxshi yoki yomon baho qo'yish o'quvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasida va katta yoshda ular orasidagi mavqeini shakllantiradi. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga egadir.

Kimki bilimlarni tekshirish va baholashning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri qo'llay bilsa, hap 6ir o'quvchi oldida o'qish sohasida qulay istiqbollarni ochib beradi. Bilimlarni tekshirish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Xalq ta'limi tashkilotlari o'quv faoliyatini tekshirish natijalariga maktab o'quvchilari olgan bilimlar, ko'nikma va malakalarning baxosiga binoan maktablar, o'qituvchilar jamoalarining ishi haqida, o'quvchilarning o'zlashtirishi haqida xulosa chiqaradilar. Bilimlarni tekshirishga qo'yiladigan talabalar. Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Bu talabga rioya etilmasa,

o'quvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga sal'biy ta'sir qiladi. Maktab o'quvchilari darsga har kuni tayyorlanib borishlari kerak. O'quvchilarni doimiy ravishda nazarot qilib tekshirish shunga majbur etiladi. Har bip o'quvchi uning bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotgini tushunish kerak. Uning o'rtoqlaridan birortasi ham u bilan na yaxshi na yomon bahoni baham ko'pa olmaydi. O'qituvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayergarlik holati bilimlarni, tekshirish va baholash, o'quv jarayonining muhim bir bo'lagiga aylangan. Maktab o'quvchilarining bilimlari, ko'nikma va malakalari davlat o'quv dasturlarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi. Dasturlar mazmunini o'zlashtirish sifati - bilimlarni baholashda asosiy mezondir. O'qituvchi o'quvchining qanday qo'shimcha bilimlarga ega ekanligini, qanday qo'shimcha adabiyotlarni o'qishini bilishi kerak, ammo buning uchun baho qo'ymaslik kerak. Maslahatlar, tavsiyalar, yo'riqnomalar bilan yordam berishning o'zi kifoya qiladi. Maktab o'quvchilarining nazariy va faktik materialni o'zlashtirib olganliklarini tekshirish chog'ida olinayotgan bilimlar o'quvchilarning umumiy va aqliy jihatdan rivojlanishiga shaxsiy fazilatlarining shakllanishiga, maktab o'quvchisining o'qishga munosabatiga ta'sirini ko'ra bilish kerak.

Bilimlarni tekshirish o'qituvchi maktab o'quvchisining rivojlanish jarayonini shaxsning aqliy, ahloqiy, emotsional va irodaviy fazilatlarining shakllanish jarayonini ko'z oldiga keltirishga yordam beradi. Uqituvchi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholashda juda adolatli, haqqoniy bo'lishi lozim. Bu hol o'z navbatida o'quvchi shaxsigaijobiy va tarbiyaviy ta'sir etadi. Har qanday adolatsizlik o'qituvchining bilimiga baho qo'yishdagi xatosi o'quvchilarga salbiy ta'sir etadi, ularda o'z kuchiga ishonchni yo'qotadi, 'qishga bo'lgan ishtiyogini so'ndiradi.

Oqibatda o'qituvchining tarbiyaviy ta'siriga putur yetadi. O'qituvchi o'quvchining bilimini har qanday holda ham to'g'ri baholashi kerak. Faqat o'ylab, xaqqoniy qo'yilgan bahogina o'quvchilarga ijobiy ta'sir etadi, ularni ma'naviy qanoatlantiradi. O'qituvchining sinfdagi xatti - harakati, savolning o'ylangan bo'lishi va to'g'ri qo'yilishi, bilimni tekshirish va baholashda qulay vaziyat yaratilishi bahoning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi. O'qituvchi bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholashda o'quvchi javobini tahlil qilib boradi va javoblar yuzasida o'z muloxazalarini aytadai. O'quvchi javob berayotganida qanday hatoliklarga yo'l qo'ygani ko'pincha uning o'zi sezmaydi. Bunday holda o'qituvchi o'quvchining javobini qisqacha tahlil qilib borishi talab qiladi. Bunda o'qituvchi qo'ygan bahoning to'g'riligiga o'quvchida shubxa qolmaydi. O'quvchi o'z bilimida qanday yutuq yoki kamchilik borligini nima uchun uning bahosi

oshijzilgini yoki pasaytirilganini anglagandagina qo'yilgan baho rag'batlantiruvchi rol o'ynashi mumkin.

O'quvchi o'z xatosini to'la tushungandagina uni to'g'rilashga ongli ravishda intiladi. O'qituvchi o'quvchi bilimini ball bilek baholar ekan, erishgan yutug'i uchun rag'batlantiradi, kamchiliklarni qayd qilib koyiydi. Yo'l qo'ygan xato - kamchiliklarini qanday bartaraf etish yo'llarini, dars tayyorlash vaqtida asosiy e'tiborni nimalarga qaratish kerakligini ko'rsatadi. Bunday asoslash o'quvchining bundan keyingi faoliyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishning quyidagi turlari mavjud. Kundalik tekshirish, mavzu bo'yicha tekshirish va yakuniy tekshirish, Kundalik tekshirish maktablarimizda o'quvchilar bilimini hisobga olishda ko'p qo'llaniladigan tekshirish turidip. Bu bilan o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish, ularni o'qishdagi muvaffaqiyati to'g'risida dastlabki tasavvur hosil qilinadi. O'qituvchi o'quvchilarning darsga tayyorgarligini yangi materialni o'zlashtirishini har darsda tekshirib boradi. Yangi materialni o'zlashtirishini esa butun dars davomida kuzatib boradi. Kundalik tekshirish o'qituvchi tomonidan rejali va izchil olib borilishi lozim. Bunda o'tilayotgan materialning xarakteri o'quvchilarning bilim daraja va individual xususiyatlari hisobga olinadi kundalik tekshirish o'pganilgan o'quv materiali o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilganini ko'rish, o'quvchi bilimidagi kamchiliklarni aniqlash va bu kamchiliklarni tugatish yo'llarini belgilash imkonini beradi.

Kundalik tekshirish o'quvchilarni o'z ustida izchil ishlashga, puxta o'zlashtirishga, mustaqillikka odatlantiradi. Shuningdek, tirishqoq uyushqoq bo'lish javobgarlikni sezish kabi ahloqiy sifatlarni shakllantiradi. O'qituvchi kundalik hisobga olishning yakunin ya'ni o'quvchilar bilimidagi yutuq va kamchiliklarni kundalik o'zlashtirishini, baxolashin sinf jurnali va o'zining kundalik daftariga yozib boradi. Mazkup baxolar keyinchalik choraklik va yarim yillik yakunlarni chiqarishga asos bo'ladi. Darsda kundalik tekshirishning asosiy ko'rinishi o'quvchilardan frontal va individual so'rashdir.

Demak, kundalik tekshirish jarayonida o'quvchilar bilimini hisobga olish bilan birga, ularga yangi bilimlar berish hamda ularda malaka va ko'nikmalar hosil qilish ham nazarda tutiladi. Mavzu bo'yicha tekshirish - dastur materialining bir bo'limi - bob, paragraf, katta mavzu yoki bir - biriga yaqin bo'lgan bir necha kichik mavzularyuzasidan o'quvchilarning bilim sifati qandayligini aniqlashdir. Ona tili, matematika kabi fanlap bo'yicha o'quvchilar bilimini mavzu bo'yicha tekshirish nazorat ishi, yozma ish olish shaklida o'tkaziladi, mavzu bo'yicha tekshirishda ilgari surilgan mavzular yuzasidan olingan savollar va topshiriqlardan foydalanish mumkin. Bilimlarni ana shunday tekshirish natijasida o'quvchilar bilimi har

tomonlarga hisobga olinadi. Ularning bilimlarini qay darajada o'zlashtirib olganliklari aniqlanadi. Takroriy umumlashtiruvchi darslar mavzu bo'yicha tekshirishning zaruriy shaklidir. Unda o'tilgan mavzular bo'yicha xulosalar chiqariladi va bilimlar tizimga olinadi. Yakuniy tekshirish - da o'quvchilarning bir necha hafta, chorak, yarim yil, yillik va shuningdek bir necha yillik (to'qqiz yoki o'n birinchi sinfni tugatishda) bilimlari hisobga olinadi. Bunday tekshirishda ma'lum vaqtda o'zlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarni hisobga olib ko'zda tutiladi. Masalan, kursning asosiy masalalarini esga tushirish, o'tilgan materialni qisqacha tavsif qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bunday tekshirishda o'quvchilar nimani takrorlash va qanday takrorlash haqida to'liq ma'lumot oladilar. Yakuniy tekshirishning vazifasi o'quvchilarning ma'lum davrlardagi bilimini esga olish, qayta tiklash va sistemaga solishdir. Yakuniy tekshirishda bilimlar mustahkamlanadi, malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalar umumlashtiriladi. Bu tekshirishlar imtihosi tusini oladi. Tekshirishning bu turlari og'zaki ko'rinishda va yozma nazorat ishlarda amaliy mashg'ulotlarda. Maxsus topshiriqlarni bajarishda qo'llaniladi. Bu o'quvchilar bilimlarning sifatini aqliy rivojini va ularning bundan keyingi o'qishga o'rganish imkonini beradi. Bilimlarni tekshirishning yangi usullari. O'quv shartlarining eng muhimi vazifalaridan biri ta'lim sohasida bo'ladigan islohotlar asosida bozor iqtisodiyoti tizimida faoliyat ko'rsata oladigan, xususan jahon andozalariga mos keladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Mutaxassis tayyorlashda eng muhim bo'lgan jarayonlardan biri o'quvchilarni bilimini aniqlash va baholashdir, shu bois, o'quv shartlarida qo'llanilayotgan ko'p balli baholash (reyting) ma'lum mutaxassislar tayyorlashda sifat ko'rsatkichlari bo'yicha xalqaro mezonga o'tishni ta'minlashga qaratilganligidir. «Reyting» so'zi ingliz tilida «baho» degan ma'noni anglatadi. O'quvchilar bilimini bunday baholash usuli bir qancha g'ap6 davlatlarida. Shu jumladan AKSh va Angliyada keng tarqalgan, uning mohiyati o'quvchiga uzluksiz bilim olish va olgan bilim natijasini muttasil tekshirib turish imkoniyatini beradi, o'quvchilar bilimini nazorat qilish hamda baholashda reyting tizimiga o'tishdan maqsadi.

1. O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga asoslangan davlat

siyosatini izchillik bilan amalga oshiradi.

2. O'quvchining o'zlashtirish darajasini aniqlashda haqqoniy, aniq va adolatli baholash.

3. Reyting tizimida har xil nazorat turlaridan keng foydalanish.



4. O'quvchi to'plagan ballari orqali ma'lum bir fan bo'yicha imtihon sinovda oladigan bahosini oldindan bilib olish va to'plagan bali o'zini qoniqtirmasa ko'rsatkichni yaxshilash uchun oldindan harakat qilishga undash

5. O'quvchilarning o'quv yili davomida o'qitilayotgan fanlar bo'yicha nazoratlarning qachon, qanday turi o'tkazilishini bilishi va unga tayyorgarlik ko'rib borishini psixologik jihatdan yo'naltirib borish:

6. O'quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligipi oshirish va xokazolrdan iboratdir. Reyting tizimi asosida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fan bo'yicha o'quvchi o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichini ball bilan baholash yotadi. Har bir chorakdagi fanlardan to'plangan ballar yig'indisi o'quvchining kurs reytingini tashkil qiladi. Fanlar bo'yicha talabalarning o'zlashtirishini nazorat qilish 3 xil yo'l bilan amalga oshiriladi.

1. Kundalik nazorat (kn) - 6u berilgan bilimning o'quvchilar tomonidan qay daradajada o'zlashtirilayotganini muntazam ravishda nazorat qilinishidir, bunga o'qituvchi fning xususiyatiga qarab dars jarajida og'zaki so'rov, uy vazifalarini tekshirish, referat yeg'ish, noan'anaviy dars o'qlari (seminar, anjuman musobaqa, har xil bellashuvlar va xG'f.) dan foydalanish. Amaliy mashg'ulotlar (misol va masallar yechish, laboratoriya ishlarini bajarish didaktik materiallar bilan ishlash va mustaqil ishlar) yozma ishlar asosida o'quvchilar bilimining darajalarini aniqlaydi. Kundalik nazorat reyting tizimining eng muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi.

2. Oraliq nazorat (on) bu mazkur fan bo'yicha o'tiladigan bir necha mavzulami, boblami o'z ichiga olgan bo'lib, ayrim boblar, mavzular yig'indisi bo'yicha yozma ish, test sinovlari o'tkaziladi.

3. Yakuniy nazorat (yan) bu o'quv rejasidagi fan uchun ajratilgan soatlar tugagach, butun o'tilgan mavzular bo'yicha o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun o'tkaziladi bu dastur mavzusi to'liq aks ettirilgan test sinovi yoki nazorat ishi shaklida o'tkaziladi, yuqorida qayd etilgan nazorat turlariga asoslangan reyting tizimini ishlab chiqish quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

1. Fan bo'yicha reyting tizimini joriy qilish tartibi fan uyushmalari tomonidan ishlab chiqiladi.

2. O'quvchilarning sinfdan sinfga o'tishi chorakni muvaffaqiyatli yakunlash uchun zarur bo'lgan umumiy ball minimumi o'quv yurti pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi va o'quvchilar e'tiboriga xavola qilinadi.

3. Bosqichlar bo'yicha nazoratning barcha turlari uchun ko'p balli shkala asosida ballarning tegishli hisob - kitob aniqlanishi lozim. Ja'mi 100 % deb hisoblansa, unga nisbatan % hisobida fan bo'yicha belgilangan maksimum ballning

50 - 55 % kundalik nazoratga. 25 -30 % oraliq nazoratga. 15 - 20 % yakuniy nazoratga beriladi.

4. Hap bir fan bo'yicha, nazorat ishlari o'tkazish miqdori va qachon o'tkazilish tartibi, shakli rejalashtiriladi hamda fan uyushmasi tomonidan tasdiqlanadi:

5. Fanlar bo'yicha KN. ON. YaN o'tkazish jadvali ishlab chiqilgandan keyin shu fan bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan maksimal miqdordagi ball belgilanadi va saralash ballari aniqlanadi. Shu asosda mazkur fan bo'yicha o'quv dasturi materiallarini o'zlashtirishning eng quyi chegarasi aniqlanadi. O'quvchilarga kursdan - kursga ko'chish, muvaffaqiyatli tahsil ko'rishlari uchun o'qish davomida qaysi fandan qancha ball to'plash kerakligi to'la tushuntirilishi lozim.

6. Reyting tizimini qo'llashning eng muhim shartlaridan biri o'quvchi jamg'argan ballaridan yana baho tizimiga o'tishdir. Ballarni baholarga aylantirishning yagona tizimiga rioya qilish lozim fan bo'yicha maksimal ballning 85 - 100 % oralig'ida to'plangan ballar «allo» 70 - 85 % oralig'ida to'plangan ballar «yaxshi» 55 - 70 % oralig'ida to'plangan ballar «orta» 55 % dan kam miqdordagi ballar esa qoniqarsiz bahoga tenglashtiriladi. Shunday qilib, kundalik va oraliq yakuniy nazorat natijalari bo'yicha fan uchun belgilangan maksimal ballning 55 %dan ortiq to'plagan o'quvchi o'zlashtiruvchi hisoblanadi.

**Diagnostik tahlil.** Bilimdagi notekisliklarni aniqlash ularni to'ldirib va navbatdagi

o'zlashtirish bosqichiga ko'tarish maqsadida diagnostikalash amalga oshiriladi. Diagnostikalash quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

- o'quvchilar o'zlashtirish darajasini diagnostikalash;
- bilimlardagi yetishmovchiliklarning oldini olish;
- aniqlangan yetishmovchiliklarni to'ldirish maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqish;
- maxsus topshiriqlar bajarish soatlarini belgilash;
- yakuniy diagnostik tahlil qilish;
- diagnostika ta'lim texnologiyasining navbatdagi bos-ichi bo'lib, uning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Asosiy o'zlashtirishdagi kamchiliklar soatini aniqlash, har bir o'quvchining bilim darajasini aniqlash, rejaning borishiga tuzatishlar kiritish yo'li bilan ta'lim jarayonining natijasi kafolatganligini ta'minlaydi.

Test so'rovi natijalarini diagnostik tahlil qilish ikki muhim vazifani hal qiladi: 1) qaysi o'quvchi qaysi o'quv birliklarida qiynaladi; 2) o'qituvchilar qaysi bilimlarni kengaytirishi lozimligini aniqlaydi.

## 2. Pedagogik diagnostika, uning maqsadi va vazifalari

Professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar o'zining pedagogik faoliyatida pedagogik diagnostika bilan shug'ullanishlari lozimligi bugungi kun talablaridan biridir. **Xar qanday faoliyat zamirida xam amalga oshirilgan ishlarning pirovard maksadi vazifalari va kutilgan natijalari buladi. Faoliyat natijalarini sarxisob kilish, amaliy xulosalar yasash - bush yoki muvaffakiyatli urinlarni belgilab olish, faoliyatning keyingi boskichlarida uni xisobga olish diagnostika deyiladi.** Pedagogik diagnostika o'quvchining o'zlashtirishi, o'qishdagi qiyinchiliklarini, uning o'qishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy omillarni o'rganishga yo'naltirilgandir. Diagnostika natijalari esa ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, yo'l qo'yilgan hatolarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib boorish imkonini beradi. Pedagogik diagnostika mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tamiz: *Tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish* - bu yo'nalish shaxslarning tarbiyalanganligini, ularning xulq-atvorini, odob-axloqini, tarbiyalanganligini (tarbiyaviy ta'sirlarga berilishi)ni o'rganishdaniboratdir.

*Tashkiliymetodik diagnostika* - pedagoglarning kvalifikatsiyasini, o'quv jarayonining uslubiy ta'minlanganlik darajasini baholashdir.

*Didaktik diagnostika* - pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun xizmat qilishdir (o'quv jarayonining tashkiliy metodik tomonlaridan tashqari). Shaxslarning og'zaki va yozma javoblarini, javoblardagi tipik xatolarni, ularning sabablarini, o'quv faoliyatidagi salbiy o'zgarishlarni, shaxslarda o'quv mehnat malaka va ko'nikmalarning rivojlanganlik darajasini, ta'lim olishga nisbatan moyilliklari diagnostika qilinadi.

*Ijtimoiypedagogik diagnostika* - shaxslarning pedagogik qarovsizligi, moslashganlik darajasi, tarbiyasi og'ir bolalarni diagnostika qilishda ijtimoiy omillarni hisobga oluvchi qarida olib boriladi. Shu sababli diagnostika jarayonida oila sotsiologiyasi va iqtisodi, xuquq sotsiologiyasi, dam olish sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya kabi sohalarda qo'llaniladigan metodikalar va ko'rsatkichlardan foydalanishni taqozo etadi.

*Ijtimoiy psixologik-pedagogik diagnostika* - bu yo'nalish sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogikani o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, shaxslar, pedagoglar, otaonalar guruhlarini, shaxslarga ommaviy kommunikatsiya vositalarining (radio, televizor, gazetalar va h.k.) ta'sirini, shaxslarning burch va xuquqlari, ular orasidagi munosabatlarni o'rganishga yo'naltirilgandir. «Psixodiagnostika» so'zining mohiyati «psixologik tashhis qo'yish» yoki kishining mavjud psixologik holati va xususiyati haqida qaror qabul qilishni anglatadi. Psixodiagnostika

amaliy jihatdan psixologning deyarli barcha faoliyat doiralarida, ya'ni pedagogik tadqiqotlarda muallif yoki ishtirokchi sifatida qatnashayotganda, psixologik maslahat hamda psixologik korreksion (to'g'rilash va rivojlantiruvchi) ishlarni amalga oshirayotgan jarayonda qo'llaniladi. Ammo ko'pincha amaliy psixologning ishlarida psixodiagnostika – faoliyatning alohida mustaqil turi sifatida namoyon bo'ladi. Uning maqsadi psixologik tashhis qo'yish, ya'ni kishini mavjud psixologik holatini baholash orqali ifodalanadi. Psixodiagnostik faoliyat jarayonini metodikalar aprobatsiyasi, talablar yo'riqnomasini ishlab chiqish, tadqiqotlarni o'tkazishdagi qonunqoidalarni yaratish, natijalar tahlilining usullarini shakllantirish hamda ma'lum metodlarning imkoniyat va cheklanishlarini muhokama qilish tashkilotadi. O'qituvchi talim va tarbiyadagi qiyinchiliklar nima uchun va qanday qilib paydo bo'lishini tushunish uchun, u avvalo bola psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini bilishi va turli psixik holatlarni, psixologik-diagnostika metodlarini egallashi zarur. O'qituvchining psixodiagnostik tadqiqot yoki doimiy kuzatish jarayonida olingan natijalarni bolalar bilan ishlashda qanchalik to'g'ri foydalana olishi ham zarur hisoblanadi. Psixodiagnostika psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fandır. Bunda diagnoz ko'rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holati va xususiyatlari haqidagi xulosalaridan iboratdir. Psixologik diagnoz (diagnosis - grekcha, aniqlash, bilish degan ma'noni anglatadi) - shaxs individual-psixologik xususiyatlarining hozirgi holatiga baho berish, rivojlanishini oldind aytib berish (prognoz qilish) va psixodiagnostik tekshiruv vazifalaridan kelib chiqib, tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so'nggi natijasidir.

Psixodiagnostik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo'yishning 3 bosqichi farqlanadi:

1. Simptomatik diagnozda dasturi mavjud har qanday EHM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotda olingan natijalar qayta ishlanadi.

2. Etnologik dagnozda (kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligini emas, balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi.

3. Tipologik diagnozda sinaluvchi shaxs tuzilishida olingan natijalarning ahamiyati va o'rni aniqlanadi.

Psixodiagnostika psixologiyaning ilmiy va amaliy jabhalaridan tashqari uning boshqa injenerlik psixologiyasi, mehnat psixologiyasi kabi insonning psixologik xususiyatlarini bilish talab qilinadigan barcha sohalarida foydalaniladi. Ilmiy va amaliy psixodiagnostika qayd etilgan barcha holatlarda ham o'ziga xos muhim vazifalarni hal etadi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Insondagi mavjud biror psixologik xususiyat yoki xulq-atvori holatini aniqlash;

2. Mazkur xususiyatning shakllanganligi, ya'ni uning miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlarda namoyon bo'lishi darajasini o'rganish;

3. Zarur bo'lgan holdagina shaxsning tashhis qilinayotgan xulq-atvoridagi psixologik xususiyatlarini ochib berish;

4. O'rganilayotgan xususiyatlarning shakllanganlik darajasini taqqosiy ishlanmasini yaratish. Amaliy psixodiagnostikada sanab o'tilgan vazifalarning har biri alohida yoki kompleks tarzda olib borilayotgan tadqiqot maqsadiga muvofiq amalga oshiriladi.

Demak, psixodiagnostika psixologdan professional faoliyati jarayonid maxsus tayyorgarlik talab qiluvchi murakkab sohadir. Psixolog (tashhischi) egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar shunchalik keng va murakkabki, uning o'zlashtirilishi bilan psixodiagnostikani professional psixolog faoliyatining negizi sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'ladi. Haqiqatan ham amaliy psixologlarni malakali mutaxassis etib tayyorlash ahamiyatga molik omildir.

O'quvchilar jamoasida shaxslararo diagnostika doimiy va maqsadga yo'naltirilgabo'lishi kerak. Buning uchun turlicha nomlanishga ega bo'lishi mumkin bo'lgan o'quvchi va bolalar jamoasini o'rganishning maxsus dasturlari ishlab chiqilmoqda, masalan, o'rganish sxemasi, kuzatish dasturi, pedagogik yoki psixologik-pedagogik konsilium dasturi, o'quvchilarni o'rganish kartasi va boshqalar. Dasturlarning umumiy belgilari – bu yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar va kuzatuvlarni aniqlovchi, so'rov, ekspert, test metodikasini qo'llashni talab etuvchi dasturlarning o'zi kichik diagnostikadir. Hozirgi davrda shaxslararo munosabatlarni o'rganish va ularni o'lchashni shaxslararo munosabatlarni ijtimoiy ustanovkalar natijasi sifatida o'rganish zarur bo'lgan bir qator gumanitar fanlar diagnostik apparatning asosi deb qabul qilgan. Ijtimoiy yo'riqnoma deganda individning o'z hayotiy tajribasi asosida yuzaga kelgan vaziyatlar yoki ob'ektni ijobiy yoxud salbiy baholashga oldindan moyilligining barqaror yashirin holati tushunlib, u pretseptual, emotsional va fikrlash jarayonlariga regulyativ, dinamik, uyushtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Hamda mazkur ob'ektning ushbu vaziyatdagi xatti-harakatlari (ham verbal, ham noverbal) namoyon bo'ladi. E.Bogardusning "ijtimoiy masofa" metodikasi asosida ishlab chiqilgan muallifning "shaxslararo muvofiqlik" shkalasi keltirilgan bo'lib, u sinfda kommunikativ munosabatlarni integral baholashni o'tkazish uchun mo'ljallangan. U muloqot masofasini miqdoriy aks ettiradi. Biz yaratgan shkalaning E.Bogardus shkalasidan farqi ishning ikkinchi bobida, tadqiqot metodikasi bayonida yozilgan.

Ma'lumki, tashhissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Ta'lim tashhisida oqibatlar, erishilgan natijalar va ta'lim olganlik farqlanadi. Shuningdek, ta'lim olganlikni

tashhishlash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirishda erishilgan daraja sifatida ham qaraladi. Didaktik tashhisning maqsadi o'quv jarayonini uning samaradorligi bilan bog'liq holda aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat. Diagnostik faoliyatning maqsadi o'qituvchiga pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va baholash mezonlarini belgilashga, muammolarni oson hal qilish yo'llarini aniqlashga, o'quvchilarning faoliyatini boshqarishga va o'zining kasbiy faoliyatini tuzatishga, pedagogik o'zaro ta'sir samaradorligini baholashga imkon beruvchi yaxlit axborotni aniqlashdan iborat. Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning murakkab shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashhishlash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega.

Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashhishlash natijalari shaxsning yetuklik darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Demak, ta'limni tashxis etishning o'ziga hos ahamiyati jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan ulkan ishlarni amalga oshirishdan kelib chiqadi va mamlakatimizda kasb-hunar ta'limi xodimlarini malakasini oshirish, kasbiy tayyorgarliklarini yangi pog'onaga ko'tarish negizlariga Uzbekiston konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risidagi» qonun, pedagogik ta'lim konsepsiyasi hamda Oliy va o'rta, maxsus ta'lim xujjatlariga e'tiborni kuchatirish muhimligi ravshan bo'ldi. O'quvchilar jamoasida tashxisning doimiy va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Buning uchun turlicha nomlanishga ega bo'lishi mumkin bo'lgan o'quvchi va bolalar jamoasini o'rganishning maxsus dasturlari ishlab chiqilmoqda, masalan, o'rganish sxemasi, kuzatish dasturi, pedagogik yoki psixologik pedagogik konsilium dasturi, o'quvchilarni o'rganish kartasi va boshqalar. Dasturlarning umumiy belgilari – bu yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar va kuzatuvlarni aniqlovchi, so'rov, ekspert, test metodikasini qo'llashni talab etuvchi dasturlarning o'z ikki diagnostikadir. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining bahtu saodati, fazlu kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, 'zini ayamaydi. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf - odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angelaydi, xis etadi.

O'zbek oilasi mustabidlik zamonida ham o'zining tarixan shakllangan qiyofasini yo'qotmadi. Ulug' adibimiz Abdulla Qodiriy qahramonlaridan birining:

"Bu xonadondan hech kim norizo bo'lib ketgan emas", deya aytgan gaplarida elimizga xos katta hayotiy falsafa mujassam.

Bu yo'q joydan paydo bo'lgan gap emas. Ota - onaning farzand oldidagi burchlari, o'zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu diyonatli xonadon oqsoqollaridan so'rasangiz, ularni lo'nda qilib sanab beradi: yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib, savodini chiqarish, ilmi, kasbli - hunarli qilish, boshini ikki,uyli - joyliqilish. Mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e'tibor bermoqdamiz. Shuning uchun ham bu maqsadga qaratilgan loyihalar jamoatchiligimiz diqqat e'tibori markazita o'tmoqda, tarbiya sohas isloxoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda.

Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxass kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallash uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyativa ma'naviyati bilankuchlidir. Bunday boylikning ahamiyatini anglash uchun chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general - gubernatori M. Skobelev: "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi", deb aytgan gapini eslashning o'zi kifoya qiladi. Bunday yovuz qarashlarga qo'shimcha izoh berishga hojat yo'q, deb o'ylayman. Lekin ulardan kerakli xulosa - saboq chiqarish uchun bugun ham ech emas. Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizi tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. ar qanday faoliyat zamirida rini sarhisob qilish, amaliy, xulosalar yasash - bo'sh yoki muvaffaqiyatli 'rinlarni belgilab olish faoliyatni keyingi bosqichlarida uni hisobga olish diagnostika deyiladi. Asosiy maqsadi talabalar psixologiyasining turli sohalaridan psixologiya

va pedagogikaga oid bilimlar berish, ayniqsa shu fanlarning ilmiy tadqiqot metodlarini amalda qo'llashga o'rgatishdir. Shuning uchun mazkur kurs asosan amaliy xususiyatga ega, lekin nazariya bilan uyg'unlashgandir.

1) Ilmiy asoslangan diagnostik metodlarsiz bolalarning maktabga tayyorligini bilish mumkin emas:

2) Rivojlantiruvchi ta'lim samaradorliginin kuzatib bo'lmaydi:

3) Turli metodlarning nisbiy maxsuldorligini, o'qitishning shakl va vositalarini baholash: a) diagnostik metodlarsiz o'quvchilarning turli yosh davrlaridagi intellektual rivojlanganlik darajasini belgilash o'ta mashaqqat:

b) o'quvchilarga individual yondashish uchun zarur bo'lgan ularning individual xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni to'play olmaymiz.

Pedagoglarning kasbiy mahoratining asosiy komponentlaridan biri o'quv tarbiya jarayonini to'g'ri va samarali boshqara olishidir. Buning uchun pedagog texnik va uslubiy bilimlarni puxta egallaganli yetarli emas. Pedagog o'z ishi, faoliyati natijalarini tahlil qilishi, o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirayotgan sabablarni o'z vaqtida aniqlashi, bu qiyinchiliklarni o'quvchiga individual yondoshish jarayonodabartarafqila olishilozim. Shu o'quv tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish vosita va yo'llaridan biri ilmiy jihatdan asoslangan psixologikpedagogik diagnostikadir. Bugungi kunda psixologik pedagogik diagnostikaning o'rni, ahamiyati qanchalik katta ekanini hech kim inkor qilmaydi. Individual yondashish, o'quvchi va talabalarning individual xususiyatlarini o'rganish shart ekanligi bir qancha davlat hujjatlarida aks ettirilgan. Pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oralig'idagi soha bo'lib, o'quvchi shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarnio'rganadi. Pedagogika diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni taxlil kilishda katta ahamiyatga ega bulib, ilgor ta'lim muassasalari bu ish uslubi muvaffakiyatli tarzda amalga oshirilmokda, yutuklar mustaxkamlanib, yul kuyilgan kamchilik va nuksonlarni taxlil kilish asosida bosh strategik yunalishlar belgilab olinmokda va yukori darajadagi pirovard natijalar kulga kiritilmokda. Savol tugilmokda:

- bola kobilyati, imkoniyati, bilimi, egallagan kunikmalarining ulchovi bormi? bolaning bilish va kunikmalariga belgilashga ukituvchi aralashgani ma'kulmi yoki uziga uzi baxo bergani avzalrokmi?

Manashu savollarga eng makbul asoslarda javob berish pedagogik diagnostikaning predmetidir. Manashu maksadni ruyobga chikarish yul-yuriklari, metodik mexanizmlarini ishlab chikish, joriy etish muhim vazifadir. Pedagogik diagnostikaning tarixi pedagogik faoliyati tarixi bilan deyarli tengdosh. Boshka kilib aytganda, pedagogik jarayon ming yillardan beri mavjud bulsa, bu



faoliyatning meorlari va natijalarini belgilash xam shunchalik kadimiydir. Demokchimizki, o'quvchi bilimiga baxo kuyish, uni sinov va imtixon kilish, pirovard ish natijalarini belgilab olish boshlangan yerda pedagogik diagnostika xam mavjud. Fakat fark shundaki, ibtidoiy va urta asr pedagogikasida bola bilimi va ixtidorini diagnostik taxlil kilishning ilmiy asosi yuk edi.

Pedagogik diagnostikani ilmiy asosda taxlil etish va yulga kuyish XX asr boshlarida amalga oshirilgan. Shu boisdan, bu pedagogik jarayonning nomlanishi xam turlichabulgan. Ayrimlar pedagogik diagnostikani taklif etilagan bilimlarni uzlashtirish asosi deyishadi. Boshkalar diagnostikani ukitishni jadallashtiruvchi axborotdir deb xisoblaydilar. Yana ayrimlar esa diagnostika egallangan bilim sifatini nazorat etishdir, degan fikimi ilgarisuradilar. Tanikli pedagogik olim Macherman pedagogik diagnostikani «O'quvchi uzlashtirishi bilan, uquv materialini tugri tanlash, maksadni tugri yunaltirish mezonidir» deb xisoblaydi. Aslida pedagogik diagnostika uquv materialini bilish jarayonining asosini tashkil etib, makbul pedagogik xulosaga kelishga zamin yaratadi. Shu boisdan xam, pedagogik diagnostika:

birinchidan, o'quvchiga individual ta'lim berishni jadallashtiradi;

ikkinchidan, davlat va jamiyatning ta'limga kuygan talablaridan kelib chikib, o'quvchi bilimini tugri, adolatli baxolashni ta'minlaydi;

uchinchidan, ishlab chikilgan ta'limiy mezon, kriteriyalari orkali o'quvchining sinfdan sinfga utishda, mutaxassislikga kabul kilinishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi.

Pedagogik diagnostika yordamida ta'lim-tarbiya jarayoni tugri taxlil etiladi va uning samaradorligi tugri baxolanadi. Boshkacha kilib aytganda, pedagogik diagnostika orkali ta'lim ob'ekti, ta'limiy tushunchalar qaydarajada uzlashtirilganligi taxlil etiladi, butun uquv kursini, uquv dasturlarini uzlashtirish darajasi baxolanadi. Pedagogik diagnostika muhim ahamiyatgauquv tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qladi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilansamaralarni xolislik bilan belgilab beradi, yul kuyilgan kamchilik va nuxsonlarni bartaraf etishga yul ochadi, pirovard natijada ta'limning takomillashib borishiga ijobiy ta'sir qladi. Pedagogik diagnostika tarixiga nazar tashlasak utgan asrlarda u fakat o'quvchi bilimini baxolash orkali amalga oshirilganini kuzatamiz.

Unga 1864 yilda AKSh olimlari D.Fisher va R.Ressler asos solganlar, 1908 yildan boshlab esa, olim T.Stoun arifmetikadan test orkali o'quvchi bilimini sinash tizimini tadbik etgan. Egallangan malakani aniklashga karatilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostik faoliyatining ayrim jihatlari:

a) taqqoslash;

b) pedagogik taxlil;

v) avvaldan ayta bilish (prognoz);

g) interpretatsiya;

d) pedagogik diagnostika natijalarini o'quvchilarga yetkazib berish;

ye) amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni o'quvchilarga yetkazish;

j) pedagogik diagnostika matodlarini tugri belgilashdan iborat bulgan.

Pedagogik diagnostikaning eng muhim kriteriyalari esa:

- xakoniylilik (ob'ektivnost);

- ishonchlilik (nadejnost);

- puxtalik (validnost) ka asoslanadi.

Diagnostik taxlillar kachon ob'ektiv buladi?

\*Agar: sinov natijalari turli tekshiruvlarda bir xil natijalar kursatilib, kursatkichlar uzaro bir biriga yakin bulsa;

\*Agar: sinov mezonlari, ulchovlari birligi xamda uning natijalari sinovni amalga oshiruvchi, aniklovchining shaxsi xislati va munosabatlariga boglik bulmasa;

\*Agar: sinov bir xil talab, bir xil munosabat va psixologik kayfiyatda amalga oshirilsa, xakikiy axvolni aniklashda ob'ektiv natijalar olinishi mumkin.

Modomiki maksad xakikiy ta'limiy axvolni aniklash ekan, unga tugri, xalollik, xakoniylilik bilan yondashish zarur. Aks xolda, diagnostikadan kuzlangan natijaga erishish, tugri tashxis belgilash mumkin emas. Bundan tashkari ayrim sinf ishlarini, ba'zan yozma ishlarni kupincha esa ogzaki berilgan javoblarni baholashda xar xil yondashuvlar kayd etilishi mumkin. Bu sinovchi, ya'ni diagnostik taxlil utkazuvchi kilinayotgan ishlarning tub maksadiga tushunib yetishiga, mas'uliyatiga, ishga bulgan yondashuviga va nixoyat uning saviyasiga boglik. Budan kelib chikadigan amaliy xulosa shuki, pedagogik diagnostikani amalga oshirishda rioya-andisha, oshna-ogaynigarchilik, tanish-bilishchilik yoki boshka noxushliklar aralashsa, xakikiy axvol aniklanmaydi, umumiy ishga putur yetadi, kamchilik va nuksonlar ochilmay xaspushlanadi, ta'limni takomillashtirishdan kuzda tutilgan maksadlar ochilmay koladi.

Pedagogik diagnostikaning ishonchliligi bir necha marta kilingan taxliliy xulosalar natijasining bir xilligi kayd yetilgan xollardagina ta'minlanadi. Agar buni muayan maktab, sinfning xayootiy faoliyati bilan boglasak, mabodo ukituvchi ilgari ishini oradan bir necha vakt utib, aynan ushanday baxolasa, ishonchlilik payd buladi, lekin bunday xol afsuski amaliyotda kam uchramokda.

Pedagogik diagnostika natijalari kachon uzil-kesil tastiklanadi?

Tajribalar, taxlillari shuni kursatadiki, pedagogik diagnostika test usullari vositasida amalga oshirilsa, natijalar xakkoniyl buladi. Chunki bunda turt xil xulosabir xil natija bilan baxolantladi. Bular,

- mazmunning tasdigi;
- har xil usul bilan olingan natijalarinshng bir xilligi;
- natijalarga kura amalga oshirilgan taxlillarning isbotlanishi;
- loyixalashning tasdiklanishi ya'ni loyixalashtirishdagi natijalarning olingan xulosalarga uygunligi).

## **2.1. Shaxsning shakllanishi va taraqqiyotida pedagogik diagnostikaning tutgan o'rni**

Shaxs ijtimoiy, konkret-tarixiy sharoitlarda yashashi, ta'lim-tarbiya olishi tufayli tarkib topadi. Shaxs taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi nimadan iborat? Bu masalani hal qilish yuzasidan psixologiya tarixida ikkita oqim mavjud bo'lib, ulardan birinchisi shaxs psixik taraqqiyotining biogenetik konsepsiyasi, ikkinchisi esa sotsiogenetik konsepsiyasidir.

Biogenetik konsepsiyaga ko'ra inson shaxsining taraqqiyoti biologik faktor, ya'ni nasliy faktor bilan belgilanadi. Bu konsepsiyaga ko'ra, odam psixik faoliyatining shakllarigina emas, balki bu faoliyat mazmuni ham go'yo tug'ilishidan peshonasiga yozib qo'yilgan emish, odamning psixik taraqqiyot bosqichlari va ularning yuzaga kelish tartiblari avvaldan belgilanib qo'yilgan emish. Biogenetiklar pedagoglardan bolada taqdir yo'li bilan qanday shaxsiy sifatlar yuzaga kelishini bili turishni, lekin ularning yuzaga kelishiga qarshilik qilmaslikni, aksincha yordam berishni talab qiladilar.

Sotsiogenetik konsepsiya shaxsning taraqqiyotini uning atrofidagi ijtimoiy muhitga bog'lab tushuntiradilar. Ularning aytishicha, «odam ijtimoiy muhit nusxasidir». Sotsiogenetik ham biogenetiklar singari rivojlanayotgan odamning shaxsiy faolligini inkor qiladilar. Odam faqat atrofidagi muhitga moslashadigan, passiv rol o'ynaydigan mavjudot deb qaraydilar. Agar sotsiogenetik konsepsiyani to'g'ri deb bilsak, u holda nima sababdan ba'zi holda bir xil muhitda har xil odamlarning yetishib chiqishi tushunibbo'lmaydiganmasala bo'lib qoladi. Shaxs taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchlar muammosini hal qilishda dialektika ta'limotiga asoslanish lozim. Shaxsning faolligi odamning anglangan yoki anglanmagan motivlarining murakkab sistemasi orqali faoliyatga undovchi ehtiyojlar yig'indisiga bog'liqdir.

Biroq ehtiyojlarni qondirish jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan jarayondir. Odatda ehtiyojlar paydo bo'lishi bilanoq qondirilmaydi. Ehtiyojlarni qondirish uchun moddiy vositalar, shaxsning faoliyatga ma'lum darajada tayyor bo'lishi, bilimlar, ko'nikmalar va shu kabilar zarurdir. Shaxs taraqqiyotida irsiyat va muhitning rolini to'la inkor qilib bo'lmaydi, balki har ikkisining ham ma'lum darajada o'z o'rni bor. Lekin shaxs taraqqiyotini begilovchi asosiy omil ta'lim-

tarbiyabo'libhisoblanadi. Taraqqiyotning bu ikki bosqichi bolaning hozirgi vaqtdaqanday ekanligini, ya'ni kanday bilim, malaka va ko'nikmalarga, xarakter-sifatlariga ega ekanligini va kelajakda bolaning qanday bilim, ko'nikmalarga, xarakter sifatlariga ega bo'la olishini hisobga olish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya insonning kamolga yetishida yetakchi omildir. Chunki:

a) ta'lim va tarbiya jarayonida, kishi organizmining o'sishi va muhitning stixiyali ta'siri berolmaydigan narsalarni o'rganib olish mumkin. Masalan, savod chiqarish.

b) ta'limtarbiya yordami bilan bolalarning ba'zi tug'ma kamchiliklarini ham kerak tomonini o'zgartirish mumkin. Masalan, ko'r, soqov, kar.

v) ta'limtarbiya yordamida salbiy ta'sir natijasida yuz bergan kamchiliklarni tugatish mumkin. Masalan, qo'pollik, so'kish.

g) ta'lim va tarbiya o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'yadi va komil inson tarbiyasini rivojlantirishni ko'zlaydi.

d) ta'lim jarayonida bola bilimlar ko'nikma va malakalarini hosil qilibgina qolmay, o'zi ham kamolga yetishib boradi, bilim darajasini ongli ravishda oshiradi.

Demak, ta'limtarbiya tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirishning, bolalarni komil inson qilib tarbiyalashning muhim omilidir.

Bolalar psixologiyasi bolalar psixologiyasining taraqqiyotiga faol faoliyati rolini hisobga oladi. Chunki, bola tarbiyaning faqat passiv ob'ektigina emas, balki o'z aoliyatlari bilan ham o'ziga, ya'ni o'zining psixik taraqqiyotiga faol ta'sir qili turadigan mavjudotlar. Tarbiya bolaning faol faoliyatlarini har doim to'g'ri tashkil qilib, yo'lga solib tursa, undagi mavjud sifatlar faoliyatning xar-xil turlarida (o'yin, mehnat, o'qish) nomoyon bo'lib mustahkamlana boradi. Chunonchi, bola psixikasi o'yin, o'qish o'rganish, mehnat va turli ijtimoiy faoliyat jarayonlarida taraqqiy qiladi. Faoliyatning bu turlari bolaning o'sishi va yosh xususiyatlariga mos ravishda o'zgarib biri ikkinchisi bilan almashinib turadi. M: bog'chagacha va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'yindir. Chunki, o'yin bola tabiatining asosiy xususiyati hisoblanadi. Bola o'yin orqali atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni bilib ola boshlaydi. O'yin to'g'risida Gorkiy «O'yin bolalar yashayotgan o'zgartirishi lozimo'lgan dunyoni bilish yo'lidir» deiyatad Shaxs ontogenez taraqqiyotida bir nechta yosh davrlari mavjud. Ulming asosiylari quyidagilar:

1. Maktabgacha bo'lgan yosh davri.
2. Kichik maktab yoshi davri.
3. O'smirlik yoshi davri.
4. O'spirinlik yosh davri.
5. Yoshlik davri.

6. Kattalik yosh davri.

7. Keksalik yosh davri.

Psixologik testlardan, so'rovnomalardan to'g'ri foydalanish maqsadida bir qator ehtiyot choralarini mavjudki, ularni amalda bajarish ishning samarasini oshiradi. Diagnostik metodlarni qo'llanilishi va yoyilishi bizning mamlakatimizdagi axloqiy standartlarga yoki professional axloq kodeksiga bo'ysunishi kerak. Psixolog-tashhisning professional axloqiy kodeksida insoniyat manfaatidagi fanning shakllanishi bilan ayrim individlarning muvaffaqiyati va huquqlarini himoya qilishdek qadriyatlarining nizolari o'rin olgan kritik vaziyatlarga nisbatan diqqat-e'tibor qaratilgan bo'lishi kerak. Psixodiagnostika sohasi bilan uzviy bog'langan, hozirda g'arb psixologiyasida ma'lum yechimga ega bo'lgan asosiy axloqiy muammolarni ko'rib chiqaylik.

1. Diagnostik metodlarni qo'llaydigan kishilar malakasining bosqichi. Diagnostik metodlarni malakali tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilishi talabi, ularni noto'g'ri ishlatilishidan individni himoyalashdagi birinchi qadam hisoblanadi. Albatta, zarur malaka diagnostik metodlar turlaridan kelib chiqqan holda o'zgarib boradi. Masalan, intellektning individual testlari, shaxsiy so'rovnoma va testlardan to'g'ri foydalanishda, o'quv va professional faoliyatda muvaffaqiyatni testlash jarayonida kerak bo'lgan oz miqdordagi maxsus psixologik tayyorgarlikka nisbatan uzoq vaqt davomidagi tayyorgarlikni talab qiladi. Yaxshi malakaga ega bo'lgan psixolog-tashhischi shunday metodikalarni tanlay bilishi kerakki, ham shaxsiy maqsad uchun o'tkazayotgan diagnostik jarayonga mos kelsin, ham tekshirilayotgan konkret kishi uchun mos tushsin. Shuningdek, tanlangan metodikalarga aloqador ilmiy adabiyotlarni ham o'rgangan bo'lishi, hamda texnik ko'rsatkichlar bo'lgan norma, ishonchlilik va validlik kabi xarakteristikalarini yaxshi bilishi kerak.

Ma'lumki, tashhis natijalari uni o'tkazishdagi turli vaziyatlarga nisbatan og'uvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun psixodiagnost o'z xulosalarini tekshiriluvchiga aloqador qator ma'lumotlar asosidagina diagnostik baholashdan so'ng amalga oshiradi. Eng muhimi, olingan natijalari asosidagi noto'g'ri tahlillar kelib chiqmasligi uchun u yetarlicha psixologiyadan xabardor bo'lishi kerak. Agar psixodiagnostik jarayon boshqa mutaxassis kishilar tomonidan olib borilsa, imkon boricha malakali psixolog maslahatchi ham bo'lishi kerakki, u tadqiqotni to'g'ri olib borishda zarur sharoitlarni yaratib bera oladi va olingan natijalarni to'g'ri tahlil qilishda ko'maklashadi.

Kimni malakali psixolog-tashhischi sifatida hisoblash mumkin? Ma'lumki, tadqiqot sohasining turli-tumanligi va uning asosidagi maxsus tayyorgarlikda birorta psixolog barcha soha bo'yicha bir xil malakaga ega bo'la olmaydi. Amaliy

psixologiyaning asoslarini yaratadigan psixologlar ushbu ashyoviy dalillarni tan olishar ekanlar, psixologlar ayrim sohalardagi professional standartlar talabiga javob bermaydigan usullarni qo'llamasliklari, kompetentlik doirasidan chetga chiqmaslikni muhim deb biladilar. Hattoki, g'arbda ilmiy yoki davlat korxonalarida ish olib boruvchi psixolog bilan mustaqil amaliy faoliyat yurituvchi psixolog o'rtasida farq mavjudligini ta'kidlaydilar. Chunki, mustaqil amaliy psixolog malakali hamkasblar fikrlariga, ularning xulosalariga, tashkilotlarda faoliyat yurituvchi psixologga nisbatan kam bo'ysunadilar. Vaholanki, tashkilot psixologlari Amerikaning psixologik uyushmasi yo'riqlariga asosan professional malakadagi yuqori talablarga javob berishi kerak. Chet el tajribalarining foydali ahamiyati shundaki, kishilarni sifatli psixologik tadqiq qilishda va professional me'yorlarni oshirish maqsadida malakali psixologlarga litsenziyalar va guvohnomalar taqdim etiladi.

2. Diagnostik metodlarni qo'llash. Diagnostik metodlarni qo'llash xuquqi ma'lum malakaga ega bo'lgan mutaxassislarga berilgan. Hozirda esa imkoni bor kishi ulardan foydalanmoqda. Amerikalik psixologlar fikriga ko'ra, metodikalarga ega bo'lishi uchun mutaxassis psixolog yoki uning to'g'ri qo'llanilishini o'z mas'uliyatiga olgan kishilarning imzosi bo'lgan taqdirdagina foydalanishlari mumkin. Psixolog-tashhischilarning g'arbiy axloq qoidalarida diagnostik metodlarini tarqatilishini cheklash taklif etiladi. Bu cheklanish ikki xil mazmunga ega: metodikalarning mohiyatini oshkor etmaslikni va ulardan noo'rin foydalanishning oldi olinishini.

Shuningdek, boshqa professional mas'uliyatlar mualliflar tomonidan yaratilayotgan yangi metodikalarning sotilishi bilan bog'liq. Ularni kishilarda qo'llash uchun taqdim etishda yetarli darajada ob'ektiv asoslar bo'lishi kerak. Diagnostik metodlarni yaratuvchilar, mualliflar mas'uliyatiga doimo vaqti-vaqti bilan metodikalarning eskirib qolishini oldini olish maqsadida tekshirish va standartlashtirish jarayonlarini amalga oshirish kiradi. Metodikalar va ularning asosiy qismlari gazeta, jumallar hamda risolalarda ularni kengroq yoritish, yoki o'zo'zini baholash uchun nashr qilish man etiladi. A.Anastazi bunday vaziyatlarda nafaqat metodikalarni foydasizligini, balki kishiga psixologik zarar qilishdek katta xatolarga olib kelishini aytib o'tadi.

Yana bir g'arbdagi keng tarqalgan ammo professional talablarga javob bermaydigan faoliyat turi sirtqi, xat orqali testlashtirishdir. Yuborilgan test blanklari orqali kishi tomonidan qobiliyatlar yoki shaxsga oid testlarni bajarish to'g'ri amalga oshirilgan deb, baholab bo'lmaydi. Chunki testlashtirishni nazoratsiz amalga oshirish va boshqa psixologik ma'lumotlarni inobatga olmaslik

kutilayotgan ijobiy natijalardan ko'ra salbiy oqibatlarni yuzaga keltirish ham mumkin.

Tadqiqot natijalarining sir saqlanishini ta'minlanganligi. Shaxsiy testlarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan savol shaxsga daxldor ma'lumotlarga ega bo'lish bilan izoh etiladi. Diagnostiklar uchun bu nozik masalaki, sub'ektning shaxsiy, emotsional, motivatsion xususiyatlarini o'rganishdagi testlar mazmuni, uning baholangan natijalari kishi uchun ma'lum qilinmay, tadqiqotda bu xususiyatlar anglanmagan holda namoyon bo'lishi kerak. Buni uchun kishilar biron-bir tadqiqotda aldangan holda ishtirok etishlari mumkin emas. Bu borada, qo'llaniladigan psixodiagnostik metodlarni kishi tomonidan foydalanish maqsadini, uning usullarini chuqur anglay bilishning o'zi yetarli ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlarning barcha testlari deyarli shaxsning ichki sir-asrorlarigacha bayon etuvchi imkoniyatiga ega. Faqat professional mutaxassisdan vaziyatni inobatga olgan holda o'z mas'uliyatiga suyangan ravishda tadqiqot olib borib, xulosalar qilishtalab qilinadi. Biror korxonaga yoki jamiyatning qiziqishi maqsadida tadqiqot olib borilsa, unda ishtirok etayotgan kishi o'z natijalari qanday baholanishi xususida ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Tadqiqot maqsadidan qat'iy nazar, shaxs haqidagi olingan barcha ma'lumotlar sir saqlanishi A. Anastazi qarashlarida ikkita asosiy tushunchani o'z ichiga oladi: relevantlik va ma'lum etilgan rozilik. Kishi berayotgan ma'lumotlar diagnostikaning maqsadiga mos kelishi kerak (relevantlik). Buning ahamiyati shundan iboratki, barcha amaliy harakatlar aniq, diagnostik maqsad uchun metodika validligini o'rganishga qaratilgandir. Faqatgina mazkur maqsad ma'lumotning validligi va relevantligini ta'minlab bera oladi. «Ma'lum etilgan rozilik» tushunchasi esa shunday tushuntiriladi. Tadqiqotda ishtirok etayotgan kishi tadqiqot maqsadi, olingan natijalar xarakteri hamda keyinchalik ularni qo'llash mumkinligi haqida ma'lum qilinadi. Lekin unga test namunalari yoki bayonnoma blankalari ko'rsatilmaydi, zero bunday ma'lumot bilan test haqiqiyliги va kuchi yo'qolishi mumkin.

Konfidensiallik. Ma'lumotlarni sir saqlash muammosi kabi konfidensiallik muammosi ham barcha psixodiagnostiklarning diqqat markazidagi masalalardan biridir. Bu masalada «Diagnostik natijalarga kimning xuquqi bor?» degan savol doimo ko'ndalang turadi. Bir tomonda, testning asl mohiyatini bayon etmaslik va test baholarini noto'g'ri talqin qilish xavfining mavjudligi bo'lsa, ikkinchi tomonda, turli kishilar uchun tadqiqot natijalarini bilishning ob'ektiv zarurati mavjudligi turadi. Hozirgi vaqtda odamlar tomonidan o'zining tadqiqot natijalariga ega bo'lish xuquqini anglab yetish kuchaydi. Shuningdek, ular o'z javoblariga izoh talab etish imkoniyatiga ham ega. Shu o'rinda psixolog-tashhischi uchun

diagnostik natijalarni noto'g'ri tahlil qilishga qaratilgan chora-tadbirlarga rioya qilish ahamiyatlidir.

Agar tadqiqot tashkilotlarda, masalan maktabda, ishga qabul qilinayotgan vaqtda, sud ishlarida olib borilayotgan bo'lsa, kishi tadqiqot maqsadi, natijalari, kim tomonidan amalga oshirilayotganligi borasida xabardor bo'lishi kerak. Diagnostik natijalar bilan qiziqqan insonlar kabi turli vaziyatlar yuzaga kelishi, misol uchun kollej, korxonada tomonidan tadqiqot o'tkazilgan kishining barcha ma'lumot sifatida natijalarni taqdim etishi so'raladi. Ushbu vaziyatda kishidan ma'lumotlarni taqdim etish uchun rozilik olinadi. Bu maslahatxonadagi, shifoonadagi hatto ilmiy tadqiqot maqsadida amalga oshirilayotgan testlashtirishga ham taalluqlidir. Tadqiqot natijalarini e'lon qilish. Psixologlar tadqiqot natijalaridan mazmunli va yaroqli holda foydalanish uchun ularni qay tarzda ma'lum qilish usullarini izlash bilan mashg'ullar.

Ma'lumki, olingan ma'lumotlarni shundayligicha uzatish mumkin emas. Uni psixologik nuqtai nazardan kelib chiqqan holda amalga oshirish zarur. Test ma'lumotlarini qanday ko'rinishda uzatishdan qa'tiy nazar, majlis sharoitidami, xat orqalimi, yozma ravishdami, eng muhim shartidan biri uni sonlar shaklida emas, balki bajarilganlik darajasini psixologik tahlil qilish orqali amalga oshirish maqsadgamuvofiqdir. Har qanday psixodiagnostik tadqiqotlar natijalarini ma'lum qilishda ma'lumot uzatilayotgan kishining xarakter xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Bu uning bilimlar doirasidagi ma'lumotlilik darajasigagina taalluqli bo'lmay, balki natijalar asosidagi ma'lumotga nisbatan bo'lgan emotsional reaksiyasiga ham aloqadordir. Ya'ni kishiga diagnostik natijalarini yetkazishda nafaqat tahlil orqali, balki ijobiy individual yondashishi bilan emotsional tahlikani ham oldini olishga qaratilgan bo'ladi. Psixolog-tashhisning axloqiy kodeksidagi ijtimoiy-psixologik asoslar. Psixolog har bir tekshiriluvchining mavjudligiga hamda muvaffaqiyatiga katta ahamiyat berishi lozim. U, kishi o'ziga nisbatan va atrofdagilar bilan bo'ladigan yaxshi munosabatlarni o'rnatishdek mas'uliyatni o'ziga oladi. Bunday mas'uliyatlar asosida uning yordamiga muhtoj bo'lgan har qanday kishining tinchi va xotirjamligini qo'riqlash yotadi. Psixologiya fanida «psixologik tashhis qo'yish» so'zining ikki xil tushunchasi mavjud.

Birinchisi, «psixodiagnostika» - amaliyotda turli psixodiagnostik usullardan foydalanish mumkin bo'lgan psixologik bilimlar doirasini ifodalab, u o'z ichiga tashhis jarayonini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadigan quyidagi qator masalalarni qamrab oladi:

1. Psixologik xususiyatlar tabiati va ularni ilmiy baholash imkoniyatlarining mavjudligi qanday?



2. Psixologik xususiyatlarni aniqlash jarayonida va miqdoriy baholash vaqtdagi umumiy bo'lgan ilmiy asoslar holati qay tarzda?

3. Hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan psixodiagnostik usullar qabul qilingan umumilmiy, metodologik talablarga qanchalik mos keladi?

4. Psixodiagnostikaning turli usullariga qo'yiladigan metodologik talablar nimalardan iborat?

5. Amaliy psixodiagnostika, jumladan, tashhis jarayonlarini amalga oshirish sharoitlariga qo'yiladigan talablar, olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish usullarining ishonchlilik darajasini asosligi qanday?

6. Psixodiagnostik metodlarning ilmiyligini tekshirish va ularni yaratish jarayonlari qanday amalga oshadi?

Ikkinchisi, «Psixodiagnostika» - psixologik tashhisning amaliy jihati bilan bog'liq bo'lgan psixologning maxsus faoliyat doirasini o'z ichiga qamrab oladi.

Bunda, nafaqat ilmiy, nazariy balki, psixodiagnostikani tashkillashtirish va uni amalga oshirish jarayoniga aloqador amaliy masalalar yoritiladi. Uning tarkibini:

1. Psixodiagnost sifati psixolog uchun qo'yiladigan maxsus talablarni aniqlash;

2. O'z faoliyatini malakali tashkil etishda kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar tartibini joriy qilish;

3. Psixologning psixodiagnostik metodlarni muvaffaqiyatli va malakali o'zlashtirilishidagi ayrim amaliy shart-sharoitlarni yaratish hamda ularga rioya qilish zarurati;

4. Psixodiagnostik doirada faoliyat ko'rsatadigan psixologni amaliy jihatdan tayyorlash hamda uning kompetentligini baholashda dastur, metod va usullarni ishlab chiqish masalalari tashkil etadi.

Yuqoridagi nazariy va amaliy masalalar bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu sohada yetuk mutaxassis bo'lish uchun psixolog, psixodiagnostikaning har ikkala asoslari bilan yaxshi qurollangan bo'lishi kerak. Faqatgina nazariy, amaliy yoki barcha metodlarning ilmiy asoslarini tushuna bilmasdan mutaxassis sifatida professionalizmga erishib bo'lmaydi. Demak, psixodiagnostika - psixologik-pedagogik diagnostikaning eng yaxshi rivojlangan va muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, unga shaxsning aqliy rivojlanish darajasini aniqlash, o'z-o'zini baholashi, psixologik himoya usullarini shaxs o'zining psixik holatlarini, ularning xarakterining asosiy sifatlarini va boshqa individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgandir. Shaxs rivojlanishining psixologik pedagogik diagnostikasining predmeti shaxs ruhiy xususiyatlari, qobiliyatlarini, ularning rivojlanish, tarbiyalanganlik va ta'limda muvaffaqiyatlilik

darajalarini aniqlash va tashhis qo'yish masalalarini o'rganishdan iboratdir. Psixologik-pedagogik diagnostika kursining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

a) talabalarni psixologik-pedagogik diagnostikaning nazariy asoslari, yo'nalishlari bosqichlari va prinsiplari bilan tanishtirish;

b) diagnostika qilishning turli metodikalarini amalda qo'llashga o'rgatish;

v)shaxslar psixologiyasida, xulqatvorida yuz bergan salbiy o'zgarishlarni tuzatish, ularga yordam berish usullari bilan qurollantirish;

Uning maqsadi – ta'lim va tarbiya jarayonida shakllantirilayotgan shaxsning individual sifatlarini, rivojlantirilishi yoki shakllantirilishi lozim bo'lgan xususiyatlarning mavjudligi

(boshlang'ich) darajasi va o'quv jarayonidagi o'zgarishlar dinamikasini o'rganishdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, psixologik-pedagogik diagnostika predmeti sifatida avvalambor bolaning ta'lim jarayonida (masalan, bilim darajasi) va tarbiya jarayonida (xarakter xususiyatlari) shakllantiriladigan sifatlarni ko'rsatish mumkin.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida bilimlarni baholashning reyting tizimiga o'tish, ta'lim jarayonini takomillashtirish, shu jumladan test metodining bilimlarini baholash usuli sifatida keng qo'llanilishi, turli psixologik metodikalarga, ayniqsa, shaxslarning aqliy rivojlanish darajasini o'rganishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarining oshishi Ruspublikamizda pedagogik va pedagogik-psixologik diagnostikaning nazariy va amaliy jihatdan rivojlanishiga katta turtki berdi.

Psixologikpedagogik diagnostika bugungi kunda maktab, bog'cha va boshqa turli tipdagi o'quv bilim yurtlari psixologlari va pedagoglari oldida turgan muhim vazifalardan, ularning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllanmoqda va rivojlanmoqda. Psixologikpedagogik diagnostikaning rivojlanib kelayotgan fan tarmog'i ekanligi, uning amaliy va dolzarbligi bilan bir vaqtda bu sohani aniq chegaralari, boshqa fanlardan farqi va o'ziga xos xususiyatlari hozircha to'liq tarkib topmaganligini ko'rsatib o'tish lozim. Psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy yo'nalishlari pedagogik amaliyotning talab darajasidan kelib chiqqan holda shakllanmoqda. Shu sababli ham uning yo'nalishlarini bu yo'nalishlarning mohiyatini psixologik-pedagogik diagnostika pedagogik amaliyotning qaysi sohalarida qo'llanilishini ko'rsatmasdan turib to'liq ochib berib bo'lmaydi. Biz quyida psixologik-pedagogik diagnostika qo'llanilishi juda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan bir nechtasini shartli ravishda (hayotda

esa ular umumiy, bitta pedagogik jarayonning ajralmas qismlaridandir) ajratib oldik. Ular quyidagilar:

1. Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi.
2. Boshqarish va amaliyot.
3. Didaktika va xususiy metodika.
4. Pedagogik sotsiologiya.
5. Ijtimoiy psixologiya.
6. Pedagogik psixologiya.

Bu sohalarining asosiy vazifalari, predmeti pedagogik va psixologik adabiyotlarda, o'quv qo'llanmalarida juda keng yoritilmasligini hisobga olib ularga batafsil to'xtalib o'tmaymiz. Yuqorida keltirilgan har bir sohada psixolog yoki shu sohalariga qiziquvchi mutaxassislar ma'lum diagnostik ishlarni amalga oshiradilar. Mana shu ishlar majmuasi psixologikpedagogik diagnostikaning yo'nalishlarini tashkil qiladi. Har bir sohada o'ziga xos diastik ishlar olib boriladi va bu ishlarning mazmuni psixologikpedagogik diagnostikaning yo'nalishlarini tashkil qiladi. Albatta, har qanday fan sohasi o'ziga xos ob'ektga va predmetga va ularga mos keladigan tadqiqot yoki amaliy o'rganish metodlariga, o'z tamoyillariga egadir. Psixologik-pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar va tomoyillar hozirgi zamon psixologiya fani va pedagogika fanida orttirilgan ilmiy, amaliy tajribalar, shakllangan tomoyillar asosida shakllanmoqda. Shu bilan birga o'z xususiyatlariga ega hamdir. Buning sababi pedagogik-psixologik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar va tomoyillar fanda biror yangilik ochishdan ko'ra ko'proq mavjud bilimlar, metodlar, tamoyillarning amalda samarali qo'llanishiga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, psixologik-pedagogik diagnostikaning quyidagi tomoyillarini ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Diagnostika nazariyasi va metodlarining ilmiy asoslanganligi. Diagnostika ob'ektini yaxlit ravishda genetik va tizimli tahlil qilish, ularni modellashtirish, qo'llaniladigan metodikalar, ko'rsatkichlarning ilmiy aniqligini, validligini puxta ishlab chiqilgan metodologik asoslarda ta'minlash. Ilmiy asoslanganlik tamoyili qo'llanilayotgan metodikalarning etnik ijtimoiy muhitga, shu jumladan diagnostika o'tkazilayotgan o'quv yurti va o'quv guruhiga mosligini talab qiladi. Bu tamoyilga amal qilish pedagog-diagnostlarni turli xil yengil, ko'ziga yaxshi ko'ringan yoki qo'lga tushib qolgan metodikalarni bilib-bilmay qo'llashdan saqlaydi.

2. Diagnostikaning izchilligi va aniq yo'nalganligi. Psixologik-pedagogik diagnostika boshqa psixodiagnostik, pedagogik diagnostikadan farqli ravishda aniq yo'nalishga, aniq ob'ekt va maqsadga qaratilgan. Shu sababli diagnostika faoliyati (jarayonining) natijalari umumiy xulosalar, abstrakt mulohazalardanemas, balki aniq shaxsga, aniq guruhga tegishli bo'lishi, diagnostika natijasida aniq xulosa

chiqarib, kamchiliklarni bartaraf qilish, yordam berishning aniq yo'llarini ko'rsatib berish lozim.

3. Diagnostika shakl va metodlarining optimalligi. Qo'llanilayotgan metodikalar, shaxsga yondashish usullarining amaliyotchi psixolog, pedagog yoki pedagog-diagnostga kam kuch va vaqt sarflab muhim, sifatli, katta amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlar yig'ishga imkon berishi. Diagnostikaning shakl va metodlarining optimalligini ta'minlash uchun pedagogikada va psixologiyada ko'p yillar davomida qo'llanib kelayotgan, qulay, oddiy va shu bilan birga samarali metodlarini tanlash zarur.

4. O'rganish ob'ekti haqidagi faktlarni yig'ish, bayon qilish va to'g'ri yo'lga solishning birligi. O'rganilayotgan ob'ekt haqida ma'lumotlar yig'ish, ularni pedagoglarga ko'rsatish va diagnostika jarayonida o'rganilayotgan shaxsga yoki o'quv-tarbiya jarayotakomillashtirishda, kamchiliklarni bartaraf qilishda o'quv yurti rahbarlariga, pedagoglarga ma'lum psixologik, pedagogik yordamlar berish, to'g'ri yo'lga solish, qo'llab-quvvatlash funksiyalarining birgalikda olib borilishi.

5. Diagnostikaning ketma-ketligi va uzluksizligi diagnostikaning bosqichma-bosqich amalga oshira borib, o'quv jarayoniga, shaxsning o'zlashtirishiga xalaqit berayotgan sabablarni ochish, olingan natijalarni keyingi bosqichlarda, o'quv-tarbiya jarayonida uzluksiz foydalanishda yuzaga chiqadi.

6. Diagnostika metodlari va jarayonlarining qulayligi va ommabopligi. Diagnostika metodlarining oddiyliigi, pedagoglar, amaliy psixologlar, o'quv yurti rahbarlari, tekshiriluvchi uchun qulayligi, ularda diagnostikaga nisbatan qiziqish, intilish uyg'otishga xizmat qilishini ta'minlovchi tamoyil.

7. Didaktikaning har tomonligi (kompleksliligi). Bu tamoyil shaxs shaxsini, o'zining individual psixologik xususiyatlarini, ruhiy jarayonlarining rivojlanganlik darajasini, o'quv faoliyatining boshqa xususiyatlarini o'rganish uchun tanlangan metodlar va metodikalar shaxsning bir butun har tomonlama o'rganish, ta'riflash, yondoshish imkonini berishda yuzaga chiqadi. Diagnostik metodikalar bir-biri bilan bog'liq bo'lishi, bir-birini to'ldirishi bu tamoyilning asosiy tadbirlaridan biridir.

8. Diagnostikaning shaxs rivojlanishining kelajagini, oqibatlarini oldindan ko'ra olish (prognoz qilish) imkonini bera olish.

**2. Shaxsning rivojlanishida diagnostik tadqiqotlarni tashkil qilish va o'tkazishga pedagogik yondashuv**

Tajriba o'tkazish davomida rioya qilish kerak bo'lgan talablar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Sinaluvchilarga ko'rsatmalarni yozma ravishda bir xil tarzda ma'lum qilmoqlik, og'zaki shaklda berilgan taqdirda esa aynan o'sha so'zlar yordamida bir xil tarzda eshittirilishi;

2. Biror sinaluvchiga boshqalarga nisbatan hech qanday imkoniyat yaratmaslik;

3. Eksperiment davomida ayrim sinaluvchilar uchun qo'shimcha tushuntirilishlar

berilmaslik;

4. Turli guruhlar bilan bo'ladigan eksperiment doimo imkon darajasida bir xil vaqtda va bir sharoitda o'tkazilishi;

5. Barcha sinaluvchilar uchun topshiriqlarni bajarish vaqti bir xil belgilanishi va hokazo; Odatda metodika mualliflari uning o'tkazilish jarayoni haqida aniq ko'rsatmalar beradilar. Diagnostik metodikalar tadqiqot metodlaridan shu bilan farqlanadiki, bu meikalalar standartlashgan holda bo'ladi. Standartlashtirish - testni o'tkazish va bajarishni baholash jarayonining bir xilligidir. U ikki xil tarzda izoh etiladi: eksperiment jarayoniga yakka talablarni ishlab chiqish va diagnostik sinovlar natijalarini baholashdagi yakka mezonni (kriteriy) aniqlash.

Diagnostik metodlarni adekvat ishlab chiqish uchun eksperiment o'tkazish sharoitlarini va uning natijalari tahlilini maksimal darajada standartlashtirish lozim bo'ladi. Eksperiment shartlarini standartlashtirishga quyidagilar kiradi:

a) eksperimentni o'tkazish;

b) instruksiya;

v) testlashtirish jarayonining tasviri.

Diagnostik eksperimentlarni standartlashtirish jarayoni o'tkaziladigan tadqiqotning shart-sharoitlari, ko'rsatmalari, blankalari, qayd qilish usullarini bir xil shakldagiligini anglatadi.

Metodikalarni standartlashtirishning yana bir muhim bosqichi diagnostik tadqiqotning natijalarini taqqoslash mumkin bo'lgan mezonlarni tanlashdan iborat bo'ladi. (Chunki diagnostik metodikalarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bajarishda oldindan tayyorlangan standartlari mavjud bo'lmaydi). Umuman, diagnostik metodikalarning normaga asoslangan holda standartlashtirilishi bu metodika mo'ljallangan guruhdan farqlanmaydigan boshqa kattaroq sinaluvchilarda o'tkazish bilan amalga oshirilishidir. Saralangan standartlashtirishda sinaluvchilar guruhida maxsus normalar ishlab chiqiladi, bunda ulardagi xususiyat berilgan topshiriqning nafaqat o'rta bosqichida, balki undan kam yoki ko'p jihatli bosqichida ham aniqlanadi. Natijada diagnostik tajribani muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bajarilishining turli bosqichlarini baholash.

Bu esa konkret sinaluvchining saralangan standartlashtirishga nisbatan holatini aniqlashga imkon beradi. Ma'lumotlarni to'plash bosqichi. Diagnostik metodlar yordamida ma'lumotlar to'plash jarayoni o'rganilayotgan xodisa va kishi haqidagi ob'ektiv va sub'ektiv ko'rsatkichlar to'plami bilan tanishishdan boshlanadi. Barcha mashhur psixodiagnostik metodikalar mualliflari tadqiq qilinayotgan sinaluvchining o'tmish va hozirg hayoti haqida mukammal o'rganib chiqishga katta ahamiyat beradilar. Bu bila tadqiqotning asosiy foni yaratiladi, tashhis va tahlil uchun zarur bo'lgan shaxsning umumiy obrazi elementlari belgilanadi. Vaholanki, psixodiagnostik jarayon «tadqiqotchisinaluvchi» kabi o'zaro munosabat tizimini yaratar ekan, adabiyotlarda ushbu tizimga oid daxldor turli o'zgaruvchanlar ta'sirini tahlil qilishga diqqat qilinadi. Odatda vaziyatli o'zgaruvchanlar, tadqiqot va vazifaning o'zgaruvchan maqsadlari, tadqiqotchi va sinaluvchining o'zgaruvchanlari ajratadi. Bu ko'rsatkichlar ahamiyati katta bo'lsada, ularning ahamiyati tadqiqot o'tkazishda, uni tahlil qilishda va olingan natijalarni qo'llay bilishda inobatga olinishi lozim. Ma'lumki, testlashtirish jarayoniga kuchli ta'sir etuvchi hamma omillarni ham nazorat qilib bo'lmaydi. Ammo testlashtirish jarayoniga tayyorgarlikda kutilmagan vaziyatlarni yuzaga kelishini inkor etish hamda ushbu jarayonni bir maromda o'tkazishni ta'minlashdan iborat. Testdan foydalanayotgan psixolog, sinaluvchi havola etilayotgan topshiriq va vazifalarga barcha diqqat-e'tiborini yo'naltirilganligiga, ularni hal etishda barcha kuch-quvvatlarini safarbar etishlariga to'la ishonch hosil qilishi kerak.

### **1. Diagnostika nazariyasi va metodikalarining ilmiy asoslanganligi.**

Diagnostika ob'ektini yaxlit ravishda genetik va tizimli tahlil qilish, ularni modellashtirish, qo'llaniladigan metodikalar, ko'rsatkichlarning ilmiy asoslanganligi, olingan natijalar va ularning interpretatsiyasining ishonchliligi, aniqligi, validligini puxta ishlab chiqilgan metodik asoslarda ta'minlash. Ilmiy asoslanganlik tomoyili qo'llanilayotgan metodikalarning etnik, ijtimoiy muhitga, shu jumladan diagnostika o'tkazilayotgan o'quv yurti, o'quv guruhi va auditoriyaga mosligini talab qiladi. Bu tamoyilga amal qilish pedagogikdiagnostikalarni turli xil yengil, «ko'ziga yaxshi ko'ringan» yoki «qo'lga tushib qolgan» metodikalarni bilib-bilmay qo'llashdan saqlaydi.

**2. Diagnostikaning izchilligi va aniq yo'nalganligi.** Psixologikpedagogik diagnostika boshqa psixodiagnostik va pedagogik diagnostikadan farqli ravishda aniq yo'nalishga, aniq ob'ektga va maqsadga qaratilgan. Shu sababli diagnostika faoliyati (jarayonining) natijalari umumiy xulosalar, abstrakt mulohazalardan emas, balki aniq shaxsga (masalan, talaba), aniq guruhga tegishli bo'lishi,

diagnostika natijasida aniq xulosa chiqarib, kamchiliklarni bartaraf qilish, yordam berishning aniq yo'llarini ko'rsatib berishi lozim.

**3. Diagnostika shakl va metodlarining optimalligi.** Qo'llanilayotgan metodikalar, talabaga yondashish usullarining amaliyotchi psixolog, pedagog yoki psixodiagnostga kam kuch va vaqt sarflab, talaba haqida muhim, sifatli, katta amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlar yig'ishga imkon berishidir. Diagnostikaning shakl va metodlarining optimalligini ta'minlash uchun psixodiagnostikada ko'p yillar davomida qo'llanilib kelayotgan, qulay, oddiy va shu bilan birga samarali metodlarini tanlash hamda qo'llash zarur.

**4. O'rganish ob'ekti haqida faktlarni yig'ish, bayon qilish va to'g'ri yo'lga solishning birligi.** O'rganilayotgan ob'ekt haqida ma'lumotlar yig'ish, ularni pedagoglarga ko'rsatish va diagnostika jarayonida o'rganilayotgan talabaga yoki ta'limtarbiya jarayonini takomillashtirishda, kamchiliklarni bartaraf qilishda o'quv yurti rahbarlariga, pedagoglarga ma'lum psixologikpedagogik yordamlar berish, to'g'ri yo'lga solish, qo'llab-quvvatlash vazifalarning birgalikda olib borilishidir.

**5. Diagnostikaning ketmaketligi va uzluksizligi.** Diagnostikaning bosqichmabosqichamalgacha oshira borish, o'quv jarayoniga, talabaning o'zlashtirishiga halaqit berayotgan sabablarni ochish, olingan natijalardan keyingi bosqichlarda, ta'lim-tarbiya jarayonida uzluksiz foydalanishda yuzaga chiqadi.

**6. Diagnostika metodlari va jarayonlarining qulayligi va ommabopligi.** Diagnostika metodlarining oddiyligi, amaliy psixologlar, pedagoglar, o'quv yurti rahbarlari, tekshiriluvchi uchun qulayligi, ularda diagnostikaga nistaban qiziqish, intilish uyg'otishga xizmat qilishini ta'minlovchi tamoyildir.

**7. Diagnostikaning har tomonliligi (kompleksliligi).** Bu tamoyil talaba shaxsini, uning individualpsixologik xususiyatlarini, psixik jarayonlarining rivojlanganlik darajasini, o'quv faoliyatining boshqa xususiyatlarini o'rganish uchun tanlangan metodlar va metodikalar talabani bir butun holda, har tomonlama o'rganish, ta'riflash, yondashish imkonini berishda yuzaga chiqadi. Diagnostik metodikalar bir-biri bilan bog'liq bo'lishi, bir-birini to'ldirishi bu tamoyilning asosiy talablaridan biridir.

**8. Diagnostikaning talaba rivojlanishining kelajagini, oqibatlarini oldindan ko'ra olish (bashorat qilish) imkonini bera olishi.** Har qanday psixologik-pedagogik diagnostika talabaning kechagi yoki bugungi kundagi rivojlanish darajasini, o'quv jarayonining tashkil qilganlik darajasini ko'rsatib berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Shu holdagina, bashorat mohiyatidan kelib chiqqan holda ta'limtarbiya jarayonida yo'l qo'yilayotgan xatolar, talaba taraqqiyotidagi ko'zga tashlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, to'g'ri yo'lga solish imkoniga ega

bo'lamiz. Shu sababli psixologikpedagogik diagnostika metodlarining prognostik bo'lishi eng muhim talablardan biridir.

**Diagnostika - Tashxis-bu..Tashxis (yunon. diagnostikos-tan ega) - aniqlash va maqsadli o'rganish, natijalarini talqin va xulosa (tashxis) shaklida umumlashtirish iborat xususiyatlari, xususiyatlari va inson holatini baholash jarayoni. Tashxis sog'liqni saqlash, jismoniy va aqliy rivojlanish, kasbiy fitness, shuningdek, inson faoliyatining boshqa sohalarida baholash uchun ishlatiladi.**

**Psixologik diagnostika — psixodiagnostika)-shaxsning shaxsiy psixologik xususiyatlarini va insonning aqliy faoliyatini baholash. Psixofizyologik diagnostika-kognitiv funksiyalar va ularni amalga oshirishni ta'minlaydigan fiziologik jarayonlarning rivojlanish xususiyatlarini baholash, eegning instrumental usuli, kompyuter tomografiyasi, avtonom nerv sistemasini baholash usullari, sensorimotorika, neyropsikologik test, kognitiv faoliyatning rivojlanish darajasini sinash. Diagnostikaning mantiqiy davom etishi prognozlash, oldini olish, optimallashtirish, tuzatish (tibbiyotda — davolash), rivojlanish dasturlari (masalan, bolani maktabga rivojlantirish dasturi).**



**Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab va oilaning xamkorligi. Ijtimoiy tarbiya jarayonining mazmun- mohiyati. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir**  
**Reja**

**1. Bolalarni maktabga tayyorlashda maktabgacha tarbiya muassasa va maktab hamkorligi.**

**2. Bolalar MTMSi bilan maktab o'rtasidagi aloqaning mazmuni va shakllari.**

**3. Maktabgacha ta'lim muassasining oila bilan hamkorlikdagi ishining mazmuni va usullari.**

**Tayanch tushunchalar:** maktabga tayyorlash, maktab hamkorligi, maktab o'rtasidagi aloqaning mazmuni va shakllari maktab o'rtasidagi aloqaning mazmuni va shakllari, oila bilan hamkorlikdagi ishining mazmuni.

**1. Bolalarni maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasa va maktab hamkorligi.**

Bolalar MTMSi bilan maktab o'rtasida o'rnatiladigan xamkorlikning xar tomonlamaligi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir.

Bolalar MTTsi va maktab o'rtasidagi bog'liqlik bir tomondan bolalarni maktab ta'limi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirib va odobli qilib tarbiyalagan xolda maktabga o'tkazishni, ikkinchi tomondan, o'qituvchining katta vMTT yoshidagi bolalarning egallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, ulardan o'quv tarbiyaviy jarayonda foydalanishni taqozo etadi.

Bolalar MTTsi va maktab o'rtasidagi o'zviy bog'liqlik katta MTM yoshidagi bolalar va maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi.

Maktabgacha tarbiya muassasa xodimlari birinchi sinfda bolalar oldiga qo'yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhiidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta'lim olishga tayyorlashlari kerak.

Maktab va MTT o'rtasidagi o'zviy aloqa murakkab va ko'p tomonlama to'zilishga ega. Unda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedagogik talab kabi etakchi tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Bunda quyidagilarga etibor berish kerak:

- Maktab talabi nuqtai nazaridan bolalar bilimlarni chuqurroq egallab olishlari lozim.

- MTTnuqtai nazaridan bolalarni maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish zarur.

- Bolalarni maktabga ruxiy tayyorligi. Bu erda vazifa bolalar mehnatning har qanday turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat- bilishga qiziqishni o'stirish, ularni kelajakdagi mustaqil hayotga tayyorlashdan iborat.

Maktab bilan MTT o'rtasida uzviy aloqa asosini bolalar MTMsi va maktabda amalga oshiriladigan ta'lim – tarbiya ishlari mazmunini belgilovchi dasturlar o'rtasidagi bog'liqlik tashkil etadi.

Hozirgi boshlang'ich sinflar dasturi bilan MTM dasturini olib solishtiradigan bo'lsak, ular o'rtasida birqancha o'zaro bog'liqlikni ko'ramiz. Bu eng avvalo dasturlarda asos qilib olingan prinsiplarning umumiyligi bilan belgilanadi. Ularning mazmuni bolalarni har tomonlama tarbiyalash maqsad va vazifalariga mos kelish prinsipi, hayot bilan bog'liqlik, ilmiylik prinsiplari, ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyatga egaligi va falsafiy, ruhiy nuqtai nazarlarning birligida namoyon bo'ladi.

Birinchi sinf o'quv dasturi ayrim predmetlar bo'yicha bolalar MTMsi dasturi bilan solishtirganda ularda umumiylik ko'pligini ko'ramiz. Masalan, bolalar MTMsida ona tiliga o'rgatish va boshlang'ich sinflardagi ona tili darsiga bolalar nuqtai har tomonlama rivojlantirish kabi umumiy g'oya asos qilib olinadi.

Bolalar MTMsi bu ish bolalarning lug'atini boyitish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, ifodali o'qishga o'rgatish, bog'langan nutqni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Maktabda esa bolalarda mana shu MTMda egallangan bilim, malaka, tushunchalarga asoslanib, yozma nutq malakasi, orfografiya xat malakasi shakllantiriladi, ularga morfologiya va sintaksis elementlari o'rgatiladi. SHu bilan bir qatorda MTMda boshlangan bolalar lug'atini boyitish, nutqning ifodaliligi, bog'langan nutqni rivojlantirish davom ettiriladi.

Bolalar MTMsida ham, maktabda ham tabiatshunoslik to'g'risidagi bilimlar organizm bilan muhitning birligi to'g'risidagi umumiy g'oyaga asoslangan holda olib boriladi. SHu asosda bolalarga jonli va jonsiz tabiat, tabiat va kishilar o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida bilim va tushunchalar beriladi.

**Bolalarni maktab va o'quvchilar hayoti bilan tanishtirish.** Bolang'ich sinf o'quvchisi va MTMning tayyorlov guruhii tarbiyachisi tayyorlov guruhii bolalarini maktab bilan tanishtirish bo'yicha ekskursiya uyushtiradilar. Bunday ekskursiyalar yil davomida 3 marta o'tkazilishi mumkin. Ekskursiya paytida katta va tayyorlov guruhi bolalari maktab o'quvchilari bilan tanishadilar, ular MTM bolalariga o'zlarini maktabdagi o'qishlari, ishlari to'g'risida gapirib beradilar; o'quvchilar

xonasini qanday bezaganliklari, tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni qanday parvarish qilayotganliklari, ustaxonada qanday ishlarni bajarayotganliklarini ko'rsatadalar.

Ish shakli quyidagicha bo'lishi mumkin:

- sinfda «Rasmga qarab so'zlab berish» mavzusidagi dars – mashg'ulotni birga o'tkazish. Sport maydonchasida yoki sport zalida maktabdagi jismoniy tarbiya mashg'ulotini birga bajarish;

- birinchi sinf o'quvchilari va tayyorlov guruhi bolalari ishlagan rasmlarni birgalikdagi ko'rgazmasini tashkil etish;

- maktab ustaxonasida o'quvchilarni mehnat mashg'ulotini kuzatish. O'quvchilar o'zlari tayyorlagan o'yinchoqlarni MTM bolalariga sovg'a qilishadi;

- maktabda o'qiyotgan bolalar o'z MTTsiga kelishadi;

- «Maktab» o'yini tashkil etish.

- Bolalar MTMSi tarbiyachisi va boshlang'ich sinf o'quvchisi faoliyatiga izchillik yaqqol namoyon bo'ladi. Biri bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishni boshlaydi, ikkinchisi davom ettiradi. Maktab bilan MTM o'rtasidagi aloqa mustahkam bo'lgandagina bola tarbiyasidan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

## **2. MTT bilan maktab o'rtasidagi aloqaning mazmuni va shakllari.**

MTM va maktab o'rtasidagi aloqa ikki yo'nalishda olib boriladi:

- Bolalar MTMSi bilan maktabning pedagoglar jamoasi o'rtasidagi aloqa.

- MTM bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilarini bir-birlariga

yaqinlashtirish.

- Tarbiyachilar boshlang'ich sinfda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmunini, o'ziga xos tomonlari bilan tanishadilar, natijada MTMda bolani maktab talabi darajasida tayyorlash istiqbollari belgilab olinadi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari katta va tayyorlov guruhlarida olib boriladigan ishlar mazmuni bilan tanishib boradilar va maktabda ta'lim berishda bolalar egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarga asoslanadilar.

Bolalar MTMSi bilan maktab pedagoglarining o'zaro aloqa o'rnatishlaridan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni zamon talabiga javob beradigan darajada maktab ta'limiga tayyorlash uchun o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab bilan MTM o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun bolalar MTMSi va maktabda olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni chuqur taxlil qilib, bu soxada yuqori natijalarga erishishdir.

Bolalar MTMSi bilan maktab pedagogik tashviqot, metodik va amaliy masalalar yuzasidan bir-biri bilan aloqa bog'laydi. Pedagogik tashviqot ishlari bolalar MTMSi maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachisining va birinchi sinfda olib

boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar vazifasi bilan tanishtirishni, maktabga tayyorlov guruhi va 1-sinf dasturi mazmunini, tayyorlov guruhi bolalari va maktabdagi 1- sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Bolalar MTMsi bilan maktab o'rtasidagi uzviy aloqaning pedagogik vazifasi MTMning tayyorlov guruhida va maktabning 1-sinfida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishdagi faoliyat shakllari va usullari bilan o'zaro tanishishni taqozo etadi.

Bu masalada MTMning tayyorlov guruhii tarbiyachilari maktabning 1-sinfida olib borilayotgan darslarni ko'zatadilar va dars, mashg'ulotlardan keyin birgalikda yig'ilishib uni muxokama qiladilar, ayrim metodikalar bo'yicha seminar-praktikularda qatnashadilar: ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashish, brlarni maktabga tayyorlash bo'yicha yoki 1-sinfda bolalarga bilim berish bo'yicha pedagogik kengashlarni o'tkazadilar.

Bolalar MTMsi bilan maktab o'rtasidagi aloqaning amaliy vazifasi, shundan iboratki, bir tomondan, o'qituvchi MTMning tayyorlov guruhiga borib o'zining bo'lajak o'quvchilari bilan tanishib boradi, ikkinchi tomondan, tayyorlov guruhi tarbiyachilari o'zlarining sobiq tarbiyalanuvchilarini birinchi sinfda qanday o'qiyotganini o'rganib boradilar.

Bolalar MTMsi bilan maktab o'rtasidagi uzviy aloqa samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga amal qilish lozim. MTM bilan maktab o'rtasidagi aloqa izchil amalga oshirilib borilishi, u uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi, amalga oshiriladigan ishlar, hal qilinadigan masalalar rejali tusda bo'lishi zarur.

Hamkorlik asosini birgalikda ishlash bo'yicha tuzilgan istiqbol rejasi tashkil etib, unda o'zaro aloqaning bosh vazifasi, mazmuni, ish shakllari, vaqti, bajarish uchun javobgar shaxslar ko'rsatilishi lozim.

Maktab bilan MTM yil davomida mana shunday aloqa o'rnatib borishi natijasida ta'lim-tarbiyaviy ishlar yaxshi natija beradi.

Bolalarni maktab o'quvchilariga yaqinlashtirish shakllari ham xilma-xil: maktabga ekskursiya uyushtirish, sinf xonasiga, kutubxona, bayram ertaliklari o'tkazish va boshqalardir.

Rejalar aniq, mazmunli bo'lsa va og'ishmay amalga oshirilib borilsa, birgalikdagi ishlar bo'yicha istalgan natijalarga, muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Bu esa bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, ularning maktabda qiynalmay o'qib ketishlarida yaxshi samara beradi.

### **3. Maktabgacha ta'lim muassasining oila bilan hamkorlikdagi ishining mazmuni va usullari**

MTMning ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka xolda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. MTMni xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllaridan bir qanchasini keltiramiz:

**1. Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash.** Ilg'or pedagogik tajribalarni ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib ularni o'zining tarbiyaviy ishida xisobga oladi. MTMlarimiz tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan; oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning MTMhayoti bilan tanishishlari.

**2. Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar.** Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

**3. Ko'rsatmali ishlar.** Ishning bu turi ko'rgazmali, bolalarni ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari bo'yicha materiallar solingan papka.

**4. Ota-onaga pedagogik ta'lim berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.**

**Tarbiyachining oilani borib ko'rishi.**

Bola yashab turgan oilani o'rganish ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsad bola yashayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa ota-onalarga yordam ko'rsatishdir. Oilani borib ko'rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odat bilan o'tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlarini ochib berilsa, ota-onalarning tarbiyachiga bo'lgan hurmati va ishonchi ortadi. Tarbiyachi bolaning uyida ko'rganlarini qayd qilish bilan bir qatorda ularni tahlil qiladi, ota-onalar majlislarida oilaviy tarbiyadagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida gapiradi. Ularga o'zining maslahatlarini beradi. Oila tarbiyasidagi ijobiy ishlarni ota-onalar uchun tashkil etilgan testlarda aks ettirish ham mumkin. Oilani borib ko'rgandagi taassurotларini tarbiyaviy ishlarni hisobga

olish ustuniga yozib qo'yishi kerak Oilaga kamida yiliga 2 marta borib ko'riladi tarbiyachining oilaga borishi ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshiradi.

Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar. Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun kuzatish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar bilan ota-onalarni bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga yordam beradi. Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo'ladi, shuningdek uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Ota-onalardan bola kechqurun qanday kayfiyatda bo'lganini, qanday uxlaganini bola o'zini qanday sezishni so'rash foydali. Tarbiyachi ota-onalarga bolalarni bugun guruhda nimalar kutishi xaqida qisqacha axborot beradi. Bu narsa bolani kayfiyatini ko'taradi, ota-onani xotirjam qiladi. Ota-onalar bilan kechki suhbatlar ham vaqt jihatidan cheklangan, ota-onalar bilan kechki suhbat vaqtida tarbiyachi bolaning tashqi ko'rinishiga taaluqli kamchiliklar aytilishi mumkin. Bolani guruhda kunni qanday o'tkazgani, nimalar bilan mashg'ul bo'lgani, o'zini qanday tutgani, nimaga e'tibor berish kerakligini xaqida axborot beradi. Ota-onalarni bola tarbiyasida yo'l qo'ygan biror kamchilik va xatosini tahlil qilish uchun ular bilan yanada mufassal suhbat o'tqazish zarurati tug'ilganda vaziyatni tuzatish uchun malakali maslahat hamda tavsiya berish kerak bo'lganda maslahatlar o'tkaziladi.

### **Gurubiy maslahatlar va majlislar.**

Agar tarbiyachiga aynan bir masala bir nechta ota onani qiziqtirayotgani ma'lum bo'lsa, ular uchun umumiy maslahatlar tashkil etadi. Pedagog maslahatga oldindan tayyorlanadi: zarur adabiyotlarni va ko'satmali materiallarni tanlaydi. Maslahat o'tkaziladigan aniq vaqt haqida ota-onalarini ogohlantiradi. Bunday maslahatlar onda-sonda va muntazam o'tkazilishi mumkin. Ota-onalarning gurubiy majlislari zaruriyatiga qarab yil choragida bir marta o'tkaziladi. Bunday majlislardan maqsad ota-onalarni aniq pedagogik masalalar bilan tanishtirishdir. Ularda mazkur guruhdagi bolalarni tarbiyalash masalalari muhokama qilinadi, guruh ishi bilan bog'liq tashkiliy masalalar qarab chiqiladi, ota-onalarning bayramda ishtirok etishlari haqida gapiriladi.

Majlislar mavzusini belgilashda va unga tayyorgarlik ko'rishda ota-onalari taklif etilayotgan bolalarni yoshini xisobga olish zarur. Shu munosabat bilan o'yin yoki mehnat faoliyatlari haqida masalalar ko'proq o'rin egallash mumkin. Ota-onalarning umumiy majlisi maktabgacha ta'lim muassasalari hamma tarbiyalanuvchilarining ota-onalari uchun yiliga ikki marta o'tkaziladi. Ularni maktabgacha muassasa mudirasi, vrach, tarbiyachilar ishtirokida tashkil etiladi.

**Maktabgacha tarbiya yoahidagi bolalar har tomonlama rivojlanishida oila, maktab, maktabgacha ta'lim tashkiloti va mahallaning o'ruhi MTTda, oilada olib boriladigan ta'lim ishining metod va shakllari mazmuni uzviyligi**

### **Reja**

- 1. Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bolani maktabga tayyorlashda maktab va oilaning roli.**
- 2. Tarbiya qonuniyatlari, tarbiyaning mazmuni va maqsadi.**
- 3. Tarbiya metodlari va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiyasi.**

Bolani qachon va qancha tayyorlash kerakligi haqida kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik ota-ona va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolungacha tayyorlashni kuchaytirish kerak deb hisoblashadi. Ammo boshqalar faqat maktabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak deb aytishadi. Ba'zi ota-onalar bola bog'chaga borishi bilan maktabga tayyorgarlik boshlanadi, deb o'ylashadi.

Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bog'cha tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga bi-noan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e'tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir sistemaga solishadi, qo'llarning mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo.

Lekin, oila bola tug'ilishidan keyin yashaydigan birinchi ijtimoiy muhit. Oilada bola o'zining birinchi ijtimoiy tajriba va malakalarini orttiradi, ota-ona va kattalar namunalari orqali tarbiyalanadi, oilaviy rishtalarni tushunib yetadi va qadrlaydi. Shuning uchun bolani maktabga tayyorlashda oila hal qiluvchi, mu-him ahamiyatga ega. Ota-onalarning ko'pchiligi bolani maktabga tayyorlashda bog'cha bilan oilaning hamkorligi zarur deb hisoblashadi. Ba'zi ota-onalar esa bolani maktabga tayyorlashda javobgarlikni bog'chaga yuklashadi, ba'zilari esa butun javob-garlikni o'z bo'yniga olishadi.

Y.A. Kamenskiy o'zining «Onalar maktabi» kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o'ylab, o'z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

- 1. Bolalarda maktabga borganda, o'z tengdoshlari bilan o'qigan va o'ynaganda xursandchilik hissini tug'dirish.**
- 2. Bolalarga maktabdagi ta'limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.**

3. Bolalarda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirda ota-onalar bolalarni maktabga qanday tayyor-lashmoqda. Ota-onalarning ko'pchiligi maktabda yaxshi o'qishning shartlaridan biri shaxsning umumiy rivojlanishi deb hisoblashadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingi o'ringa bolaning o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlatishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi. Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullantirishadi.

Xulosa qilib aytganda, bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi ijobiy natija beradi.

Tarbiya qonuniyatlar, tarbiyaning mazmuni va maqsadi.

Tarbiya-inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi.

Tarbiya muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tjonlama o'stirish,uning ongi,xulq atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.Insoning jamiyatda yashashi ushun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi.

Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq tarbiyalanuvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim,ko'nikma va malakalar,shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni shahsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo'lib,ijtimoiy-iqtisodiy tarqqiyot,kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi,shuningdek,jamiyat mafkurasi g'oyalari asosida belgilanadi.

Tarbiya maqsadining aniqligi ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi- erkin, ijodkor,mustaqil fikr egasi bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.Ushbu maqsadga erishish yolidagi asosiy vazifa —bu bolaga umumiy madaniyat unsurlari,ya'ni bolaning aqliy,axloqiy,jismoniy,estetik,iqtisodiy,ekologik,huquqiy,mehnat hamda gender tarbiyalashdan iborat

1. Tarbiya qoidalari va ularning mohiyati:

a) Tarbiyaning maqsadga qaratilganlik qoidasi

b) Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi.

c) Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorlik qoidasi.

d) Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va

uzluksizlik qoidasi.



2. Tarbiya usullari haqida tushuncha:

a) Ijtimoiy ongini shakllantirish usullari.

b) Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari.

s) O'z-o'zini tarbiyalash usullari.

d) Rag'batlantirish va jazolash usullari.

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni va qoidalari mavjud. Xo'sh, tarbiya qoidalari nima uchun kerak ekan?

Tarbiya qoidasi - pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari-o'qituvchi va tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Tarbiya qoidalariga quyidagilar kiradi:

**Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganlik qoidasi.** Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollari ko'ra bilishga yordam beradi.

**Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi.** Oqituvchining bilim saviyasi ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda Qur'oni Karim, Hadisi Shariflardan foydalanish juda muhim. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smirning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya obyektini emas, xuddi o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi. Shaxsning rivojlanishi va o'zligini anglashni ta'minlaydi.

**Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi qoidasi.** O'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish juda muhim. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan, boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilar go'zal axloq,

baxt, insof, poklik, mehr-shavqat, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik - o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, do'stlik, ota-onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlamini qamrab oladi. Shu sababli, insondagi eng yaxshi fazilatlar avloddan - avlodga ko'chib kelgan.

**Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik qoidasi.** Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zi bu talabni unutib qo'ysa, bu hoi tarbiyaga yomon ta'sir qiladi. O'qituvchi subutli, o'z lafziga sobit bo'lmog'i kerak. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, unda ota-ona, o'qituvchi, jamoatchilik qatnashadilar. Shu sababli, ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarni (oila, maktab, o'quvchilar jamoasi, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, keng jamoatchilikni) birgalikda ish ko'rishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Bola o'qishni, tarbiya olishni ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilishi kerak, shu bilan birga, bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim.

**Tarbiya usuli** tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat hamda o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning bilish, ko'rgazmalari, o'yin, eng oddiy faoliyat turlari va muomilasi shakllanadi.

### **Nazorat savollari**

1. **Tarbiya muayyan aniq maqsadi ?**
2. **Tarbiya metodlarini sanab izohlab btring.**
3. **Bolani tarbiyalash va rivojlantirishda tarbiya va faoliyatlarning roli.**
4. **Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak?**

## **Kasbiy muloqat, kasbiy mahorat, tarbiyachi, uslubchi, mudira faoliyati va uni boshqaruvi. Kasbiy kompetensiya.**

### **Reja**

- 1 Kasbiy kompetentlik tushunchas vuning pedagogik aoliyatnirivojlantirishdagi ahamiyati**
- 2 Kasbiy muloqat, kasbiy mahorat**

Pedagogik mahorat-bu -tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, hayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy, (bilimdonligi, zo'qkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, o'quvchi-yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab-topib amaliy faoliyatida qo'llashida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini o'zlashtirishi hamda insoniylik va fidoiylilikni o'zida tarkib toptirishga intilishi lozim. Shuni alohida qayd qilib o'tmoq zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va qiyindir. Ushbu kasbning qiyin va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo tirik, ongi jonzot bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzot esa ham aqliy, ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun o'quvchi bilan doimo muloqotda bo'lish, unga ta'sir ko'rsatish, undan psixologiya, tarbiya nazariyasini mo'qammal bilishni taqozo qiladi. Bu o'qituvchidan pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega bo'lish lozimligini ta'kidlaydi.

Entsiklopediyada yozilishicha "Faoliyat - atrofda olamga nisbatan insonning o'ziga xos aktiv munosabati shakli. Odamni maqsadga muvofiq va qayta o'zgartirish faoliyatning mazmunini tashkil etadi. Har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat. Har qanday faoliyat singari o'qituvchilik faoliyati ham maqsad, usul, vosita, ob'ekt va sub'ekt majmuasidir. Pedagogik maqsad o'qitish, tarbiyalash asosida ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishni, usul tarbiyalanuvchilar obro'siga, hurmatiga sazovor bo'lishni, pedagogik mehnat ob'ekti sifatida - O'qituvchining shaxsi (xarakteri, irodasi, hulq-odobi, tafakkuri va h.k.) Sub'ekt sifatida tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi. o'qituvchi o'qituvchilarni borliq bilan tanishatirar ekan, ularga tabiat-jamiyat va tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlari haqida tushuncha berar ekan, avvalo mana shu jarayonlarini o'z faoliyatining ob'ektiga aylantiradi. Darhaqiqat, pedagogik faoliyat - bu o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari bilan amalga

oshiriladigan professional aktivligidir. O'qituvchi mazkur faoliyat jarayonida o'qitadi, yo'l-yuriqlar ko'rsatadi, tarbiyalaydi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qiladi, Prezident, hO'qumat farmoyishlarini targ'ibot qiladi, o'z malakasini oshirish uchun mustaqil bilim olishni rejalashtiradi, oqibat natijada o'zi ham kamol topadi, o'quvchilarni ham kamol toptiradi.

Qayd qilib o'tilganlar bevosita va bilvosita pedagogik mahoratni shakllantirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik faoliyat aniq ko'rinishda bo'lsa o'qituvchi o'qitish, tarbiyalash va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish vazifalarini aniq hal etishga harakat qiladi. Mazkur jarayonda faoliyat aqliy-ruhiy jihatdan ta'sir ko'rsatish, natijalarni nazorat qilish, tahlil qilish va baholash hamda yangi vazifalarni belgilash uchun tayyorlanish bilan chegaralanadi. Bilimlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishi ta'minlanadi. Oqibat-natijada jamiyat talabi va vazifalari bajariladi. Bunday jarayonni tashkil qilish uchun o'qituvchi o'z oldiga turgan jamiyat talabiga molik bo'lgan vazifalarni anglashi, vaziyatni tushunishi, har bir o'quvchining o'zlashtirish jarayonini rivojlantirib, shaxs darajasiga ko'tarilish mezonlarini aniq ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor. Bu o'qituvchidan katta tajriba va bilim talab etadi. Buning uchun mahorat zarurdir. Pedagogik mahoratni egallagan o'qituvchi ko'p mehnat va kuch sarflab, yaxshi natijalarga erishadi. Yangilikka intilish, ijodkorlik doimo uning hamkori bo'ladi.

2. tarbiyachi kasbining ijtimoiy-tarixiy rivoji va mazkur kasbning jamiyatda tutgan o'rni.

Har bir jamiyatda, oldingi to'zumlarda ham o'qituvchi ustoz muallim oldiga eng muhim vazifa jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ilm berish vazifasi qo'yilgan.

Hatto ibtidoiy jamoa to'zumi oxirlaridayoq yoshlarni tarbiyalash muassasalari tashkil etilib, ularda ancha tajribali, hayotni ko'rgan oqsoqollar bolalarni tarbiyalaganlar.

Quldorlik davrida esa quldorlarning bolalari uchun maxsus maktablar tashkil etilgan, qadimgi Gretsiyada bolalarni o'qitadigan kishini didaskal ("o'qitaman", "o'rgataman") deb ataganlar. O'g'il bolalarni maktabga qullardan biri boshlab borgan, bunday qul pedagog ("paye") bola, "agogayin" yetaklab bormoq deb atalgan.

Bu tushunchalar hozirda ham o'qituvchiga nisbatan ishlatilib kelinadi. Lekin uning mohiyati boshqacha ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamiyatda ham pedagoglarga o'qituvchi tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida katta hurmat bilan qarab kelingan.

Ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy - siyosiy faollik.

Pedagogik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik va ko'zatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, xaqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik.

Bilim sohasiga: keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish.

Pedagogik faoliyatlar kishini o'ziga duch kelgan hodisalarni tahlil qilish va umulashtirish tajribasi bilan boyitadi.

Pedagogik malaka - egallagan bilim va kunikmalarni faoliyatning ma'lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir.

**Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:**

**a) pedagog faoliyatining insonparvarlik yo'nalishi;**

**b) ixtisosga doir bilimlar mutaxassislik fanini, uni o'qitish metodikasini pedagogika va psixologiyani chuqur bilish;**

**v) pedagogik qobiliyat (bilish, tushuntira olish, ko'zatuvchanlik, obru orttira olish, to'g'ri muomala qila olish, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari va pedagogik nazokat odob-axloq);**

**g) pedagogik texnika (nutq malakasi, mimik pontamimik ifodaliligi, o'z hissiy holatini boshqarishi.)**

**"Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir",- degan edi milliy tarbiyamiz daxolaridan biri A.Avloniy. Hayot, najot, saodatga eltuvchi ish, tarbiyani amalga oshiruvchi zot - o'qituvchidir.**

Bolalarga yaxshilik qilish va mehribonlik ichki kechinma va holatigina emas, balki pedagogik faoliyatimizdagi bola bilan yoki sinf bilan munosabatdagi asosiy motiv, asosiy rag'bat bo'lishi kerak. Bolalarga yaxshilik qilishimiz va mehribonligimiz, ular bilan qo'pol muomalada bo'lishimizga, ularning nafsoniyatini va qadr-qimmatini siqishtirishga, ularga baqirish va ularni qo'rqitish, ulardan har birining qayg'u alamini sezmaslikka va har biri erishgan yutug'idan xursand bo'lmaslikka ularga yordamga kelmasligimizga ishonchsizlik kursatishimizga yo'l qo'ymaydi. Bolani butun qalbi bilan sevadigan mehri daryo pedagog ko'proq tabassum qiladi, kamroq qovoq soladi, u chinakam pedagogik hayot kechiradi, shu tariqa professional baxtiga erishali.

Insonparvar pedagog bolalarni bilim bilan tanishtirayotganda ayni vaqtda ularga o'z xarakterini bera oladi, ularga odamiylik namunasi bo'lib ko'rinadi. Bola uchun o'qituvchisiz bilim yo'q.

Shuning uchun bola o'qituvchisini yaxshi ko'rib qolsa, demak u bilimga qiziqib qoladi. Bolalar mehrini qozonmoq o'qituvchining zarur ishi, faqat o'z o'qituvchisini yaxshi ko'rgan bola bilimlar olamiga kirib boradi. Jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtira boradi.

Ta'lim va tarbiya metodlari, usullari, formalari pedagogning bolalarga mehr-muhabbatidan harorat oladi va insonparvarlik hissi to'la qalbidan o'tib takomillashadi.

Avvalambor, o'qituvchining o'zi bir shaxsiyat bo'lishi kerak, negaki shaxsiyatni faqat shaxsiyatgina tarbiyalab berishi kerak. Insonparvarlikni faqat qalb mehrigina berishi mumkin. U albatta keng ma'lumotli ijodiy kishi bo'lishi kerak, negaki bilim ishtiyoqini faqat shu ishtiyoqda yongan kishiga yoqishi mumkin.

Bizning jamiyatda o'qituvchi bolalarni kelajak haqidagi orzu -umidlar bilan ruhlantirishga kelajak ideallarini hozirdan mustahkamlashni ularga o'rgatish, kelajak bolalar qoshiga kelgan kishidir.

Pedagogik mahorat-bu pedagogik (o'quv tarbiyaviy) jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashqil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'llantirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

### **3. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.**

Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o'z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, ob'ekt va sub'ekt va vositalardan tashqil topadi.

Eng avvalo, pedagogik maqsadning o'ziga xosligini tushunishiga harakat qilamiz. Ular quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy o'zviyligini (ketma-ketligini) ta'minlaydi, bir avlod tajribasini ikkinchi avlodga o'tkazadi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llaydi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Unga erishishi osonlikcha bo'lmaydi. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini

aniq tasavvur qilish va maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olish zarur. Gyote ta'kidlaganidek, "Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilishi ham o'z-o'zidan kelaveradi".

3. Pedagogik (ta'lim, tarbiya) jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki-pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Bu maqsadni o'quvchidan ko'ra pedagog yaqqolroq tasavvur qiladi. O'quvchi esa ko'p hollarda, hayotiy tajribasi yetishmasligi sababli hozirgi hayot, shu bugun tashvishlari bilan yashaydi, kelajakni esa to'la tasavvur qila olmaydi. Bunyodkor pedagoglardan biri Sh. A. Amonashvili bu nomuvofiqlikni "tarbiyadagi asosiy fojia" deb ataydi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyati mantig'ini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyatini ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini (masalan, muxandis-pedagoglar tayyorlashni) to'la anglab, o'z shaxsiga qabo'l qilishi. Jamiyat maqsadlarining "o'sib", uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish. O'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borishda bunga e'tibor berish zarur.

Endi pedagogik faoliyat ob'ektining o'ziga xosligini ko'rib chiqamiz. Bu faoliyatning ob'ekti insondir. Pedagog- tadqiqotchilarning fikricha, pedagogik ob'ektining o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

1. Inson-tabiatchining jonsiz moddasi emas, balki o'zining individual sifatlari, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs-takrorlanmasdir". U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning ob'ekti bir paytning o'zida bu faoliyatning sub'ekti bo'lib hisoblanadi.

2. Pedagog doimo o'zgarib, o'sib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan hatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqari atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham, ba'zan sezilmaydigan, ba'zan esa har tomonlama bir necha yo'nalishda ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchining o'zida paydo bo'lgan fikrlarga to'zatishlar kiritib borishni nazarda

to'tadi. Masalan, diniy ektremizm va boshqa oqimlarga kirib ketgan yoshlarning adashganligini tushuntirish, ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan axborotlarni to'g'ri anglashga undash va h. k. Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi zarur.

Professional bilimlar negizida pedagog hatti-harakati va xulqining asosini tashqil etuvchi pedagogik printsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu printsipl va qoidalarni har bir pedagog o'z tajribasiga tayangan holda yaratadi, Lekin ularning qonuniyatlarini ilmiy bilim yordamida aniqlaydi. Bu bilimlar doimo takomillashib borishi zarur. Buyuk pedagog A.Detserveg ta'kidlaganidek, «Ilmiy izlanishga intilmagan o'qituvchi tavakkaliga ishlash, oddiylik va soxatlik kabi pedagogiqadan ozdiruvchi shaytonlar qa'riga mahkum bo'ladi».

Pedagogik qobiliyatlar, pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli o'tishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixik jarayonlarni qanday kechayotganligini bildiradi. Bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan holda, oltita yetakchi pedagogik qobiliyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. **Kommunikativlik (muloqotga moyillik), odamlarga nisbatan ko'ngilchan bo'lish, mehribonlik;**
2. **Aql bilan sezish-kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard bo'lish, ichki (hissiy) sezgirlik;**
3. **Shaxsning harakatchanligi, irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyatlari;**
4. **Hissiy barqarorlik-o'zini boshqara olishi;**
5. **Kelajakni eng maqbo'l holda bashorat qilish;**
6. **Kasbiy mustaqillik-ijod qilishi qobiliyati.**

Pedagogik texnika ikki turdagi ko'nikmalar guruhidan iborat. Birinchisi-o'zini o'zi (gavdasi, hissiy holati va nutq texnikasi) boshqara olishi, ikkinchisi-pedagogik vazifalarni hal etishda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlashni uddalash (didaktik, tashqilotchilik malakalari, bevosita ta'sir etish texnikasi), bu haqda keyingi ma'ro'zalarda batafsil to'xtalamiz.

Pedagogik mahoratning biz yuqorida ko'rib chiqqan tarkibiy qismlari, uni sistemaviy harakterga ega ekanligini anglatadi. Pedagogik mahoratning yaqqol tashqi belgilari: faoliyatni aniq maqsadga yo'naltirilganligi, vazminlik, mulohaza yuritish, o'quvchilar bilimini puxtaligi, eng maqbo'l vositalarni tanlanganligi, o'z faoliyatiga ijodiy yondoshuvi.

Muhandis-pedagog o'z mahoratiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:  
Psixologiya va pedagogika turkumidagi fanlarni chuqur o'rganish;  
Maxsus va umumtexnik fanlar, ularni o'qitish metodikasidan puxta bilimga ega bo'lish;



Pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o'tkazish;

O'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, boshqalar tajribasini o'rganish;

Kompetentlikni baholashda alohida olingan biror-bir layoqatlilik darajasini emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan uzoq vaqt davomida turli xildagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to'liq to'plamini nazarda tutish kerak bo'ladi. Bunda inson duch kelgan muayyan vaziyat uning rivojlanishiga, qadriyatlarining shakllanishiga va yangi kompetentliklarni egallashiga bevosita ta'sir etadi.

Kompetentlikning mavjudligi inson mehnatining natijasiga qarab aniqlanadi. Har bir mutaxassisning kompetentlilik darajasi, uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi. Kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo'lib, uning o'ziga xos tomonlari shuki, kompetentli mutaxassisning bilimlari tezkor va harakatchan bo'lib, ular doimo yangilanib turadi. Muammoning mazmunini tushunishning o'zi yetarli bo'lmay, uni jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, shu bilan birga, kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto'g'ri yo'llarni chiqarib tashlash, ya'ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi[1].

*Kasbiy kompetensiyalarni baholash maqsadlari.* Kasbiy kompetensiyalarni baholash mezonlarini ishlab chiqishdan maqsad muayyan kasbiy faoliyat uchun zarur hisoblanadigan kompetensiyalarni muhimlik darajasiga ko'ra belgilab olish, real holatlarni baholay olish va kompetensiyalarni mavjud bo'lgan darajasidan talab etiladigan darajaga olib chiqishdir. Ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholash ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning asosiy – tayanch bo'g'imi hisoblanadi va uning maqsadi:

- kasbiy kompetensiyalarning mavjud bo'lgan darajasining standart talablarida belgilangan darajaga mosligini aniqlash;
- bitiruvchi egallagan kompetensiyalarining ish beruvchi muassasalar talablariga mosligini aniqlash;
- bitiruvchilarning mustaqil ravishda kasbiy faoliyat yurita olish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

*Kasbiy kompetensiyalarni baholash sifatini oshirish prinsiplari.* Kasbiy kompetensiyalarni baholash metodikalariga ko'ra baholash quyidagi ishonchlilik va yetarlilik prinsiplariga mavofiq bo'lishi kerak: ishonchlilik – baholash bevosita baholash obyektiga, ya'ni baholanayotgan kompetensiya elementiga tegishli bo'lishi kerak; yetarlilik – baholashda kompetensiyaning baholanayotgan elementlari namoyon bo'ladigan faoliyatning muhim jihatlarini ko'rsatish uchun

yetarli miqdordagi dalillardan foydalanish zarur. Baholashda aniq va tushunarli parametrlarga asoslangan, kasbiy vazifalarni hal etish natijalarini belgilaydigan atamalar orqali ifodalanishi va kompetensiyalarning sifatini, ya'ni o'zlashtirilganligini bildiruvchi aniq xulosalarga asoslanishi kabi mezonlarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi kerak.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholashda asosiy e'tiborni kompetensiyalarning alohida elementlari mavjudligiga emas, kasbiy vazifalarni hal eta olish layoqatlarini namoyon qila bilishga qaratish lozim. Baholash uchun beriladigan topshiriqlarni real kasbiy vazifalarning imitatsiyasi ko'rinishida shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi, bunda kasbiy masalalarni hal etish jarayonida namoyon bo'ladigan kompetensiyalarning turli elementlarining rivojlanganlik darajasi baholanadi[2]. Bundan tashqari, baholash natijalari bo'yicha xulosalar bo'lajak mutaxassisning aniqlangan malakalari kasbiy (funktional) vazifalarni bajara olish uchun yetarli darajadami, yo'qmi degan savolga javob berishi zarur. Agar yetarli bo'lmasa, qanday rivojlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali kasbiy kompetensiyalarni talab darajasiga ko'tarish mumkinligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish lozim.

Kasbiy kompetensiyalarni baholashning asosiy shakllari umumiy kompetensiyalarni baholash shakllaridan farq qiladi. Bu kasbiy kompetensiyalar elementlarini baholash ko'rsatkichlarining o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim oluvchilarning kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun real kasbiy muammoli vaziyatlarga o'xshash topshiriqlar ishlab chiqish zarur.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini baholash metodlari *nazoratlar va testlardir*. Ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholashda o'tkaziladigan nazoratlarning an'anaviy ta'lim tizimidagi nazoratlardan asosiy farqi shuki, kasbiy kompetensiyalarni baholashda bilim va ko'nikmalarning mavjudligi emas, balki o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatdagi vaziyatlarda qo'llay olish layoqatlari orqali baholanadi. Shu sababli testlar faqat pedagogik, metodik, texnik-texnologik amaliy topshiriqlarga qo'shimcha sifatida ishlatiladi. Nazoratlar quyidagicha o'tkazilishi mumkin: og'zaki muloqot layoqatlarini aniqlash maqsadida og'zaki shaklda; ta'lim natijalariga baho berish uchun og'zaki savollar orqali intervyu shaklida; *audit* — tinglamoq, ta'lim oluvchini tinglash va nutqini talqin qilish orqali kompetensiyalariga baho berish maqsadida audit shaklida; nazariy bilimlarni tushunganligi va ularni amalda qo'llay olishini baholash maqsadida yozma (yoki test) shaklda. Nazoratlar turli xil savollarni o'z ichiga olishi mumkin, ya'ni savollar orqali quyidagi talablar qo'yilishi mumkin: qisqa javoblar berish; bir

nechta javobdan to'g'risini tanlash va asoslab berish; tuzilmali savollarga esse tipidagi mufassal javoblarni yozish. Tuzilmali savollar birorbir masala bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlarni aniqlashni ko'zda tutadi. Esse tipidagi mufassal javoblarni talab etuvchi savollar ham birorbir masala bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlarni baholash hamda muhokama qilish, taqqoslash, tahlil qilish, baholash yoki muammoning yechimini izlab topish kabi kognitiv kompetensiyalarni aniqlashni ko'zda tutadi. Ular tuzilmali savollardan javobning kengroq bo'lishi bilan farqlanadi. Nazoratlar kompetensiyalarni namoyish qiladigan amaliy mashg'ulotlarga qo'shimcha tarzda o'tkazilishi mumkin.

*O'zo'zini ta'riflash.* Talabalar o'z kasbiy kompetensiyalarini o'zlari ta'riflab beradilar, bu ta'riflar guruhning boshqa talabari va o'qituvchi tomonidan tasdiqlanishi kerak. O'zo'zini ta'riflash metodi bu baholanuvchi talabaning o'z kasbiy kompetensiyalari darajasini yozma ravishda o'zi baholashidir. Ta'rifda keltirilgan barcha ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tekshiriladi va tasdiqlanadi. Ta'rifda, odatda, quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi: talabaning ismi-sharifi, ta'lim bosqichi, akademik guruhi; talabaning mazkur fan bo'yicha bajargan ilmiy yoki ijodiy ishlari ro'yxati; talaba tomonidan o'z kasbiy kompetensiyalarining baholanishi; kelajakda kasbiy jihatdan o'zini takomillashtirish va o'sish bo'yicha rejaları; o'quv yurtidagi ta'lim jarayoni to'g'risidagi fikrlari va takliflari. O'zo'zini ta'riflash metodi pedagogikaning boshqa ta'lim yo'nalishlari orasida kasb ta'limi yo'nalishiga ko'proq mos keladi, chunki ushbu yo'nalishda kasbiy kompetensiyalar komponentlarining turlari ko'p va xilmaxil bo'lib, kompetensiya elementlarini rivojlantirish va baholash shakllari ham turli-tuman. Bunday yondashuv bo'lajak muhandispedagoglarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

*"Portfolio" metodi.* Mazkur metod talabalarning kasbiy kompetensiyalarining shakllanishini namoyon qiladigan materiallar va ma'lumotlar to'plamidan iborat bo'ladi. Portfolio ularning ta'lim jarayonida erishgan natijalarini, olimpiadalar, tanlovlar, xalqaro va respublika miqyosida tashkil etilgan konferensiyalardagi ishtiroki va yutuqlarini, nashr etilgan darslik, o'quv qo'llanma, ilmiytadqiqot ishlarini (patent, ixtiro, monografiya va boshqa) tasdiqlaydigan turli hujjat, sertifikat, diplom va guvohnomalari, shuningdek, bajarilgan topshiriq loyihalari, keys, eskiz, chizma, tayyorlangan mahsulotlar, taqdimot, videoyozuvlar va hokazolardan iborat bo'ladi. Bajarilgan ishlar pedagoglar tomonidan tekshirilishi va baholanishi kerak, bunday metod, ayniqsa, kasb ta'limi yo'nalishlari talabalarining kasbiy kompetensiyalarini baholashda mos keladi.

*Imitatsion topshiriqlar.* Imitatsion (taqlidga oid) topshiriqlar bo'lajak kasbiy faoliyatga maksimal darajada yaqinlashtirilgan vaziyatlarni hal etishga qaratilgan

topshiriqlardan iborat. Ushbu metodning mohiyati talabalarga qo'yilgan kasbiy vazifalarni mustaqil ravishda amalga oshirishlari uchun shartsharoitlarni yaratish, kasbiy faoliyat muhitiga olib kirish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarining shakllanib borishini nazorat qilish, talabada kasbiy kompetensiyalar mavjudligining dalillarini namoyish qilishdan iborat. Ushbu dalillar talaba tomonidan bevosita kasbiy faoliyatga tegishli bo'lgan vazifalarning yechilishi jarayonini kuzatish natijasida to'plab boriladi. Kuzatuvni o'qituvchi amalga oshiradi. Baholash yo'llari jihatidan bu metod imitatsion vaziyatlarda amaliy faoliyatga doir topshiriqlarni bajarish jarayonini baholash metodiga o'xshab ketadi. Imitatsiya shuni bildiradiki, baholanayotgan talaba o'zining kasbiy kompetensiyalarini kasbiy faoliyatga doir muayyan topshiriqni bajarish jarayonida emas, balki kasbiy vazifaning sharoitlari va maqsadini to'liq imitatsiya qiladigan vazifalarni amalga oshirish jarayonida namoyish qilishi kerak.

*Assesment texnologiyasi.* Ta'lim jarayoniga assesment (*ingliz tilidan assess – baholash*) texnologiyasini joriy etish orqali ham yuqori natijalarga erishish mumkin. Assessment – pedagogik kadrlarni kompleks baholash metodlaridan biri, u birbirini o'zaro to'ldiradigan metodikalardan iborat

## **Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi ijodiy tashkil qilish va uni boshqarish turlari.**

### **Reja**

**1 Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bolani maktabga tayyorlashda maktab va oilaning roli.**

**2 Tarbiya qonuniyatlari, tarbiyaning mazmuni va maqsadi.**

**3 Tarbiya metodlari va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiyasi.**

Bolani qachon va qancha tayyorlash kerakligi haqida kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik ota-ona va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolgungacha tayyorlashni kuchaytirish kerak deb hisoblashadi. Ammo boshqalar faqat maktabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak deb aytishadi. Ba'zi ota-onalar bola bog'chaga borishi bilan maktabga tayyorgarlik boshlanadi, deb o'ylashadi.

Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bog'cha tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga bi-noan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e'tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir sistemaga solishadi, qo'llarning mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo.

Lekin, oila bola tug'ilishidan keyin yashaydigan birinchi ijtimoiy muhit. Oilada bola o'zining birinchi ijtimoiy tajriba va malakalarini orttiradi, ota-ona va kattalar namunalari orqali tarbiyalanadi, oilaviy rishtalarni tushunib yetadi va qadrlaydi. Shuning uchun bolani maktabga tayyorlashda oila hal qiluvchi, mu-him ahamiyatga ega. Ota-onalarning ko'pchiligi bolani maktabga tayyorlashda bog'cha bilan oilaning hamkorligi zarur deb hisoblashadi. Ba'zi ota-onalar esa bolani maktabga tayyorlashda javobgarlikni bog'chaga yuklashadi, ba'zilari esa butun javob-garlikni o'z bo'yniga olishadi.

Y.A. Kamenskiy o'zining «Onalar maktabi» kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o'ylab, o'z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

1. Bolalarda maktabga borganda, o'z tengdoshlari bilan o'qigan va o'ynaganda xursandchilik hissini tug'dirish.

2. Bolalarga maktabdagi ta'limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.

3. Bolalarda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirda ota-onalar bolalarni maktabga qanday tayyor-lashmoqda. Ota-onalarning ko'pchiligi maktabda yaxshi o'qishning shartlaridan biri shaxsning umumiy rivojlanishi deb hisoblashadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingi o'ringa bolaning o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlatishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi. Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullantirishadi.

Xulosa qilib aytganda, bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi ijobiy natija beradi.

**Tarbiya qonuniyatlar, tarbiyaning mazmuni va maqsadi.**

**Tarbiya-inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi.**

Tarbiya muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tujmonlama o'stirish,uning ongi,xulq atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.Insoning jamiyatda yashashi ushun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi.

Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq tarbiyalanuvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim,ko'nikma va malakalar,shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni shahsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo'lib,ijtimoiy-iqtisodiy tarqqiyot,kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi,shuningdek,jamiyat mafkurasi g'oyalari asosida belgilanadi.

Tarbiya maqsadining aniqligi ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi- erkin, ijodkor,mustaqil. fikr egasi bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.Ushbu maqsadga erishish yolidagi asosiy vazifa —bu bolaga umumiy madaniyat unsurlari,ya'ni bolaning aqliy,axloqiy,jismoniy,estetik,iqtisodiy,ekologik,huquqiy,mehnat hamda gender tarbiyalashdan iborat

**1. Tarbiya qoidalari va ularning mohiyati:**

- a) Tarbiyaning maqsadga qaratilganlik qoidasi
- b) Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi.
- c) Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorlik qoidasi.
- d) Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik qoidasi.

## **2. Tarbiya usullari haqida tushuncha:**

- a) Ijtimoiy ongini shakllantirish usullari.
- b) Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari.
- s) O'z-o'zini tarbiyalash usullari.
- d) Rag'batlantirish va jazolash usullari.

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni va qoidalari mavjud. Xo'sh, tarbiya qoidalari nima uchun kerak ekan?

Tarbiya qoidasi - pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari-o'qituvchi va tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Tarbiya qoidalariga quyidagilar kiradi:

**Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganiik qoidasi.** Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi.

**Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi.** Oqituvchining bilim saviyasi ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda Qur'oni Karim, Hadisi Shariflardan foydalanish juda muhim. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smirning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya obyekti emas, xuddi o'zi kabi subyekti deb qarashi darkor. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi. Shaxsning rivojlanishi va o'zligini anglashni ta'minlaydi.

**Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi qoidasi.** O'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish juda muhim. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan, boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boylıklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilar go'zal axloq,

baxt, insof, poklik, mehr-shavqat, tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik - o'z tarkibiga insoniy xususiyatlarini, do'stlik, ota-onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarini qamrab oladi. Shu sababli, insondagi eng yaxshi fazilatlar avloddan - avlodga ko'chib kelgan.

**Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik qoidasi.** Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zi bu talabni unutib qo'ysa, bu hoi tarbiyaga yomon ta'sir qiladi. O'qituvchi subutli, o'z lafziga sobit bo'lmog'i kerak. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, unda ota-ona, o'qituvchi, jamoatchilik qatnashadilar. Shu sababli, ularning ishida izchillik va davomiylilik bo'lishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarni (oila, maktab, o'quvchilar jamoasi, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, keng jamoatchilikni) birgalikda ish ko'rishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Bola o'qishni, tarbiya olishni ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilishi kerak, shu bilan birga, bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim.

**Tarbiya usuli** tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat hamda o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning bilish, ko'rgazmalari, o'yin, eng oddiy faoliyat turlari va muomilasi shakllanadi.



**Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzi asoslarini  
shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzi asoslarini  
shakllantirishning ahamiyati.**

**Reja:**

- 1. Tarbiyachi tomonidan bolalarga sog'lom turmush tarsi haqida nutqi orqali ma'lumotlar yetkazish jarayon**
- 2. Ilk yoshdagi bolalarni sog'lom turmush tarziga tayyorlash**
- 3. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni sog'lom turmush tarziga tayyorlash**
- 4. Badantarbiyaning sog'lom turmush tarzida tutkan o'rni**
- 5. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarning sog'lom hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlari**

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardayoq ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish va kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz - mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham - bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga etishiga bog'liqdir. Uzoqni ko'zlab aytilgan bu so'zlar istiqloq yillarida mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan davlat siyosatining mazmun-mohiyatini yorqin ifodalaydi. Haqiqatan ham, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning oddiy hodisa emasligi, bu xalqimiz hayotini tubdan o'zgartirish, milliy davlatchilikni mustahkamlash, mustaqillikni asrab-avaylash, rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin olish, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin farovon hayot barpo etish, jamiyatimizni yangilash va modernizatsiyalash jarayonining tarkibiy qismi ekani dunyo hamjamiyati tomonidan ham bejiz e'tirof etilmayapti.

Maktabgacha yoshdagi davr har bir inson hayotidagi eng muhim davrlardan biridir. Aynan shu yillarda bolaning salomatligi, barkamol, aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishining poydevori qo'yildi va shaxsning shaxsiyati shakllandi. Hozirgi kunda umumjahon madaniyatining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan sog'liqni saqlash, harakatlarni rivojlantirish va umuman, bolalarning jismoniy rivojlanishini yaxshilash bo'yicha ishlarni takomillashtirish bo'yicha dolzarb savol mavjud. Ma'lumki, sog'liq faqatgina 7-8% sog'liqni saqlashga bog'liq, shu bilan birga yarmidan ko'pi uning turmush tarziga bog'liq.

## **Tarbiyachi tomonidan bolalarga sog'lom turmush tarsi haqida nutqi orqali ma'lumotlar yetkazish jarayoni**

Tarbiyachi bolalarga ta'lim mashg'ulotlarida turmush tarzining salomatlikni saqlash va mustahkamlashda tutgan o'rni; inson umrini davrlarga bo'lish; bolalarning o'sish va rivojlanish qonuniyatlari, jismoniy holatini aniqlash; bolalik davrida uchraydigan anatomik va fiziologik nuksonlarni to'g'ri holatga keltirish; to'g'ri qaddi-qomatning gigaenik asosi; bolalarda uchraydigan qomatning buzilish turlari, sabablari va uni tuzatish usullari; jismoniy tarbiyaning gigienik asoslari; organizmni mustahkamlash va chiniqarish uchun tabiatning tabiiy kuchlaridan kuyosh, xavo va suvdan foydalanish; insonning sog'lom turmush kechirishida jismoniy tarbiyaning ahamiyati, masalalariga alohida ahamiyat bermog'i va bolalarga shu tushunchalarni shakllantirmog'i zarur. Kun tartibiga amal qilish sog'lom turmush tarzining asosi. Kun tartibi bolalarning dunyoga kelgan kunidan boshlab amalda bo'luvchi doimiy jarayon sanalib, bolalarning turli mazmundagi faoliyati – o'yin o'ynashi, dam olish, ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish va hokazolarning muayyan vaqtda, tartib bilan, ketma-ket bajarishidir. Tabiiyki, kun tartibi xamma bolalarda uchun bir xil bo'la olmaydi va u bolaning yoshi, sog'lig'i, ish qobiliyati muvofiq tuziladi va uning umumiy talablariga: kun tartibini ishlab chiqishda amaliy mehnat bilan jismoniy mehnatning to'g'ri taqsimlanishi, o'yinlarning o'z vaqtida dam olish bilan almashtirilishi, har kuni muayyan ovqatlanish, ma'lum vaqtda uyquga yotish va barvaqt uyqudan uyg'onishga odatlanish, ochiq havoda sayr etish kabilar kiradi. Bolaningning sog'lom, nosog'lom turmush tarzi ham kun tartibining to'g'ri, noto'g'ri uyushtirilganligiga bog'liq.

To'g'ri uyushtirilgan kun tartibi organlarning har tomonlama:

• to'g'ri rivojlanishi:

• irodaning mustahkamlanishi;

• kasallanishning oddini olishda muxim o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassalarida sog'liqni saqlash medeadida maktab faoliyatiga uning o'quv-tarbiyaviy jarayoniga, ota-onaparga quyidagi fiziologak-gigienik tavsiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir:

• kundalik rejimga ya'ni, kun tartibiga rioya qilish, jum-ladan, makgab va uy sharoitida o'kuv mashg'ulotlari yukpamasini tartibga eshshsh;

• ochiq xevoda sayr qilish bilan xordiq chiqarishsh keng yo'lga qo'yish;

• yetarli va o'z vaqtida ovqatlanishni yo'lga qo'yish;

• gigienik jihatdan to'liq, bir maromdagi uyqu;

• o'z vaqtida aqliy yuklamani jismoniy yuklamaga almashtirish;

• gagienik talabparga javob beradigan hodda faoliyatlarni almashtarib turshi;

- mustaqil faoliyat bilan shug'ullanish.

Respublika boshlang'ich ta'lim muassasalarida haftalik o'quv mashg'ulotlarda belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda, mahalliy xalq ta'limi boshqarmasi zimmasiga quyidagi nazorat vazifalar yuklatilishi ko'zda tutilishi lozim:

- mashg'ulotlar gigienik jihatdan tashkilot qilishni ro'yhatdan o'tkazilishi;
- mashg'ulot va tanaffuslar davomiyligining talabga mosligi;
- kun va hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar miqdori me'yorida bo'lishi;
- mashg'ulot xonalarini bolalar va o'rmlarning antropometrik ko'rsatkichlarini o'lchash uchun lozim bo'lgan jihozlar bilan ta'minlashini uyushtirish;

• Sog'lom turmush tarzining jamiyatdagi o'rni beqiyosdir. Aynan shuning uchun ham mamlakatimiz ta'lim tizimining oldida yosh avlodga zamonaviy bilim va xunarlar bo'yicha musgahkam ta'lim berish bilan birga, ularda Sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni salomatligi uchun tahtsid soluvchi xar qanday zararli odatlarga qarshi faol tura oladigan, musgaqil fikrga ega bo'lgan, katta ishonch hamda maqsad bilan yashaydigan fidoyi, yuksak ma'naviyatli barkamol inson etab tarbiyalash kabi ustuvor vazifaturibdi.

Sog'lom turmush tarzi bu insonning hayoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lish asosida hayotiy faoliyatni yo'lga ko'yish hamda ealomatlikning yuqori darajada bo'lishiga ershshshni ta'minlovchi ijgamoij hoidisadir.

Sog'lom turmush tarzi inson tomonidan turmush sharoitlarini faol o'zlashtirish usuli bo'lib, kun tartibiga rioya qshshsh, faol harakat asosvda organizmni chiniqgarish, sport bilan shug'ullanish, to'la va sifatli ovqatlanish, ovqatlanishning gigienik qoidalariga rioya qilish, udotlinsoniy va milliy kadriyatlar asosida o'z o'zini tarbiyalay olish, zararli odatlardan o'zini tiya olishi demakdir.

Tavsiya etilayotgan ushbu metodik kompleks «Sog'lom turmush tarzini takomillashtirish» oila va uzluksiz ta'lim tizimida talabalaridagi salomatlik, «sog'lom turmush tarzi motivatsiya, ehtiyotlik, qiziquvchanlik, sog'lom avlod kelajagini ta'minlashga intiluvchanlik hamda o'z salomatligiga ongli munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini takomillashtirishga qarashgan.

Ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida «Sog'lom turmush tarzini shakllantirish» o'quv-tarbiya dasguri ishlab chiqildi.

Unda dasturning moxiyati, maqsad va vazifalari, mazmuni ifodalangan bo'lib, yoshlarni yuksak ma'naviyatlashaxs qilib tarbiyalash, ularni mustaqil tayerlashda

muhim tayanch tushunchalar sifatida «Salomatlik saboqlari», «Zararli odatlarga qarshi immunutiga shakllantirish», «Psixologik barqarorlik» belgilab olingan.

Salomatlik saboqlari. Salomatlik saboqlari tushunchasi - sog'lom turmush tarzi kun tartibi rejasiga ega bo'lish, aql -idrok bilan tanani chiniqtirish, suyak-muskul me'yoriy harakatlar bilan bardam- baquvvatlashtirish, ruhiy va ma'naviy jihatdan o'zini-o'zi to'g'ri nazorat qilish, tartibli, sifatli ovqatlanish, gipodinamiya - kam harakatlilikka yo'l ko'ymaslik hamda boshka hayot faoliyagiga egalik.

Gigenik madaniyatga egalik (yun. ureshov - sog'lom, madaniyat - arab.

madinalik, talim tarbiya ko'rgan) - tibbiyotning bir sohasi; turmush va mehnat sharoitlarishshng kishilar sog'lig'iga ta'sirini o'rganadi xamda kasalliklarning oldini olish, yashash uchun eng kulay sharoit yarasha, sog'liqni saqlash va umrni uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Shaxsiy hayot va mehnat faoliyatda amal qilinishi zarur bo'lgan gigiyenik rejim yo'li bilan odam sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash masalalarini ishlab chiqadi. Shaxsiy gigena har bir kishining o'ziga va yoshiga bog'liq bo'lib, aqliy va jismoniy mehnatni to'g'ri yo'lga ko'yish, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, vaqtda ovqatlanish, miriqib uxlash, mehnat va dam olishni to'g'ri uyushtirishdan iborat.

Sog'lom turmush tarziga (STT) egalik (kundalik hayotda salbiy omillar ga'sirlarining oldini olish, STT shakllanganligi ) bu- insoning sog'lom bo'lib yetishishi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitlarini o'zlashtirish va amalga oshirishdir. Bunday turmush tarzini o'zlashtirib usuli sog'lom va nosog'lom turmush tarzida ikki xil darajaga ajrata olishdir. STTning asosiy tarkibiy qismlari quyidagicha: shaxsiy va umumiy gigaena qoidalariga rioya qilish, faol harakat rejimi, kun tartibiga rioya qilish, shikastlanish, baxtsiz hodisalar hamda zararli odatlarning oldini olish kabi psixogigaena qoidalariga rioya qilshtstsan iborat.

O'z salomatligaga qayg'uruvchanlik (g'amxo'rlik, jonkuyarlik) - turli xil hayotiy vaziyatlarda inson ongli ravishda o'z salomatligani saklashi, mustahkamlashi va himoya qilishi, atrof-muhtdagi mavjud omillarning salbiy ta'siridan himoyalanihi, salomatlik potentsialini kuchaytirishi.

Tibbiy bilim va madaniyatga egalik (sog'liqni saqlash, sog'lom hayot kechirish, tibbiy gayyorgarlik) - meditsina, tabobat, kishilar sog'ligni saqlash, mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarni oldini olip, davolash xaqidagi bilimlarga ega bo'lgun, uni qadrlash, anglash va ularga amal qilishdir.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasida bola egallashi lozim bo'lgan madaniy - gigienik ko'nikmalarni quyidagi guruhlari ajratiladi:

a) ovkat eyish ko'nikmalari (ovqatni tartib bilan olish, yaxshilab chaynash, qoshikdan, sanchikdan, salfetkadan foydalanish va h.k);

b) o'z tanasini parvarish kilish ko'nikmalari (yuvinish, soch tarash va h.k);

v) xonada tartibga rioya etish, kiyimlardan foydalanish va unga qarash ko'nikmalari (tez kiyinish va echinish, kiyimlarni tartibli, ozoda saqlash va h.k).

Bolalar harakat ko'nikmalari va malakalarini egallaydigan jismoniy mashqlar xam belgilangan:

a) asosiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, uloktirish, muvozanatni saqlash mashqlari); umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, safga turish va qayta safga turish;

b) sport mashqlari (suzish, changida yurish, konki uchi shva h.k).

Harakatli o'yinlar (mazmunli, mazmunsiz sport tarkibiy qismlari bo'lgan o'yinlar va boshqalar) ham ko'rsatilgan, yozgi va qishki davrda uchastkadan tashqariga qilinadigan uzoq sayrlar ko'zda tutilgan.

Jismoniy tarbiya ishining mazmunini belgilab beruvchi asosiy xujjat «Uchinchi ming yillikning bolasi» tayanch dasturidir. U bolalarni izchil harakat malakalari va ko'nikmalariga o'rgatish imkonini beradi, harakatlarning muvofiqililigini rivojlantiradi, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezlik, chidamlilik)ni tarbiyalaydi.

Jismoniy tarbiya tizimidagi ishlar xilma-xil vositalar yordamida amalga oshiriladi: gigienik omillar (to'g'ri rejim, maqsadga muvofiqovqatlanish, gigienik vaziyat, madaniy-gigienik ko'nikmalarni shakllantirish, mustahkamlash uchun), jismoniy mashqlar.

Rejim (tartib). Bolalar hayotining rejimi (tartibi) – bu bedor yurish, uxlash, ovqatlanish, faoliyat xilma-xil turlarining har kuni muayyan izchillikda takrorlanib, oqilona almashinib turishidir. Tartib rivojlanish uchun qulay sharoit ta'minlashi kerak, shuning uchun u bolaning yoshi, uning salomatligi, kattalar mehnatining xususiyatlari, bola tarbiyalanayotgan oila turmushi va muassasaga bog'liq tarzda o'zgaradi.

Muayyan vaqt ichida tartibning asosiy tarkibiy qismlari bir maromda va doimiy bo'lishi uning ajralmas xususiyatlaridir.

Tartibning bir maromdaligi tabiat hodisalarining maromi, organizm faoliyatining maromiga asoslanadi. Bu bedor yurish va uxlashning, tana haroratining o'zgarishi, nafas olish, yurak urishining qisqarish maromida, ovqat xazm qilish traktining ish maromida namoyon bo'ladi va hokazo.

Oqilona tartib: 1) bedor yurish va uxlashning eng maqbul nisbati asosida quriladi, bu vaqtda boshmiya qobig'i uchastkalari o'rtasidagi vazifalar qayta taqsimlanadi, olingan axborot qayta ishlanadi; 2) aqliy va jismoniy ishlarning nisbati, ovqat hazm qilish maromini hisobga olish asosida quriladi. Tartibdan chetga chiqish darhol bolaning kayfiyatida, shu bilan birga uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi.

Tartibni tuzishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

Oliy asab faoliyatining yosh xususiyatlarini.

Ovqat xazm qilish sistemasi ishidagi yosh xususiyatlarini.

Alohida xususiyatlar: asabiy bolalar va asab tizimi zaif bo'lgan bolalar ko'proq uxlashlari kerak.

Harakatga bo'lgan yosh ehtiyojlari: bir kecha kunduzdagi harakat miqdori 3 yoshli bolalarda 10-19 ming qadamni, 7 yoshli bolalarda 14-25 ming qadamni tashkil qiladi.

Yil fasli, iqlim sharoitlarini bolalarni uyqusini tashkil etishda hisobga olish lozim.

Ovqatlanish. To'g'ri tashkil etilgan ovqatlarni bolalarni to'laqonli jismoniy tarbiyalashning muhim jihati hisoblanadi. Ovqatlanish o'sib borayotgan organizm uchun g'oyat muhimdir, chunki u barcha to'qimalarning normal o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Chiniqtirish. Chiniqtirish deganda organizmning atrof-muhitdagi turli tabiiy ta'sirlar (harorat, namlik, quyosh nuri darajasining o'zgarishi)ga eng ko'p chidamliligi, moslashishini tarbiyalash tushuniladi.

Bolada faqat harorat, iqlim o'zgarishlariga tez ta'sir bildirishgina tarkib topmasdan shu bilan birga gemogloblin miqdori oshadi, ularning immun tizimi yaxshilanadi. Bolalar turli kasalliklarga kamroq chalinadilar va ularni organizmlari kasalliklarni tezda engadi.

Chiniqtirishni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

Chiniqtirishni butun yil davomida mavsumiy holatlarni hisobga olib, muntazam o'tkazish kerak.

Ta'sir etuvchi vositalarning kuchini asta-sekin kuchaytirish zarur.

Bolaning salomatligini, yosh xususiyatini, hissiy holatini, uy va maktabgacha ta'lim muassasasini sharoitini hisobga olish zarur.

Kundalik hayotda chiniqtirish tadbirlarini jismoniy mashqlar, bolaning xilma-xil faoliyati bilan bog'liq holda olib borish chiniqtirish uchun ham organizmni mustahkamlash uchun ham yaxshi natija beradi. Madaniy-gigienik ko'nikmalar va odatlarni tarbiyalash. Madaniy-gigienik ko'nikmalarga badanni ozoda tutishga, to'g'ri ovqatlanishga, atrof-muhitda tartib saqlashga rioya qilish va bolalarning bir-birlari bilan, kattalar bilan, o'zaro madaniy munosabatlariga doir ko'nikmalar kiradi.

Madaniy-gigienik ko'nikmalarni shakllantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

Maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada harakatlar va topshiriqlarni bajarish uchun qulay vaziyatni (qulay mebel, jihozlar) yaratish.

O'zlashtirilayotgan madaniy-gigienik ko'nikmalarni qat'iy belgilangan tartibda bir vaqtda bajarishga o'rgatish.

Har bir bola bilan yakka tartibda ish olib borish.

Bolalarni madaniy-gigienik ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini nazorat qilib borish.

Bolalarni kattalarning barcha igienik va madaniy talablarini so'zsiz bajarishga o'rgatish.

Jismoniy mashqlar va massajdan foydalanish. Jismoniy mashqlar – jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga qaratilgan maxsus harakatlar, shuning harakat faoliyatining murakkab turlaridir. Jismoniy mashqlar organizmga ko'p qirrali fiziologik ta'sir ko'rsatadi. U moda almashinuvini, qon aylanish jarayonlarini faollashtiradi, suyaklarning o'sishiga yordam beradi.

Massaj. Kichik bolalarni tarbiyalashda passiv gimnastika turlaridan biri – massaj (uqalash) qo'llaniladi. Uqalash ta'sirida qon tarkibi, asab tizimi vazifalari, shuningdek ter iva muskullarning oziqlanishi yaxshilanadi, issiqlik chiqishi ko'payadi, muskullarning charchashi yo'qoladi.

#### **Ilk yoshdagi bolalarni sog'lom turmush tarziga tayyorlash**

Uch yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalashning yosh tavsifi va vazifalari. Ilk yoshdan bola organizmida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Skiletning tog'ay to'qimasida suyak to'qimasi paydo bo'la boshlaydi muskul va paylar zaif bo'ladi, lekin ularning qisqarish xususiyatlari yaxshilanadi. Bolaning vazni ortib boradi, uning asab tizimi rivojlanadi, miyaning tez o'sishi va analizatorlarning rivojlanishi kuzatiladi.

Ilk yoshdagi bolalarning kun tartibi. Ilk yoshdagi tartib bolaning to'g'ri rivojlanishi va tarbiyalanishining asosidir. Ilk yoshdagi bolalar uchun uxlash va bedor yurish qonuniyatlariga bog'liq ravishda tabaqalashtirilgan yosh rejimlari ishlab chiqilgan. Ilk yoshdagi bolalarning birinchi guruhida uchta kichik yosh guruhi uchun tabaqalashtirilgan tartib tashkil etiladi:

2,5-3 oydan 5-6 oygacha; 5-6 oydan 9-10 oygacha; 9-10 oydan 1 yoshgacha.

1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhida 2 ta rejim mavjud. 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalar 2 marta uxlaydilar 1,5 yoshdan keyin esa bolalar bir marta uxlashga o'tkaziladi.

3 yoshga qadam qo'ygan bolalar 1 ta rejimga o'tadilar.

Ilk yoshdagi bolalarni ovqatlantirish. Ilk yoshdagi bolalar har 3-3,5 soatda igienik sharoitda, belgilangan vaqtda ovqatlantiriladi. 2 yoshga qadam qo'ygan

bolalarni ovqatlantirishda ular kichik guruhlarga bo'linadi. 3 yoshli bolalar esa ovqatlarni mustaqil va tartibli eyishga o'rgatib boriladi. Ilk yoshdagi bolalarda madaniy-gigienik ko'nikmalarni tarbiyalash. Ilk yoshdagi bolalarda kiyinishga, yuvinishga, ovqatlanishga ijobiy munosabatlarni yaratish, o'ziga-o'zi xizmat qilish ko'nikmalarini mustaqil harakatlarni shakllantirishga tayyorgarlik bo'lib xizmat qiladi.

1,5-2 yoshli bola deyarli hamma kiyimlarini o'zi echa oladi, taxlab qo'yadi va kiyimlarini ayrimlarini kiya oladi. Bu yoshdagi bolalar o'zlari yuvinadilar va artinadilar.

2-3 yoshli bolalar mustaqil ovqat eyishga kiyimlarini kiyib echishga o'rganadilar.

Ilk yoshda jismoniy mashqlar va uqalash. Bola hayotining dastlabki yilida uqalash va gimnastika har kuni yakka tartibda o'tkaziladi.

2 yoshga qadam qo'ygan bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazayotganda yurishni, arqonga chiqishni, sakrashni, buyumni uloqtirishni, muvozanatni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi.

### **3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni sog'lom turmush tarziga tayyorlash**

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalashning yosh tavsifi va vazifalari. Bu yosh davrida bola organizmida kata o'zgarishlar sodir bo'ladi. 7 yoshga borganda bolaning bo'yi o'rtacha 120 sm gacha o'sadi. Organ va tizimlarda morfologik va funksional o'zgarishlar bo'ladi. Umurtqaning egiluvchanligi ortadi, muskullarning kuch darajasi kuchayadi, o'pkaning xajmi o'sadi. Nafas olish chuqurroq va uzoqroq bo'ladi. Ovqat xazm qilish apparati barqaror ishlaydi.

Bolalarning shu davrdagi jismoni va ruhiy rivojlanishi xususiyatlari munosabati bilan quyidagi o'ziga xos vazifalar o'rta qo'yiladi:

to'laqonli uyg'un jismoniy rivojlanishi yurak tomir va nafas olish tizimini mashq qildirish qaddi qomat va oyoqni shakllantirish;

organizmni chiniqtirish;

barcha asosiy harakatlarni, sport mashqlarini bajarish ko'nikmalarini tarbiyalash;

jismoniy qobiliyatlar, sifatlarni rivojlantirish;

ozodalik, tartiblilik odatlarini tarbiyalash.

Turli vositalardan kompleks foydalanganda bu vazifalarning barchasi muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning rejimi. (Kun tartibi) 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning uyqusi 12-13 soat (shundan 1,5-2 soati kunduzgi), 5



1shdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda 11-12 soat davom etadi. O'yinlar uchun salkam 4 soat, harakat faoliyati uchun (turli shakllarda) qariyb 5 soat, kunduzgi uyquga 1 soatu 5 minutgacha ajratish zarur. Bolalarning aktiv faoliyati – o'yin, o'quv, mehnat va turmush faoliyati kun mobaynida bir necha bor o'zgaradi.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar 8 minutga yaqin aqlli faoliyat bilan faol shug'ullanishlari mumkin, katta maktabgacha yoshdagi bolalar esa ana shunday faoliyat bilan 12-14 minut shug'ullana oladilar. SHundan keyin ularning diqqati susayadi. Agar mashg'ulotlar orasida va mashg'ulotning o'zida harakatli mashqlar (jismoniy tarbiya daqiqalari, jismoniy tarbiya tanaffuslaridan) foydalanilsa, bolalarning imkoniyatlari birmuncha ko'payadi.

Bolalar bog'chasi kun tartibida xilma-xil o'yinlarga alohida o'rin beriladi. Vaqtdan to'laqonli foydalanish uchun tarbiyachi o'yinchoqlar va qo'llanmalarni oldindan tanlab qo'yishi, bolalarni bajarish ko'nikmalarini tarbiyalashi zarur.

Sayr qilish har tomonlama tarbiyaviy ishlar uchun kengsh imkoniyatlar beradi. Sayr chog'ida, tabiat va ijtimoiy hodisalar kuzatiladi, bolalarning mehnat va o'yin faoliyati, sport mashqlari uyushtiriladi.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ovqatlanishi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida butun ovqatlanishni tashkil etish bolalarda taomni eyishga ijobiy munosabatni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Muayyan vaqtda, 3,5-4 soat oralig'ida bolalarga mazali tayyorlangan, chiroyli tashqi ko'rinishga ega bo'lgan taomlar beriladi. Ovqatlanish uchun zarur bo'lgan hamma narsa oldindan tayyorlab qo'yiladi, chunki kutish ishtahani pasaytiradi, asab tizimini qo'zg'atadi. Stolni enaganning o'zi bezaydi, o'rta guruhdan boshlab esa bu ishda navbatchi bolalar faol ishtirok etadilar. Navbatchilikning tartibi va harakatlarning xususiyatlari tarbiyachi tomonidan puxta o'ylanadi va bolalar aniq ketma-ketlikda tushuntiriladi. Normal ovqatlanish jarayoni uchun osoyishta vaziyat kata ahamiyatga ega.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda madaniy-gigienik ko'nikmalarni tarbiyalash. Butun maktabgacha yosh davomida madaniy-gigienik ko'nikmalarni shakllantirish yuzasidan kata ishlar olib boriladi. Harakatlar muvofiqligini rivojlantirishdagi, fikrlashdagi ro'y bergan kata siljishlar bolalarning o'ziga-o'zi xizmat qilishi, navbatchilik, jamoadagi muloqot davrida zarur bo'lgan xilma-xil harakatlarni uddalashi uchun imkon beradi.

4 yoshga qadam qo'ygan bolalar qo'llarini to'g'ri yuvishni (qo'llarni bir-biriga ishqab sovun surish, sovunni yuvib tashlash va har bir barmoqni artish) ni, tish yuvishni (dastlab oddiy xo'l cho'tka bilan, 4 yoshdan boshlab poroshok bilan), ovqatdan keyin og'izni chayqashni, dastro'molchadan foydalanishni, stol atrofida o'zini madaniy tutish qoidalariga rioya etishni (qoshiqdan, sanchqidan foydalanishni, ovqatni to'kmaslikni) bilishi kerak. Bolalar o'yinchoqlarga

ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, ozodalik va tartib saqlashni o'rganadilar.

5 yoshga qadam qo'ygan bolalar ancha mustaqil bo'lib qoladilar, ular endi sovun bilan yuzlarini, bo'yinlarini, quloqlarini yuva oladilar, ancha puxtalik bilan kiyina oladilar, har bir harakatni bajarish tartibini biladilar, bir-birlarining tashqi ko'rinishlaridagi yoki atrofdagi nuqsonlarni seza boshlaydilar.

6-7 yoshli bolalar o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishga doir barcha harakatlarni ancha tezroq va aniqroq bajara oladilar. Ular tez, toza, kiyimlarini, polni ho'l qilmasdan yuvina olishlari, puxta va tez kiyina olishlari, o'z tashqi ko'rinishlarini kuzatib borishlari kerak. Ovqatlanish ko'nikmalariga katta talablarni qo'yiladi: bolalar sanchqi, pichoqdan to'g'ri foydalanadilar, tartibli ovqat eydilar. O'yin burchaklarini yig'ishtirish, navbatchilik turlari majburiyatlari va ko'nikmalari doirasi kengayadi, navbatchilarning vazifalari murakkablashadi.

Madaniy gigienik ko'nikmalarni muntazam mustahkamlab borish kerak. Tarbiyaviy ishlar tizimining o'zgarishi, malakalarni shakllantirish va ulardan foydalanishga e'tiborning yo'qligi ularning tezda yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun jismoniy mashqlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ish olib borishda jismoniy mashqlar katta o'rin tutadi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalar tarbiyachi rahbarligida va mustaqil ravishda asosiy harakatlarni, sport mashqlarni egallagan, xilma-xil harakatli o'yinlarni o'ynashni o'rgangan bo'lishlari kerak. Bu keng dastur ishning xilma-xil vositalari va shakllaridan foydalanganligiga bajarilishi mumkin.

Har kuni bolalar bir necha bor jismoniy mashqlarni bajaradilar: ertalab gigienik gimnastika shaklida; haftasiga ikki marta jismoniy tarbiya mashg'ulotlari tarzida bajaradilar, ularga turli xildagi saf tortishlar, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, asosiy harakatlar, harakatli o'yinlar kiradi. O'rta va katta yoshdagi bolalar bilan o'tirib bajariladigan mashqlardan jismoniy tarbiya daqiqalari, mashg'ulotlar orasida jismoniy tarbiya tanaffuslari o'tkaziladi. Sayr chog'ida sport mashqlari, harakatli o'yinlar uyushtiriladi, bolalarning kichik guruhlari bilan ish olib boriladi. Kunduzgi uyqudan keyin saf tortishlar, qayta saf tortishlar, raqs harakatlari, maroqli mashqlar bajarilib, ular chiniqtirish tadbirlari bilan qo'shib o'tkaziladi. Sayr chog'ida va xonada bolalarning turli qo'llanmalar va motorli o'yinchoqlar bilan mustaqil o'yinlari uyushtiriladi.

Maktabgacha ta'lim bolalar muassasalarida jismoniy tarbiyaning quyidagi o'ziga xos vositalaridan foydalaniladi: 1) harakatli o'yinlar o'tkazilib, ularga eng ko'p o'rin beriladi; 2) asosiy gimnastika (asosiy harakatlar, umum rivojlantiruvchi va saf tortish mashqlari); 3) sport mashqlari (konkida uchish, chang'ida yurish,

suzish, velosipeda uchish); 4) bolalar turizmi. Ko'rsatilgan vositalardan uyg'un birlikda foydalanish har tomonlama jismoniy rivojlanishni ta'minlaydi.

### **Badantarbiyaning sog'lom turmush tarzida tutkan o'rni**

Badantarbiyaning mazmuni quyidagilardan iborat: 1) mehnat va turmushdagi ko'nikmalarni (tartiblilik, kiyimlarning ozodaligi, xonalarning tozaligi) va gigienik rejimga doir odatlarni (faoliyat va dam olishning okilona tartibi, uqu, ovqatlanish gigienasi va hokozolar)ni; 2) tabiatning tabiiy sharoitlarida organizmni chiniqtirish (xavo, quyosh va suv)ni; 3) jismoniy mashqlarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy barkamollik – odamning taixan shart qilib olingan uyg'un jismoniy rivojlanishi, salomatligi, jismoniy tayyorgarligi darajasi bo'lib, u jamiyat talablariga eng maqbul tarzda mos kelishi kerak.

Jismoniy rivojlanish – odam organizmning tarkib topishi, uning shakllari va vazifalarining o'zgarishini ifodalaydigan biologik jarayondir. Tor ma'noda bu antropometrik va biometrik ko'rsatkichlar: bo'yi, tana og'irligi, kukrak qafasi aylanasi, o'pka sig'imi, qaddi - qomat va boshqalardir. Jismoniy rivojlanish biologik hayot qonunlari- muhit va organizmning birligi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga muntazam ravishda o'tishga muvofiq tarzda amalga oshadi. Zotan, turmush sharoitini, jumladan jismoniy tarbiya metodlarini o'zgartirib, organizmning funksional imkoniyatlari darajasini ancha oshirish, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'zgartirish mumkin.

Jismoniy tarbiya bilan tarbiyaning boshqa jihatlari o'rtasidagi bog'lanish. Jismoniy tarbiyaning boshqa jihatlari bilan o'zaro aloqasi, bir tomondan, tarbiya maqsadi va vazifalari birligi bilan, boshqa tomondan, shaxs tuzilishi va uning rivojlanishida biologik va ijtimoiy narsalarning birligi bilan belgilanadi. Jismoniy tarbiya jarayonida ongni rivojlantirishga, ahloqqa muvofiq odamlar hulq atvoriga faol ta'sir etish mumkin.

Mustahkam salomatlik va to'laqonli jismoniy rivojlanish umumiy yuksak ishchanlikni, turli hildagi vazifalarni bajarishga tezda moslashishni belgilaydi. Jismoniy mashqlar organizmning o'sishi va rivojlanishiga, uning funksional imkoniyatlari kengayishiga chuqur ta'xsir ko'rsatadi. Harakat faoyaliti miyaning peshona qismidagi bo'limlari rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, u aqliy faoliyatni amalga oshirishda etakchi o'rin tutadi. Qo'llar va barmoqlarning harakati nutq xarakati markazi rivojlanishini ragbatlantiradi. SHu munosabat bilan bolaning nutqi, shu bilan birga fikrlashi ertaroq va to'laqonliroq rivojlanadi. Harakat barcha analizator sistemalarning ishini faollashtiradi. SHu tariqa hissiy organlar tezroq va muvaffaqiyatliroq rivojlanadi. Jismoniy va aqliy tarbiyaning mustahkam aloqasi fazodagi mo'ljal olishlarini rivojlantirishda ham namoyon bo'ladi. Ular aqliy faoliyat xilma – xil turlarining zarur jixati bo'lib, fakat ko'rish organi orqaligina

emas, shu bilan birga harakat organlari va boshqa analizatorlar ishtirokidagi jismoniy mashqlar yordamida ayniqsa faol o'zlashtiriladi.

Rejim jarayonlarini, jismoniy mashqlarni o'tkazish, chiniqish paytida bolalarning dunyoqarashi o'zgaradi, ular ayrim eng oddiy maxsus bilimlarni egallayodilar. Mustahkam sog'liq faol aqliy faoliyatning asosi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya ahloqiy tarbiya bilan bog'likdir. Bolalar gigiena, chiniqtirish tadbirlarini, xarakatli o'yinlarni bajarish chog'ida faqat axloqiy hulq - atvor (mardlik, halollik, tartiblilik va hokazolar) to'g'risidagina tasavvurlarga ega bo'lib qolmay, shu bilan birga ana shu hulq - atvor hususida mashq qiladilar, ularda irodaviy sifatlar (qat'iyat, mustakillik va hokazolar) rivojlanadi. Aksariyat jismoniy mashqlarning his - tuyg'uga boyligi ularning bola shaxsini shakllantirishga ta'sirini kuchaytiradi.

Jismoniy tarbiya asosan ishning jamoa shakllarida amalga oshiriladi. Jismoniy mashq'ulotlarda, harakatli o'yinlarda bolalarda jamoatchilik tuyg'usi shakllanadi, uyushqoqlik, intizom tarbiyalanadi. Jismoniy tarbiya bilan estetik tarbiyaning aloqasi dastavval shunda o'z ifodasini topadiki, to'lakonli jismoniy rivojlanish - bola estetik tashqi ko'rinishining garovidir. Bolalarda chiroyli qaddi - qomat, umumiy estetik qiyofa (chiroyli kiyingan, tartibli va hokazo) to'g'risida tasavvurlar shakllanadi. Bolalar mashqlarni bajarar ekanlar, erkin, chiroyli ifodali xarakat qilishga o'rganadilar, bu esa estetik to'yg'ularni tarbiyalashga ko'maklashadi.

Jismoniy tarbiya mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bogliqdir. Umumiy chidamlilikni rivojlantirish - ishchanlikni tarbiyalash asosidir. Jismoniy mashqlar jarayonida xarakat tajribasini to'plash, xarakatlar uyg'unligini, kuchni, chamalashni va boshqa qobiliyatlarni rivojlantirish mehnat xarakatlarini egallashda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Irodaviy kuch - g'ayrat sarflash odatini tarbiyalash ham muhimdir. Sog'lom, chakqon bola mehnat topshiriklarini oson bajaradi.

Jismoniy tarbiyaning tabiiy - ilmiy asoslari. Bolaning biologik rivojlanishi jarayonini tabiiy fanlar majmui o'rganadi, ularning asosini I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, va ular izdoshlarining organizm va muxit birligi, organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi ta'limoti tashkil etadi.

Oliy asab faoliyati, shartli reflektorla vositalari organizmning muhit bilan o'zaro aloqasini va unga eng ko'p darajada moslashuvini ta'minlovchi asosiy qonunlarning kashf etilishi bolani to'laqonli jismoniy va ijtimoiy rivojlantirishda tarbiyaning rolini to'g'ri tushunishga, bolalar organizmining funksional imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berdi.

Organizmdagi barcha jarayonlarning birligi to'g'risidagi qoida ko'p qirrali masala sifatida ko'rib chiqiladi.

Birinchidan, organizm yagona bir butunlikdan iborat bo'lib, undagi alohida organlar va sistemalarning ishini o'zaro bog'liq qilib quyadi. Bu qoida jismoniy tarbiya, bolaga alohida yondashish vazifalarini hal etishning asosini tashkil etadi: «jumladan chiniqtirish fakat shamollash kasalliklarni oldini olish uchun emas, shu bilan birga organizmning atrof muhitning turli noqulay ta'sirlariga chidamliligini oshirish uchun o'tkaziladi; har tomonlama jismoniy rivojlanish shuning uchun kerakki, organlar va sistemalar rivojlanishidagi nomutanosibliklar ulardan har birining ishlashiga o'z ta'sirini o'tkazadi, bu esa sog'liqning axvolida ham, harakat sifatlarida ham namoyon bo'ladi.»

Ikkinchidan, organizm – yagona bir butun bo'lib, unda jismoniy va ruhiy jarayonlar bir – birini shart qilib quyadi. Bu qoida maktabgacha tarbiya muassasasida butun ishni tashkil etish uchun ayniqsa muhimdir. Jismoniy tarbiya vositalari normal jismoniy rivojlanishni, yaxshi kayfiyatni, bolalarning bosiq va ayni paytda shodon holatini ularning ishchanligini ta'minlashga da'vat etilganidir. Busiz bolada ruhiy jarayonlarning to'laqonli kechishi, uning har tomonlama rivojlanishi mumkin emas.

Uchinchidan, organizm yaxlit bir narsa sifatida atrofdagi muxit bilan o'zaro aloqada bo'ladi. O'zgarib borayotgan muxit sharoitlariga yuksak darajada moslashish murakkab dinamik andazalarni va shartli reflektorli aloqalarni vujudga keltirish bilan ta'minlanadi. I.P.Pavlovning beixtiyor harakatlarning shartli reflektor tabiatiga bog'liqligi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro aloqasi hakidagi ta'limotnegizida jismoniy mashqlar didaktikasi ishlab chiqiladi, bolalarning madaniy – gigienik ko'nikmalarni va odatlarni o'zlashtirishi ro'y beradi.

Oliy asab faoliyati tiplari to'g'risidagi ta'limot katta ahamiyatga ega, chunki bolalarning o'ziga hos hususiyatlarini o'rganish, alohida ish olib borish metodikasi shunga asoslangandir.

Jismoniy tarbiyaning maksad va vazifalari. Jismoniy tarbiyaning maksad va vazifalari jamiyatning ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bu ehtiyoj tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqadi, bu maqsad o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda ularning yosh hususiyatlari hisobga olinadi. Jadal o'sish va rivojlanish maktabgacha yoshdagi bola organizmining o'ziga hos xususiyatidir. Lekin sistemalar va ular vazifalarining shakllanishi xali tugallanmagan bo'ladi. SHuning uchun maktabgacha yoshdagi bola juda nozik bo'ladi. SHu munosabat bilan quyidagi sog'lomlashtirish vazifalari birinchi o'ringa qo'yiladi:

hayotni muhofaza qilish, kasallikka qarshi kurash olib borish, orgnizmning tashqi muhit ta'siriga qarshiligini oshirish;

organizmning barcha sistemalarini to'g'ri va o'z vaqtida rivojlantirish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish to'g'ri qaddi - qomat va tovonna shakllantirish uyg'un jismoniy rivojlantirish.

Bolalar organizmining nomukammalligi, nozikligi bilan birga unga qudratli rivojlanishni ta'minlovchi hususiyatlar ham hosdir. Bu barcha to'qimalarning juda egiluvchanligi, tezkorligi, moda almashinuvi jarayonlarining jaalligidir. Uning juda katta moslashish imkoniyatlari shuning natijasidir. Bola sharoitlarning o'zgarishiga, jismoniy zo'riqishga kattalarga nisbatan ancha tezroq va yaxshiroq moslashadi. U o'ziga tushunarli bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga idroki baland bo'ladi, bu esa bir qancha ta'limiy vazifalarni hal etish imkonini beradi:

jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish va madaniy – gigienik ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan bog'liq dastlabki bilimlarni shakllantirish;

shaxsiy va ijtimoiy gigiena ko'nikmalarini singdirish;

kelgusida sport bilan shug'ullanish uchu nasos bo'lib hizmat qiladigan hayotiy zarur xarakterlar malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Jismoniy mashqlar bolalarning to'laqonli akliy, ahloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga yordam berib, ularning ma'naviy – irodaviy sifatlarini (jasurlik, halollik, qat'iyat va boshqalarni) rivojlantiradi.

Jismoniy tarbiya maqsadlari va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bizning mamlakatimizda yagona davlat sistemasi birpo etilgan.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya tizimi. O'zbekistonda jismoniy tarbiya tizimi mafkuraviy, ilmiy – metodik, dasturiy – me'yoriy, asoslar birligidan iborat. O'zbekistondagi jismoniy tarbiya tizimi o'zini g'oyaviyligi, xalqchilligi va ilmiyligi bilan ajralib turadi. U barkamol avlodni tarbiyalash, rivojlantirish, sog'lomlashtirish bilan bog'liqdir. shuningdek jismoniy tarbiyaning mehnat bilan aloqasiga bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshdagibolalar bilan ish olib borishda bu qoidalar quyidagilarda o'z ifodasini topadi. SHaxsni har tomonlama rivojlantirish qoidasi harakat madaniyati asoslarini shakllantirishni va ayni vaktida akliy qobiliyatlarini (topqirlik, kuzatuvchanlik, qiziqish va boshqalar), ahloqiy fazilatlarini (intizomlilik, jamoatchilik, va boshqalar), estetik didni rivojlantirishni ta'minlaydi. U yoki bu alohida jismoniy mashq turlariga erta ixtisoslashuviga yul qo'yib bo'lmaydi. U bola salomatligiga va uning uyg'un jismoniy rivojlanishiga zarar etkazishi, yangi ko'nikmalar, keyinchalik sport mahorati tarkib topishida, shakllanishida qiyinchilik tug'dirish mumkin.

Sog'lomlashtirish yo'nalishi qoidasi materiallar va vositalar mazmunini, hajmini tanlashni ko'zda tutadi, u salomatlikni mustahkamlashni, shifokor – pedagog nazoratini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiyaning mexnat tajribasi bilan aloqasi qoidasi bolalarni ijtimoiy asoslangan xar hil harakatlar tajribasi bilan boyitishda namoyon bo'ladi. Turli vositalardan foydalanib, bolalarda aniqlik, harakatlar tezligi, sharoitga bog'liq tarzda o'zini qayta qura olish, o'quv, mexnat, maishiy kabi har kandy yangi faoliyatda tezda o'z o'rmini topish tarbiyalanadi.

Maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida jismoniy tarbiya sistemasi jismoniy tarbiya vazifalari ro'yobga chiqariladigan ilmiy asoslangan mazmun, vositalar, metodlar va shartlarning kompleks mazmunidan iboratdir.

Jismoniy tarbiya shartlari. Asab sistemasinimuxofaza qilish bolani to'laqonli jismoniy va ruhiy rivojlantirishning muxim shartlaridan biridir. Dastavval u faoliyatning turli xillarini almashtirishni belgilab beruvchi oqilona rejimni tashkil etish orqali ta'minlanadi, bunda turli shakllardagi xarakatlarga katta o'rin beriladi. Bolaning kunduzgi va tungi to'laqonli uyqusini ta'minlash xam juda muhim ahamiyatga egadir, bu yakka tartibdagi ehtiyojlar va oliy asab faoliyatining ishi hususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Asab sistemasining bosiqliqi uchun qulay ruhiy iqlim yaratish katta ahamiyatga egadir. Ijobiy xis – to'yg'ular bosh miya qobig'i ishini yaxshilaydi, undagi biotoklarning bir me'yorda bo'lishiga ta'sir etadi. Bu barcha analizator sistemalarini rivojlantirishga, turli – tuman ruxiy jarayonlarning muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

Hissiy holatning o'zgarishi bilan barcha organlar faoliyati o'zgaradi. Ijobiy xissiyot fiziologiya sistemalari vazifalarini faollashtiradi, salbiylari – charchatadi: yurak urishi tezligi kamayadi, tomir urishi susayadi, qonga kislorodning kelishi pasayadi.

Ijobiy xis – to'yg'u holatidagi bola yaxshi ovqat eydi, yaxshi uxlaydi, atrofda bolalarga va kattalarga hayrihohlik bilan munosabatda bo'ladi, kam kasal bo'ladi, to'laqonli rivojlanadi, unda ishonch, dilkashlik, nekbinlik shakllanadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi jismoniy tarbiyaning navbatdagi shakli oddiy muhitni barpo etish zarurligidir, ya'ni xona va uchastkani oqilona rivojlantirish, bolalarning yoshiga muvofiq tarzda mebel va badantarbiya uskunalari bilan ta'minlashdir. Zal va uchastka bolalarning harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun eng ko'p darajada mos bo'lishi kerak. Buning uchun zalda kamida to'rt qator gimnastika devori, to'rtta skameykasi, bordon to'shaklar, bir necha darvozachalar, taxtachalar, nishonlar va bolalarning soniga qarab kichik uskunalar bo'lishi kerak.

Uchastkada fizkultura anjomlari bo'lgan sport maydonchasi, sakrash chuqurchasi bo'lgan yugurish yo'lkasi, sport tarkibiy qismi bo'lgan o'yinlar uchun turli moslamalar bo'lishi kerak. Qishda sport maydonchasi yaxmalak qilinadi, yugurish yo'lkasi esa chang'i uchish joyi bo'ladi.

Mavjud normativlarga muvofiq tarzda sanitariya – gigiena vaziyatini barpo etish ham jismoniy tarbiyaning muxim shartidir. Bu shart xona va uchastkada ozodalik va tartibni saklashni, xonada okilona yorug'lik, havo va harorat rejimiga rioya etishni shuningdek bolalar va kattalar kiyimi gigienasini kuzda tutadi.

### **Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarning sog'lom hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlari**

Ma'lumki, bugungi bolalar qayerda yashashidan qat'iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologiya, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalardagi o'zgarishlar bilan to'qnash kelishlariga to'g'ri keladi, ushbu o'zgarishlar pirovardida jamiyat uchun zarur kasblar majmuining ham o'zgarishiga olib keladi. Xozirgi dunyoda sodir bo'layotgan tezkor o'zgarishlar bolalarning doimiy ravishda yangi narsalarni o'zlashtirishini, butun umri davomida o'qishini taqozo qiladi bu esa sog'lom turmush tomon bosilgan qadam bo'ladi.

Bugungi kun yoshlardan XXI asr muammolarini hal etish uchun hayotiy zarur qobiliyatlar asosini yaratishga harakat qiladi. Bunday qobiliyatlar jumlasiga biz quyidagilarni kiritamiz:

- o'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- tanqidiy fikrlash;
- tanlashni amalga oshirish;
- muamolarni qo'yish va hal etish;
- ijodni, fantaziyani va ixtirochilikni namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-muhit to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

Har bir bola alohida holda o'sadi va rivojlanadi, biroq shunga qaramay barcha bolalar rivojlanishning ma'lum ketma-ketlikdagi bosqichlaridan o'tadilar. Ushbu bosqichlarning har birida bir xil yoshdagi bolalar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar kuzatiladi.

Rivojlanish sohasidagi izlanishlar shundan dalolat beradiki, bola hayotining dastlabki to'qqiz yili o'sish davrining muayyan davomiyligida o'tadi, bu umumiy va oldindan aytib berish mumkin bo'lgan bosqichdir. Bu bosqichlar rivojlanishning har bir sohasidagi o'zgarishlar bilan ajralib turadi: jismoniy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv. Bolalar o'sishining o'ziga xosligi to'g'risidagi bilimlar tarbiyachilarga ta'lim muhitini yaratishga va faoliyatning muvofiq turlarini rejalashtirishga tayanch bo'lib xizmat qiladi. Rivojlanish xususiyatlariga mos kelish usullarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun tarbiyachilar me'yordagi rivojlanishning borishi



to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Bunda tarbiyachilar shuni yodda tutishlari lozimki, bolalar rivojlanishning bir xil bosqichini bosib o'tishlariga qaramasdan, ularda bu jarayon bir vaqtning o'zida kechmaydi. Bir xil yoshdagi bolalarda o'ziga xos individual farqlar bo'lishi muqarrar.

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh) kichik bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr (o'rta bog'cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog'cha yoshilarga ajratish mumkin.

Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti- harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarining o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin

bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishiga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim muassasalarida hozirgiri kunda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda buni shu kurs ishini taxlayotgan bilib turdim. Bolalarga sog'lom turmush tarziga g'amxo'rlik qilish jismoniy va axloqiy salomatlikning asosidir, sog'liqni saqlashga faqat pedagogik, tibbiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali erishish mumkin. Barcha ota-onalar o'z farzandiga hayotdagi eng yaxshi boshlang'ichni berishni xohlashadi va ko'pchilik harakat normal rivojlanish, rivojlanish va yaxshi salomatlik uchun zarurligini yaxshi bilishadi. Bolalarda faol hayot tarziga ijobiy munosabatda bo'lish, kelajakda ularning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash istagi oilada ota-onalarning muhim tarkibiy qismidir. Bolalar bog'chasi va oilaning tarbiyaviy vazifalari bir-biridan farq qiladi, lekin bolaning barkamol rivojlanishi uchun ularning o'zaro aloqasi zarur, uning sifati ota-onalarning pedagogik madaniyati darajasiga va shunga mos ravishda bolalar tarbiyasiga bog'liq. Ota-onalar va o'qituvchilar bu har bir shaxsning shaxsiyatini shakllantirishga yordam beradigan odamlardir. Ota-onamni chinakam va samimiy yordamchilarga aylantirmoqchiman! Darhaqiqat, bolalarning munosabati ota-onalarning bolalar bog'chasiga, keyin esa maktabga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liq.

Zamonaviy, juda band ota-onalar, ba'zida har doim ham bolalariga ko'p vaqt ajratishga qodir emas. Bu achchiq, ammo bu haqiqat. Ota-onam bilan muloqot qilishdan men ular xohlagan degan xulosaga keldim, lekin qanday qilib tarbiyalashni bilmayman, shuning uchun ular farzandlari va bu ota-onalarning aksariyati bilan muammolarga duch kelishmoqda. Ularga yordam berish kerak. Birgalikda sport bayramlari bunday yordamchiga aylanishi mumkin. Ular oilani

mustahkamlashga, kattalar, o'qituvchilarni bolalar bilan birgalikda ijodiy jarayonga jalb qilish, ularning samarali muloqotlari va birlashishi paytida amalga oshiriladi. Loyiha tugagandan so'ng, bolalar va ota-onalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va viloyat musobaqalarida sport tadbirlarida faol ishtirok etishiga umid qilamiz.

Sog'lom turmush tarzining muhimligi shundan iboratki og'ir alomatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan turli nojo'ya ta'sirlarga qarshi kurashishdir masalan bo'yning o'sishi, sinfdagi muvaffaqiyatsizliklar, o'yinlarda, sportda. Bolalarning jismoniy rivojlanishining umumiy tizimida motor harakati alohida o'rin tutadi. Maktabgacha yoshda sog'lom sog'liq, to'g'ri jismoniy rivojlanish va yuqori ko'rsatkichlarning asoslari yotadi. Bu yillarda vosita faoliyatining shakllanishi, shuningdek, jismoniy fazilatlarini dastlabki ta'lim olish.

Harakat - bu atrofdagi dunyoni bilish, tananing biologik ehtiyojlarini qondirish vositasidir. Rivojlanayotgan organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytirishda, motor faolligini oshirishda vosita faoliyatining rolini ortiqcha baholash qiyin. Ammo harakatning etishmasligi tanadagi patologik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Har bir inson uchun katta qadriyat bu sog'liqdir. Bolaning sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish butun dunyoda ustuvor vazifaga aylandi. Yosh avlod salomatligini saqlash va mustahkamlash hozirgi kunda ustuvor ijtimoiy muammoga aylanmoqda. So'nggi o'n yil ichida maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lig'i keskin yomonlashdi. Bolalarning sog'lig'i bilan bog'liq muammolar yangi yondashuvlarga muhtoj. Bugungi kunda ota-onalarning o'zlarini ham, bolalarini ham sog'lomlashtirishga qiziqishini shakllantirish va saqlab qolish muhimdir. Sog'liqni saqlash nafaqat kasallikning yo'qligini, balki aqliy va ijtimoiy farovonlikni ham tushunishlariga yordam berish. Sog'lom turmush tarzining muhimligini anglagan holda, biz, o'rta guruh o'qituvchilari, "Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz!" Loyhasini boshlashga qaror qildik. Bolani kuchli, baquvvat va sog'lom qilib tarbiyalash ota-onalarning xohishi va DOE oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Oila va bolalar bog'chasi - bu asosan bolaning sog'lig'i darajasini belgilaydigan ijtimoiy tuzilmalar.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning sog'lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlari: ekologik-gigiena sharoitlari, psixologik qulaylik, kundalik hayot, optimal vosita faoliyati.**

**Reja:**

**1 Sog'lom turmush tarzi va uning yetti qoidasi**

**2 Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish**

**3 Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar**

Sog'lom turmush tarziga rioya etish ko'plab muammolarning oldini olish demakdir. Bugun ushbu mavzuga juda ko'p duch kelayapmiz. Bir qaraganda qiyin ko'rinuvchi, anchagina kuch, sabr va iroda, vaqt va sharoit talab etuvchi sog'lom turmush tarzining asosiy qoidalari nimalardan iborat? O'zgalarga maslahat berishdan oson ish yo'q bo'lib turgan bugungi kunda qanday qilib sog'lom turmush tarziga rioya etish mumkin? Quyidagi sog'lom turmush tarzining eng muhim 7 qoidasi sizni bizga avvaldan ma'lum bo'lgan, biroq hayotning maydatchuyda tashvishlari bilan yodimizdan ko'tarilgan va amalga oshira olmay qolgan tartiblarni yodga solsa ne ajab.

### **1. Sport.**

Sport — umrimiz oxiriga qadar sog'lom hayot kechirishning asosiy shartlaridan. U yosh ham, joy ham, hattoki shart-sharoit ham tanlamaydi. Uning ko'rinishlari, shakllari, usullari ko'p. Yoga, pilates, piyoda yurish, yugurish, turnikka tortilish, otjimoniya, raqs, rafting, bodibilding, gimnastika, futbol va hokazo turlari bor. Istaganingizni tanlang, jismonan faol bo'lsangiz kifoya. Har kuni emas, kunora 30-60 daqiqa sport bilan shug'ullansangiz, sog'lom bo'lishingiz uchun yetarli.

Kamroq o'tirish va ko'proq harakatlanish kerak. Agarda kasbingiz o'tirib ishlashni taqozo etsa, har soatda kamida 5 daqiqa tanaffuz qiling va bu vaqtda turli yengil mashqlarni bajarib, yelka, bel va oyoqlar chigilini yozing.

### **2. To'g'ri ovqatlanish.**

Ovqatlanish ratsioningizga tabiiy mahsulotlar — meva va sabzavotlar, vitamin va minerallarga boy oziq-ovqatlarni ko'proq kiring. Ovqatlanish ratsionining 65 foizini meva va sabzavotlar, non va turli bo'tqalar tashkil etishi, 30 foizi go'sht va sut mahsulotlari, 5 foizi shirinlik va yog'larga ajratilishi lozim. Ozuqalar imkon qadar yangi, mavsumga mos bo'lishi lozim. Bahor va yozda o'simliklar, qishda oqsil va yog'ga boy mahsulotlarga ko'proq o'rin ajratilishi lozim. Har kuni 2 litr atrofida suv iching. Fastfud, gazli ichimliklar, yarim tayyor

mahsulotlar, chips va kiryeshkilar, boshqa ko'plab sun'iy ta'm, rang va shakl berilgan ozuqalardan voz keching.

Ovqatlanishda xilma-xil taomlarni aralashtirib yubormaslik lozim. Mevalar ovqatdan yarim soat avval, choy va ichimliklar 1-2 soat keyin iste'mol qilinishi zarur. Kechki 19-00dan keyin faqatgina bir oz olma tanovvul qilishga ijozat beriladi.

### **3. Zararli odatlar.**

Organizmining asosiy dushmanlaridan bo'lmish tamaki va alkogol mahsulotlari, turli zararli odatlar (ularni o'zingiz yaxshi bilasiz)dan voz kechish orqali sog'lom turmush tarziga keng yo'l oching. Har bir chekilmagan sigaret, ichilmagan har bir stakan aroq sizning sog'lom hayot kechirish sari tashlagan muhim qadamingizdir.

### **4. Kun tartibi.**

Kun tartibiga qat'iy rioya eting. Birinchi navbatda — 8 soatlik uyqu! Ikkinchidan, kunning bir vaqtida uxlash va muayyan vaqtida uyg'onishga odatlanish! Uyquning buzilishi asta-sekinlik bilan inson ruhiyati, hissiyotlariga ziyon yetkazadi, ishchanlik kayfiyatini yo'qotadi, keyinchalik turli surunkali, jiddiy xastaliklarning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

### **5. Ijobiy kayfiyat.**

Sog'lom turmush tarzining yana bir muhim qoidasi — yorqin va ijobiy kayfiyat! Hayotdan ko'proq zavq oling, muvaffaqiyatsizlik, omadsizliklarga ko'p e'tibor qaratmang, doimo olg'a intilish uchun kuch topa biling va odamlarga nisbatan g'araz, gina-kudurat, yomon gumonlar saqlab yurmang, kechirimli, bag'rikeng bo'ling. Nodonlar bilan aslo tenglasha ko'rmang!

### **6. Toza havо.**

Uyingiz, xona va ish kabinetiningizni doimo toza tuting, har kuni uni artib-tozalang, derazalarni ochib, toza havо kirishini ta'minlang. Normal jismoniy holatda bo'lish uchun albatta chuqur va to'g'ri nafas olishni bilish lozim. Tabiat qo'ynida sayr qilish, oynalarni ma'lum muddat ochib qo'yish, tomorqa yoki ochiq havoda jismoniy mehnat qilishga yetadigani yo'q.

### **7. Shaxsiy gigiyena.**

Ovqatlanishdan avval va keyin albatta qo'llarni yuvish, uyqudan oldin va ovqatlanishdan keyin tishlarni tozalash, toza kiyim, umuman, tozalikka qat'iy rioya etish sog'lom turmush tarzining asosiy shartlaridan hisoblanadi. Unutmang! Sog'lom turmush tarzi, bu — har qanday kasalliklar profilaktikasi va salomatlik, kuch-quvvat garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish garovidir. Sog'lom turmush tarzi qoidalariga rioya etgan odam oilasi, mehnat jamoasi, umuman, jamiyatda o'z o'miga ega bo'ladi, turli murakkab

vaziyatlarni yengib o'tish, hayot qiyinchiliklari oldida o'zini yo'qotmaslikka o'rganadi.

Yana bir gap! Sog'lom turmush tarzi qoidalari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, biri ikkinchisiz sodir bo'lishi amrimahol. Ularni ertaga qoldirmasdan, hoziroq amalga oshirishni boshlash bilan sog'lom va baxtli hayot sari ilk qadamlarimizni tashlagan bo'lamiz.

- Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta'lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasasiga birlashtirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

- Maktabgacha ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya-gigiyena normalariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya etilishi doimiy ravishda nazorat qilib borilishi lozim.

- Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ular bilan maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasida o'zaro munosabatlar bo'yicha shartnoma tuzilayotgan vaqtda ushbu Nizom talablari bilan tanishtirilishi lozim.

- Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishda quyidagilar:

- barcha telefon apparatlari oldida hamda maktabgacha ta'lim muassasasining markazida yong'in xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar, tez yordam xizmatlari, ichki ishlar idoralarining telefon raqamlari va ularga bog'lanish tartibi ko'rsatilgan peshlavhalar mavjud bo'lishi;

- maktabgacha ta'lim muassasasining barcha xodimlarida muassasa mudiri hamda o'z guruhidagi tarbiyalanuvchilarning yashash manzili, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning telefon raqamlari mavjud bo'lishi shart.

- Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari bola to'satdan kasal bo'lib qolsa yoki noxush holat yuzaga kelgan taqdirda, birinchi tibbiy yordam ko'rsatishga tayyor turishi lozim. Har bir guruhda bolalar tomonidan olishning imkoniyati bo'lmagan joyda kerakli dori-darmonlari bo'lgan aptechka bo'lishi shart.

- Maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik kengashlar, kasaba uyushmasi yig'ilishlari va boshqa tadbirlarni bolalarning uyqu soatlarida tashkil etish lozim. Bunda albatta guruhda tarbiyachi yordamchisi qolishi shart.

- Maktabgacha ta'lim muassasasida ovqatlanishni tashkil etish, oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanishi va taomlarning tayyorlanishi O'zbekiston Respublikasida tasdiqlangan sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

• Bolalar sayr va ekskursiyaga olib chiqilganda, tarbiyachi tomonidan ularning hech qanday meva va o'simliklarni iste'mol qilmasliklari nazorat qilinishi lozim.

• Maktabgacha ta'lim muassasasi hududidan uzoqroqqa sayr yoki ekskursiyaga chiqayotgan guruh kamida ikki nafar xodim bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Bunda xodimlarning biri safning oldida, ikkinchisi safning orqasida harakatlanib borishi lozim.

• Bolalarning tartibli ravishda sayr yoki ekskursiyaga olib chiqilishi ichki ishlar idoralari bilan kelishilgan holda o'rnatilgan tartibda yo'l-patrol xizmati xodimlari kuzatuvida amalga oshirilishi kerak.

• . Yayov holda sayr yoki ekskursiyaga chiqishdan oldin tarbiyachi:

• o'tkaziladigan tadbir haqida maktabgacha ta'lim muassasasi ma'muriyatini oldindan ogohlantirishi;

• o'zi bilan olib ketadigan bolalarning sonini bilishi;

• bolalar olib boriladigan joyni avvaldan rejalashtirib olishi va harakatlanish yo'nalishiga aniqlik kiritishi lozim.

• . Kunning issiq paytlarida bolalarga issiqlab ketmasligi uchun yengil bosh kiyimlari kiydirilishi lozim. Bolalarning quyosh vannalarini qabul qilishi hamda maktabgacha ta'lim muassasasi hududidagi suv havzalarida cho'milishlari tibbiyot xodimlari va tarbiyachining nazorati ostida olib borilishi zarur.

• Maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiyachilari va boshqa mutaxassislari tomonidan ish vaqti davomida bolalarni qarovsiz qoldirish taqiqlanadi. Tarbiyachi yoki boshqa mutaxassislar bo'lmaganda tegishli guruhga mudira tomonidan boshqa javobgar shaxs tayinlanishi lozim.

• Maktabgacha ta'lim muassasasi hududiga shaxsini tasdiqlovchi hujjati bo'lmagan kishilarning kiritilishi taqiqlanadi.

• Ota-onalar yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslar o'z bolalarini maktabgacha ta'lim muassasasiga olib kelganda tarbiyachining shaxsan o'ziga topshirishi, shuningdek bolani maktabgacha ta'lim muassasasidan olib ketish vaqtida tarbiyachilar bolani shaxsan ota-onalarga yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslarga topshirishi shart.

• Bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasidan yaqin qarindoshlari tomonidan olib ketilishiga yo'l qo'yiladi. Bunda bolalarni olib ketuvchi shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari ko'rsatilishi lozim.

• Maktabgacha ta'lim muassasasidan bolalarning boshlang'ich maktab yoshidagi (1 - 4-sinflar) hamda mast holatdagi shaxslar tomonidan olib ketilishi man etiladi.

- Ota-onalar yoki ularning o`mini bosuvchi shaxslar o`z bolasini maktabgacha ta`lim muassasasidan olib ketishga kelmay qolganda, tarbiyachi ish vaqtdan so`ng bolani uyiga kuzatib qo`yishi lozim. Bunday vaqtda tarbiyachi tomonidan bolani bir o`zini guruhda yolg`iz qoldirish yoki boshqa xodimlarga tashlab ketishi qat`iyan taqiqlanadi.

- Tarbiyachi tomonidan bolani uyiga kuzatib borish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar bolaning ota-onasi yoki ularning o`mini bosuvchi shaxslari tomonidan qoplanadi.

- Maktabgacha ta`lim muassasasining ikki qavatli binolarida joylashgan xonalarning zinapoya va o`tish joylarida oralig`i bir-biriga zich bo`lgan vertikal panjaralar bilan jihozlangan baland to`siqlar o`rnatilishi lozim.

- Maktabgacha ta`lim muassasasining ikkinchi qavatidagi balkon to`siqlarining balandligi bir metrdan ortiq bo`lishi kerak.

- Guruh va foydalanilayotgan xonalardagi barcha derazalar ichkariga ochilishi va fiksatorlar bilan mustahkamlanishi lozim, ochiladigan derazalarda to`rlar bo`lishi kerak. Ikkinchi qavat derazalarini bolalar xonada bo`lgan vaqtda ochish man etiladi.

- Maktabgacha ta`lim muassasasiga kirishdagi eshiklarga qo`ng`iroq o`rnatilgan bo`lishi hamda oson ochiladigan bo`lishi kerak.

- Maktabgacha ta`lim muassasasidagi shift panellari, bloklar, pollar, yuvinish xonalaridagi santexnik jihozlar va shu kabilar muntazam ravishda texnik ko`rikdan o`tkazib turilishi lozim.

- Maktabgacha ta`lim muassasasida vodoprovod va kanalizatsiya tizimlari, mebel, jismoniy tarbiya jihozlari, deraza darchalari va framugalarning mustahkamligi hamda sozligi doimiy nazorat qilinishi kerak.

- Bolalarning o`yinchoqlari uchun mo`ljallangan shkaflar, xo`jalik shkaflari, sochiq va kiyimlar uchun ilgichlar, rasm va portretlar devor yoki polga mustahkam qoqilgan holda bo`lishi kerak.

- Gullar uchun ishlatiladigan moslamalar mustahkam o`rnatilgan bo`lishi kerak. Xona gullari tikansiz bo`lib, barglari inson organizmi uchun bezarar bo`lishi kerak.

Maktabgacha ta`lim muassasasi ma`muriyati barcha turdagi yong`in xavfsizligi bo`yicha tadbirlarni o`tkazish va har haftada ko`ngilli yong`in drujinasi xodimlari ishtirokida yong`in chiqqanda harakatlanish tartibini o`rganish bo`yicha mashg`ulotlarni tashkil etish yo`li bilan xodimlarning yong`in va elektr xavfsizligi qoidalarini o`zlashtirishlarini tashkil etishlari lozim.



Har bir maktabgacha ta'lim muassasasi yong'in xavfsizligi jihozlari bilan ta'minlanishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasining mudiri binoni zarur bo'lgan ish holatidagi birlamchi o't o'chirish vositalari bilan yetarli miqdorda ta'minlashi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasining har bir xodimi quyidagilarga majbur:

- a) yong'in xavfsizligi qoidalarini bilishga va ularga qat'iy rioya qilishga;
  - b) birlamchi o't o'chirish vositalari joylashgan joyni va ularni qo'llashni bilishga;
  - v) bolalar va mulkni evakuatsiya qilish rejasi bo'yicha o'zining funksional vazifalarini va harakatlanish tartibini bilishga (evakuatsiya rejasi har bir qavatning ko'rinarli joyiga ilinadi);
  - g) yong'in yuzaga kelganda, bu haqda o'z vaqtida yong'in xavfsizligi xizmatiga xabar berishi va yong'inni o'chirish, bolalarni qutqarish bo'yicha barcha choralarni qo'llashga;
  - d) evakuatsiya rejasi asosida muntazam ravishda yong'in holatlari yuzaga kelganda, bolalarni binodan evakuatsiya qilish bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazib borishga;
  - e) yong'in chiqqanda bolalar va xodimlarning evakuatsiyasi ikki yo'l orqali amalga oshirilishini bilishga.
- Maktabgacha ta'lim muassasasida ish vaqti tugaganidan so'ng yong'in chiqqanining oldini olish maqsadida barcha elektr jihozlari tok manbaidan o'chirilishi lozim.
- Elektr simlari izolyatsiyalangan va elektr jihozlari bolalar qo'li yetmaydigan joyda bo'lishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi elektr jihozlari iste'molchi elektr moslamalardan foydalanishdagi texnika xavfsizligi talablariga javob berishi kerak.
- Pechka orqali isitiladigan maktabgacha ta'lim muassasasi ularni yoqish bolalar kelishidan bir soat oldin, kechayu kunduz ishlaydigan maktabgacha ta'lim muassasasida esa bolalar kechki uyquga ketishidan ikki soat oldin o'chirilishi kerak.
- O'yin va boshqa xonalardagi markaziy isitish radiatorlari tozalash uchun ochiladigan va yechiladigan ekranlar bilan to'silgan bo'lishi kerak.
- Tung'i vaqtda navbatchilik qiluvchi xodimlarda har bir xonaning zaxira kalitlari saqlanishi va ular fonarlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.
- Maktabgacha ta'lim muassasasi atrofidagi yo'llarda o't o'chiruvchi mashinalarning kirishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan to'siqlar mavjud bo'lmasligi lozim.

- Tungi guruhi bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasasidagi navbatchi va tungi tarbiyachi har kuni kechqurun 20:00 gacha yong'in xavfsizligi idoralariga maktabgacha ta'lim muassasasidagi mavjud bolalar va xodimlar soni haqida o'rnatilgan tartibda axborot berishi shart.

- Maktabgacha ta'lim muassasasi yer maydoni balandligi 1,5 metrdan past bo'lmagan, to'g'ri vertikal va o'tkir uchlarisiz hamda oralig'i zich bo'lgan panjaralar bilan o'ralgan bo'lishi kerak.

- Maktabgacha ta'lim muassasasi hududi tungi vaqtda yoritilgan bo'lishi kerak.

- Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va o'yin maydonchalaridagi jihozlar hamda ularning to'siq va ustunlari mustahkam o'rnatilgan bo'lishi, shuningdek foydalanish uchun xavfsiz bo'lishi kerak. Pavilonlar, soyabonlar va boshqa jihozlarning sozligi, texnik mustahkamligi va xavfsizligi muntazam ravishda nazorat qilinishi kerak.

- Maktabgacha ta'lim muassasasi hududiga inson sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan tikanakli butalar hamda zaharli mevali o'simliklarni ekish man etiladi.

- Qish mavsumida maktabgacha ta'lim muassasasi hududidagi bino tomlari muz va qordan tozalanishi kerak, tomda osilgan muz va qorlar hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

- Chuqurliklar to'ldirilishi, quduqlar va chiqindi qutilari mahkam yopilishi kerak. Hududda bolaga xavf tug'diruvchi (mixi chiqib turgan qutilar, uzilgan elektr simlari, singan oyna, tosh va hokazolar) narsalar bo'lmasligi kerak. Qurigan daraxt va shox-shabbalar muassasa hududidan vaqtida chiqarib tashlanishi kerak.

- Maktabgacha ta'lim muassasasi hududi yong'in xavfsizligi me'yor va qoidalari talablariga muvofiq yong'in qarshi vositalar bilan ta'minlangan o't o'chirish qalqonlari bilan jihozlanishi kerak.

- Xo'jalik maydoni maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy xududidan ajratilgan bo'lishi va alohida qulflanadigan kirish yo'lagiga ega bo'lishi kerak.

- Yoqilg'i zaxiralari bola kira olmaydigan va alohida ajratilgan joyda saqlanishi lozim. Ko'mir zaxirasi alohida ajratilgan joyda va usti yonmaydigan qoplama (tuproqli qorishma) bilan yopilgan bo'lib, birlamchi o't o'chirish moslamalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

## **Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga moslashtirish metod, vosita va usullari.**

### **Reja**

**1 Bolalarning faoliyatida ta'lim-tarbiya vazifalarni amalga oshirish va rahbarlik qilish**

**2.Kuning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish**

**Tayanch tushunchalar: Faoliyat** – kishining madaniy ma'naviy ne'matlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi ma'lum bir maqsad sari qiladigan xatti-harakatlar majmuasi.

**1.Bolalarning faoliyatida ta'lim-tarbiya vazifalarni amalga oshirish va rahbarlik qilish**

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir. Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o'z-o'ziga xizmat kilish sayrlar o'tkazish gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish MTMsidagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

MTMsining pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va u kundalik hayotda, o'yinda, mehnatda, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari xal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutqni o'stirish va savod o'rganish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar MTM dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishida va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika prinsiplari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi.

Xaftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg'ulotlar qo'yiladi. Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.

Kun davomida birinchi bo'lib bolalardan aqliy zo'r berishni ko'proq talab etadigan, kam harakatli mashg'ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayot va

tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Ikkinchi mashg'ulotga yengilroqlari: tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'uloti va shunga o'xshashlar rejalashtiriladi.

Kun davomida mashg'ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, nutq o'stirish va tasviriy faoliyat va hokazo.

Mashg'ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini yengilroqo'zlashtirib olishiga imkon yaratadi. O'yin bolalarning muhim faoliyati hisoblanadi. U bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida, shaxs sifatida shakllanishida va bolalar jamoasining tashkil topishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin bolaga quvonch bag'ishlaydi, ijobiy his va kechinmalarini, hayotdan olgan taassurotlarini aks ettiradi. O'yin mazmuni bola shaxsining shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun kattalar bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularda tevarak-atrofdan olayotgan taassurotlari ijobiy tomonini aks ettirish xohishini uyg'otishlari kerak.

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, ularning tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi bilimlarini boyitadi (bu orqali o'yin mavzusi, mazmuni, syujeti boyiydi), bolalarning axloqiy hislarini, o'zaro ijobiy munosabati va odatlarini tarbiyalaydi. O'yindan bolalardagi o'zaro o'rtoqlik, do'stlik, bir-biriga yordam ko'rsatish xislatlarini tarbiyalashda va bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida foydalanadi.

Bolalarning o'yin bilan shug'ullanishi va mehnat qilishlari uchun kerakli materiallar bilan ta'minlanadi, shu orqali bolalar o'yinining mehnat bilan uyg'unlashib ketishiga erishiladi.

Tarbiyachi bolalarning syujetli-rasmi o'yinlarining hamma xilini syujetli-rolli, qurilish dramalashtirilgan tabiiy materiallar bilan o'ynaydigan qilib tashkil etadi. Bolalarga o'yin harakatlarini o'rgatadi, tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarda xaqqoniylik prinsipiga rioya qilishni uqtiradi. Shu bilan birga u bolalardagi ijodkorlik, tashabbuskorlik, faollik va boshqa xislatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Ijodiy o'yinlar ertalabki qabul paytida, kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi sayrda, ya'ni mashg'ulotdan tashqari hamma vaqtda tashkil etilaveradi.

Mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtda o'ynaladigan didaktik va harakatli o'yinlar muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning sensor rivojlanishini, aqliy tarbiyasini, bilish jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshiradi. Xarakatli o'yinlarda bolalarning jismoniy madaniyatinn tarbiyalash uchun yaxshi shart-sharoit yaratish kerak.

Harakatli o'yinlar ertalabki va kechki sayr soatlarida tashkil etilib, kuniga 1-2 marta butun guruh, yoki guruhcha bilan o'tkazilishi kerak. O'rta va katta gurhlarda

turli xil sport o'yinlari o'tkazib turiladi. Hamma o'yinlar uchun kun tartibidan vaqt ajratish va kerakli materiallar bilan ta'minlash tarbiyachining zimmasiga yuklatilgan.

Kun davomida bir necha marta: ertalabki qabul vaqtida, ertalabki va kechki sayrda bolalarning mustaqil faoliyatlari tashkil etiladi. Bolalar o'zlariga tanish bo'lgan didaktik va harakatli o'yinlarni o'ynaydilar, xohlagan rasmlarini chizadilar, xohlagan narsalarini (plastilindan) yasaydilar, kitoblar, rasmlarni tomosha qiladilar, xohlagan badiiy asarlarini tinglaydilar.

Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtda bolalarning o'z-o'zini tashkil eta bilish qobiliyati o'sishiga, xulq, madaniyati irodaviy sifatlarining tarbiyalanishiga, jamoa munosabatlarining shakllanishiga yordam beradi. U har xil faoliyatlarda bolalardagi o'ziga xos ijodkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun bolalarning mustaqil faoliyatiga ham tarbiyachining rahbarlik qilishi taqozo etiladi: chunki xohlagan ishi bilan shug'ullanishiga imkon yaratish, kerakli material va asbob-uskunalar bilan ta'minlashda yordam berishda, tarbiyachining maslahati lozim buladi.

Kun davomida sistemali ravishda mehnat faoliyati tashkil etilib, bolalar kattalarning mehnati bilan tanishtirib boriladi. Bu ish mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, maqsadli sayrlarda, bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatida amalga oshiriladi. Bunda bolalarning asosiy e'tibori mehnatning insonlar uchun foydasiga, uning xilma-xilligiga, ahloqiy munosabatlariga qaratiladi.

Bolalarning ovkatlanishga, mashg'ulotga tayyorlanishlari, tabiat burchagida navbatchilik vazifasini bajarishlari, ularda topshirikqa nisbatan javobgarlik hissini rivojlantiradi, shu bilan birga ijtimoiy his va munosabatlarni shakllantiradi.

Navbatchilik ikkinchi kichik guruxda yilning ikkinchi yarmidan boshlanadi va hamma yosh guruhlarida davom etadi. Katta guruh bolalarining qo'l mehnati, tabiatdagi mehnati, xo'jalik-maishiy mehnatlari har kuni ertalabki soatda ertalabki va kechki sayrda sistemali ravishda tashkil etib boriladi. Haftasiga bir marta butun guruh ishtirokida bolalarning jamoa mehnati tashkil etiladi, mashg'ulotlarda qo'l mehnatining yangi turi o'rgatiladi. Mehnat jarayonida bolalarning mehnat qilish malaka va ko'nikmalari takomillashadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, qiziqishlari ortadi, mehnatsevarlik, javobgarlik, burch hissi kabi axloqiy sifatleri shakllanib boradi.

Bolalarning mehnat faoliyatini ularning jismoniy va aqliy faolligini o'stiradigan qilib tashkil etilishi kerak. Buning uchun ularni hamma kerakli

materiallar va mehnat qurollari bilan ta'minlash lozim. O'z-o'ziga xizmat bolalar mehnatini tashkil etish shakllaridan biri hisoblanadi.

Kichkina guruhdan boshlab bolalar mustaqil kiyinish va yechinishga o'rgatiladi. Katta guruh bolalari o'zlarini har doim batartib (tashqi ko'rinishi, sochi, kiyimlari, oyoq kiyimi) tutishlari kerak. Ular o'yinchoqlarni, kitoblarni, ish qurollarini o'yin va mashg'ulotdan keyin joy-joyiga yig'ishtirib qo'yadilar.

Har kuni ertalabki mashg'ulotdan keyin, kunduzi uyqu, kechki nonushtadan keyin sayr uyushtiriladi. Sayrda ijodiy o'yinning hamma turlari, bolalarga tanish va yangi qoidali, o'yinlar tashkil etiladi. Bolalarning o'yin, mehnat, mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi bolalarning xilma-xil mustaqil faoliyatlari uchun shart-sharoit yaratadi: kerakli material, asbob-anjomlar, o'yinchoqlar bilan ta'minlaydi, maydonchada, guruh xonasida o'yin uchun joy tayyorlaydi.

O'yin va mashg'ulotlar o'tkaziladigan joy gigienik jihatdan talabga javob berishi (yorug', ozoda, yaxshi shamollatilgan, nam latta bilan pollari artilgan, havo temperaturasi normal bo'lishi) kerak.

Sayrdatabiatni, kattalar faoliyatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatish imkoni yaratiladi sayr boshlanishida bolalarning mustaqil xatti-harakat qilishlari: yugurish, o'tirish, gaplashish va tomosha qilish uchun sharoit mavjud bo'ladi. Keyin harakatli o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, mehnat, kuzatish, turli-tuman ijodiy o'yinlar tashkil etiladi.

MTMda bolalar turmushini tashkilotishga katta e'tibor beriladi. Har bir yosh guruhida tashkil etilgan kun tartibi bolalarning uyquga, ovqatlanishga, faol mehnat qilishga bo'lgan talabini to'la qondirishi, bolalarda ijobiy hissiy kayfiyatni saqlash, bolalar va kattalar o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish uchun kerakli shart-sharoit yaratilishi kerak.

Amalga oshiriladigan tadbirlarda tarbiyachi bolalarda madaniy-gigienik malakalarni: ijtimoiy xulqni, xatti-harakatlar madaniyatini tarbiyalab boradi.

Bolaning sog'lombulib, to'g'ri rivojlanishi uchun tinch va chuqur, kerakli uyqu muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyachi guruh xonasida bolalarni uyquga yotqizgandan keyin xonaning shamollatilgan bo'lishini, tinchlikni ta'minlaydi. Bolalarning uyg'onganlarini sekin-astalik bilan turg'azish kerak.

Bola organizmining o'zgaruvchan tashki ta'sirlarga chidamliligini oshirish maqsadida har xil chiniqtiruvchi tadbirlar havo, quyosh, suv vannasi bilan chiniqtirish amalga oshiriladi.

Bunga chiniqtiruvchi tadbirlar vaqtini sekin-asta kupaytirib borish, suv temperaturasini pasaytirib borish, kunduzi uyquni ochiqhavoda tashkil etish,

bolalar kiyimlarini yengillatib borish orqali erishiladi. Bolalarning kunduzi va kechki soatlarda ochik. havoda bo'lishlarini ta'minlash ularning sog'lom, barkamol bo'lib o'sishlarida katta ahamiyatga ega.

Bolalarning ochiqhavodagi faoliyatlarini qiziqarli va maroqli o'tishini ta'minlash uchun har xil uyinlar, sport ermak o'yinlari, kuzatish va mehnat faoliyatlariga kerakli shart-sharoit yaratiladi.

**2. Kuning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish** Bolalar hayoti kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi kun tartibiga binoan tashkil etiladi. Buning uchun hamma zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur.

**Kichik guruh** bolalarining ko'p vaqti guruh xonasida o'tadi. YAxshi jihozlangan xona, o'yinchoq va qo'llanmalarni to'g'ri tanlash bolalarning to'laqonli hayot kechirishining asosiy sharti hisoblanadi. Guruh xonasidagi o'yinchoqlar bu yoshdagi bolalarning 4-3 ta bo'lib o'ynashlarini e'tiborga olib joylashtirilishi, «Oila», «Bolalar bog'chasi» va shunga o'xshash o'yinlarni o'ynashlari uchun o'yinchok. burchagi tashkil etilishi, unda yana qurilish materiallari, harakatlanuvchi o'yinchoqlar ham bo'lishi kerak, qolgan o'yinchoqlar, rasmlar shkaflarga bolalar bemalol oladigan qilib joylashtirishi lozim. Xonada bolalarning polda mashina, aravachalarni bemalol yurgiza olishlari va yirik qurilish materiallari bilan o'ynashlari uchun ham joy ajratilishi kerak. Harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar binoning maxsus xonalarida saqlanadi va jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagina olib chiqiladi. Maydonchaga qum yashiklari, bolalarning sakrashlari, tirmashib chiqishlari uchun kerakli jixozlar, qorda, muzda uchishlari uchun chanalar qo'yiladi.

**II kichik guruh** Moddiy muhit ikkinchi guruh bolalari uchun ham xuddi birinchi kichik guruhnikidek tashkil etiladi. Bundan tashqari kuzatish va mehnat uchun tabiat burchagiga akvariumda balik., to'rlarda kushlar va mayda hayvonlar joylashtiriladi. Guruh xonasidan kitob javoni uchun joy ajratiladi. MTM maydonchasida sport o'yinlari bilan shug'ullanish uchun maxsus joy bo'ladi, u kerakli anjomlar bilan jihozlab qo'yiladi: velosipedda uchish uchun yo'lka, tirmashib chiqish uchun jismoniy tarbiya narvonchalari, muvozanatni saqlash uchun ma'lum balandlikda yotqizilgan g'ola va shunga o'xshashlar bo'ladi. Olib chiqilgan o'yinchoqlarni o'ynash uchun maxsus stollar, o'rindiqlar, suv bilan o'ynash uchun maxsus idish, qum yashigi bo'lishi kerak.

**O'rta guruh** Guruh xonasi uxlash xonasi, xo'jayxona va echinish xonasiga ega bo'lishi kerak. Guruh xonasi bir necha bo'limdan iborat bo'lishi kerak. Birinchi o'yin bo'limida qo'g'irchok. bilan o'ynash uchun hamma kerakli narsalar joylashtirilgan shkaf buladi. Ikkinchi uyin bo'limida kurilish materiallari qo'yiladigan shkaf va ular bilan o'ynash uchun joy ajratiladi. SHu xonaning yana

bir qismida bolalarning badiiy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanishlari uchun kerakli materiallar qo'yiladi. Kitob burchagi va stol usti bosma o'yini bilan shug'ullanishlari uchun o'yin burchagida tinchroq joyni ajratish kerak. Tabiat burchagini derazalarga yaqinroqda joylashtirgan ma'kul. Xona amaliy san'at asarlari va ko'kalamzorlashtiruvchi o'simliklar bilan bezatiladi.

Maydoncha boshqa maydonchalardan yashil, manzarali o'simliklar bilan to'silib, jismoniy mashqlar va sport ermak o'yinlari uchun kerakli asboblardan jihazlanadi.

**Katta guruh.** O'yin bo'limlari bolalarning yoshiga mos holda, o'rta guruh xonasi kabi jixozlanadi. Guruh xonasida yana mashg'ulot o'tkaziladigan bo'lim ajratiladi va u erga tarbiyachining stoli, ekran, shkaf, doska joylashtiriladi. Bolalarning mustaqil o'ynashlari uchun hamma kerakli materiallar ular bemalol foydalana oladigan qilib joylashtirilishi kerak (stollar, uyinchoqlar solingan qutichalar, vitrina shkafi, tokchalar va boshqalar). Tabiat burchagi, qo'l mehnati bilan shug'ullanadigan burchak, kitob burchagi, tasviriy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanadigan burchak, musiqaviy faoliyat burchaklari bo'lishi kerak. Bulardan tashqari bolalar bemalol, erkin harakat qilishlari uchun kattagina bo'sh joy bo'lishi zarur. Maydonchada sport o'yinlari, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, irg'itish uchun katta joy ajratiladi. Syujetli o'yinlar uchun o'yinchoqlar ham bo'ladi.

**Tayyorlov guruhi.** Bu erdagi mashg'ulot o'tkaziladigan bo'limda katta guruhdagi singari bolalar uchun ikki kishilik stollar qo'yiladi. Guruh xonasidagi jihazlar zarurat tufayli shug'ullanganda o'yinga joy bo'shatish maqsadida boshqa tomonga surib qo'yadigan qilib joylashtiriladi. Maydonchada sport o'yinlari va har xil o'yinlar uchun joy ajratiladi, gulxona va poliz tashkil etilib, u erda bolalar o'zlari gul va sabzavotlarni etishtiradilar.

Bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan talablar. Kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish, bolalarning MTMda 9-10 soat bo'lishi kun tartibida belgilab qo'yilgan. Bunda ertalabki qabul muxim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning MTMdagi vaqti qiziqarli, sermazmun o'tishini ta'minlaydi.

Buning uchun ertalab bolalarni ochiq chehra bilan kutib oladi, ota-onalari bilan xushmuomala, xayrixox munosabatda bo'ladi. Ertalabki qabul vaqtida ijodiy o'yinning hamma turlari tashkil etiladi, tabiat burchagida kuzatish, bolalarning guruh xonasidagi, ovqat va mashg'ulotlardagi navbatchiliklari, nonushtadan oldin ertalabki gimnastika va yuvinish tashkil etiladi. Nonushta vaqtida tarbiyachi bolalarning ovqatlanish madaniyatini nazorat qilib turadi.

Nonushtadan keyin dasturda ko'rsatilgan vaqt mobaynida mashg'ulot o'tkaziladi. Mashg'ulotgacha va mashg'ulot o'rtasida o'yinlar tashkil etiladi. Qanday o'yin o'tkazilishi mashg'ulotning mazmuni va xususiyatiga bog'liq.



Bolalar o'tirib shug'ullanadigan mashg'ulotdan oldin harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya va musiqaviy mashg'ulotdan oldin tinch o'yinlar o'ynashadi. Mashg'ulotdan keyin sayr o'tkaziladi. Tarbiyachi tevarak-atrofdagi tabiatni, kattalar mehnatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatishni tashkil etadi. Harakatli o'yinlar o'tkazadi, mustaqil o'yin o'tkazishni taklif etadi. Mana shu vaqt ichida bolalarning mustaqil faoliyatlari, mehnat, didaktik o'yinlar, ijodiy o'yin turlari bilan shug'ulanishlari uchun katta e'tibor beriladi. Maqsadli sayrlar uyushtiriladi. Sport o'yinlari va mashqlar, jismoniy dam olish va shunga o'xshashlar bolalarning harakat faolligini o'stirishga ham katta ahamiyat beriladi.

Bolalarning sayrdan qaytishlari, echinib yuvinishlari, tushki ovqat va kunduzgi uyqu ham juda uyushqoklik bilan o'tishi kerak.

Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarni uyg'otib, faoliyatga kirishlarini ta'minlaydi va kechki nonushta tashkil etiladi. Keyin musiqaviy yoki jismoniy tarbiya mashg'uloti o'tkazilishi mumkin. Kechki sayrga quyidagilar kiradi: hamma ijodiy, didaktik o'yinlar, tinch harakatli o'yinlar, kuzatish, qo'l mehnati, bolalarning mustaqil tasviriy faoliyati, ko'ngil ochishlar (haftada bir marta). Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talab har bir bolaning mazmunli va qiziqarli faoliyat bilan shug'ullanishini, ularning har tomonlama rivojlanishi va baxtli bolaligini ta'minlashdir.

Shunday qilib, kun davomida bolalar hayotini tashkil etishga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.
2. Har bir yosh guruhda faoliyat turlarini almashtirib borish
3. Bolalarning harakat faolligini etarlicha ta'minlash.
4. Mashg'ulot, o'yin, mehnat, maishiy faoliyat o'rtasida aloqa o'rnatish.
5. Bolalarning olgan bilim, malaka, ko'nikmalarini mustaqil faoliyatlarida qo'llay olishga o'rgatish.
6. Bolani faol bo'lishga, har doim biron narsa bilan mashg'ul bo'lishga o'rgatish.
7. Har bir bolani ijobiy xoxish va qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib borish va uning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.
8. Bolalarning butun faoliyatiga tarbiyachining rahbarligi.

D.Mutalova, G.Tojiboyeva, D.Maxmudova

**MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIKA**

Darslik

**Nashriyot litsenziya № 5022, 03.10.2021 й**

Bichimi 60x841/16. "Times new roman" garniturası, kegli 14.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 12. Adadi 100 dona.

**History and page MCHJda chop etildi.**

## QAYDLAR UCHUN

